11-57

TURKIY ADABIYOT
DURDONALARI

MIRTEMIR

20

8.4(5O')-5
M-54

TURKIY ADABIYOT
DURDONALARI

MIRTEMIR

20

JIZZAX DPU
INV № 149162
AXBOROT RESURS MARKAZI

"O'ZBEKISTON"
TOSHKENT — 2022

UO‘K 821.512.133-1
KBK 84(5O‘)-5
M 57

Tahrir hay’ati:

Xayriddin Sulton – hay’at raisi,
Ibrohim G‘afurov, Sirojiddin Sayyid, Asadjon Xodjayev,
Behzod Yo‘ldoshev, Minhojiddin Mirzo, Muhammad Ali,
Ahmadjon Meliboyev, Kengesboy Karimov, Isajon Sulton

Ishchi guruh:

Ikrom Bo‘riboyev, G‘ofur Eshmurodov, G‘ayrat Bozorov,
G‘ayrat Majid, Rustam Musurmon, Risolat Haydarova, Umid Hayitov

To‘plovchi va nashrga tayyorlovchi

G‘ayrat Majid

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2019-yil 15-oktabr kuni Ozarbayjon poytaxti Boku shahrida bo‘lib o‘tgan Turkiy davlatlar hamkorlik kengashining yettinchi sammitida tashkilotga a’zo davlatlar adabiyotining eng sara namunalaridan iborat “Turkiy adabiyot durdonalari” deb nomlangan 100 jildlik kitoblar turkumini har bir mamlakatning ona tilida nashr etish g‘oyasini ilgari surgan edi.

Ushbu ezgu tashabbus asosida birinchi bo‘lib O‘zbekistonda mana shu muhtasham adabiy majmua yaratildi.

Mazkur keng ko‘lamli, zalvorli badiiy silsilaga umumturkiy adabiyotning eng yetuk namunalari, O‘zbekiston, Turkiya, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Ozarbayjon, Turkmaniston va Vengriya davlatlarining atoqli shoir, adib va mutafakkirlarining asarlari kiritildi.

Turkiy tilli davlatlar orasida ilk bor ro‘yobga chiqarilgan ushbu yirik loyiha ona yurtimizda madaniyat va san’atga ko‘rsatilayotgan ulkan g‘amxo‘rlikning, xalqimizning qardosh xalqlar va ularning so‘z san’atiga nisbatan yuksak hurmat-ehtiromining ramzidir.

ISBN 978-9943-8723-7-0
©“O‘zbekiston” nashriyoti, 2022

YANGROQ TANBUR SADOSI

Yigirmanchi yuz yillikda o‘zbek adabiyoti o‘z taraqqiyotining yangi bosqichiga ko‘tarildi. O‘tgan asrning birinchi yarmidagi badiiy tafakkur rivoji jahon adabiy jarayoni tamoyillariga asoslangan realistik yo‘nalish sur’atlarining jadallashgani bilan ajralib turadi. Bu davrning iste’dodli yosh ijodkorlari asosiy e’tiborni shaxs va jamiyat tahliliga qaratdilar va davr ruhiga javob beradigan ijtimoiy mazmundor, dolzarb asarlar yaratdilar. Ular o‘z ijodi bilan o‘zbek adabiyotini ancha yangi sifat bosqichiga ko‘tardilar, milliy adabiyotni yorqin va rang-barang asarlar bilan boyitdilar, yangi poetik maktab an’analarini boshlab berdilar. Ana shunday ijodkorlardan biri, ajoyib shoir Mirtemir (1910—1978) edi. U G‘afur G‘ulom, Oybek, Hamid Olimjon kabi yetuk so‘z ustalari bilan bir safda turib ijod qildi. Mirtemir ham milliy adabiyotimizga o‘zining munosib hissasini qo‘shdi, uning qator asarlari mumtozlik darajasiga ko‘tarildi. Mana, shoirning tiniq va jarangdor ovoziga quloq tutaylik:

Qo‘shiqlarim, siz uchun xijolatlik emasman,
Siz o‘tgan yo‘llarimsiz, kechgan daryolarimsiz.
Sizni men oltinga ham, kumushga ham bermasman,
Siz mening tansiq g‘aznam, ezgu dunyolarimsiz.

Bu satrlar garchi o‘tgan asrning yigirmanchi yillarida yozilgan bo‘lsa-da, hamon o‘z jarangi va jozibadorligini yo‘qotgani yo‘q. Haqiqiy so‘z ustasi yaratgan asar hamisha ana shunday ohorli va maftunkor bo‘ladi.

* * *

Shoir Mirtemir Tursunov 1910-yilda Turkiston shahri yaqinidagi Iqon qishlog‘ida dunyoga keldi. Qoratog‘ etaklaridagi onadek munis, nafosatli go‘shalar yosh o‘spirin xotirasiga man-

gu o‘rnashib, uning uzoq yillik samarali ijodida doimiy hamroh, she’rlarining debochasi bo‘lib qoldi.

Qari, turg‘un, g‘udur Qoratog‘
Sen go‘zalni asrar bag‘rida.
Senday bo‘lmas ujmoh bog‘ida...
Guldek borlig‘ingda hech yo‘q dog‘.

Aksar hollarda markazdan olisda tug‘ilganlar ilmga chanqoq, ma’rifatga tashna bo‘lib, jamiyatda o‘zining munosib o‘rnini topishga qattiq jidd-u jahd ko‘rsatadi. Hamisha shunday bo‘lib kelgan va bundan keyin ham shunday bo‘lib qolaveradi. Ilm-ma’rifat egallashga bo‘lgan bu ishtiyoq tevarak-atrofda ro‘y berayotgan voqealarning kuchli taassurotlari natijasida “tug‘yonlari go‘zal qalblar” tug‘iladigan tarixiy burilish nuqtalarida yanada yaqqolroq namoyon bo‘ladi. Yosh qalblar yuksak samaralarga erishishga, xalq e’tiborini qozonishga intiladi, ijodiy o‘zligini tasdiqlatish uchun yo‘llar axtaradi.

Mirtemir 1929-yilda Toshkentdagi O‘zbek maorif institutini, 1932-yilda esa Samarqanddagi Pedagogika akademiyasini bitirib chiqdi. Ziyrak, mustahkam tayyorgarlikka ega bo‘lgan bu yigit ko‘zga yaqqol tashlanmasligi mumkin emas edi. U bir muddat O‘zbekiston Markaziy Ijroiya Komiteti raisining shaxsiy kotibi bo‘lib ishladi. Biroq quyundek bostirib kelgan shafqatsiz 30-yillar dahshati Mirtemirni ham ayab o‘tirmadi. U “Moskva—Volga” kanali qurilishiga surgun qilindi, xayriyatki, u bu qurilishda uzoq qolib ketmadi.

Tabiiyki, bu yillar shoir uchun eng murakkab yillar bo‘lib, u davrda omon qolishning o‘zi katta baxt edi. Shoir bu sinovlarga bardosh beribgina qolmay, vijdonini pok tuta oldi va shuning uchun ham bir umr mag‘rur bosh ko‘tarib yashadi. Hayot mashaqqatlari uni obdan tobladi, zarur tajriba va bilimlarni o‘rgatdi, ular esa shoir ijodi bilan-da o‘z aksini topdi.

Toshkentga qaytgach, Mirtemir muallimlik faoliyati bilan shug‘ullandi, qator tahririyatlarda adabiy xodim, yozuvchilar uyushmasida adabiy maslahatchi, yirik nashriyotlarda muhar-

rir bo‘lib ishladi. Uning ijodi boy va samarali bo‘ldi. Shoir o‘z she’riy maktabini yarata oldi, ko‘plab yoshlarga murabbiylik qildi.

Shoir Mirtemir 1978-yilda vafot etdi. Vafotidan bir yil o‘tgach, “Tog‘dek tayanchim” she’rlar to‘plami uchun respublika Davlat mukofotiga sazovor bo‘ldi.

* * *

1926-yilda o‘n olti yoshli o‘spirin Mirtemir o‘zining yorqin va yodga muhrlanib qoladigan “Tanburim tovushi” she’rini e’lon qildi va bu she’r uzoq yillar mobaynida shoir niyatlarining sarchashmasi bo‘lib qoldi. Mana ushbu she’rdan bir parcha:

Borliqqa tarqalsin tanburim tovushi,
Bir bolqish yaratsin yosh yuraklarda.
Shavq-u zavq qo‘zg‘otsin sho‘x-sho‘x kuylashi
Hattoki tebranmas tosh yuraklarda.

Tanburim torining yangroq sadosi
Borliqda umidlar uyg‘otib borsin;
Qalblarni eritib yoniq navosi,
Har ruhda bitmas zavq o‘ynatib borsin!

Shoirning dastlabki izlanishlarini kitobxonlar ancha iliq kutib olishdi. Munaqqidlarning uning ijodiga bergan ilk baholari paydo bo‘ldi. Mazkur baholar ijobiy va xayrixohlik ruhida edi. Bu esa yosh shoir uchun nihoyatda muhim bo‘lgan kuch-quvvat va ishonch baxsh etdi. Shoir atigi ikki yil o‘tgach o‘zining “Shu’lalar qo‘ynida” nomli ilk she’riy to‘plamini e’lon etdi, shundan so‘ng ketma-ket uning “G‘alaba” (1929), “Qaynashlar”, “Kommuna”, “Bong” (1932) kabi she’riy majmualari bosilib chiqdi. Shoir Mirtemir haqida jiddiyroq gaplar aytila boshlandi, u adabiy davralarda kelajagi porloq, katta umid baxsh etuvchi iste’dodli shoir sifatida tilga olina boshlandi. Biroq shoir ijodining ilk davri “da’vatkor” adabiyot doirasida rivojlanib, bu asarlarda ijtimoiy keskinlik, bir qadar siyosiy shiorbozlik mavzusi ustuvorlik qilar edi. Mirtemirning dastlabki she’riy majmualarida muallifning o‘sha davr adabiyotiga xos bo‘lgan, san’atda ijtimoiy yo‘nalishni ustun qo‘yadigan, borliqni bo‘yab tasvirlashga moyillik yaqqol sezilib turadi.

Ayni paytda uning she'rlarida tiniqlik, samimiyat, muhimi, mumtoz she'riy an'analarni davom ettirishga intilish kuzatilar edi. Mana bir misol:

Deydilarkim, shahrimda bir go'zal bormish,
Har oqshom bog'ga kirib mani so'rarmish.
Izlarim topolmay ohlar urarmish —
Gir-gir yurarmish,
Hayron bo'larmish.
O'ltirib yaproq-la suhbat qurarmish...

O'sha davr ijodkorlari mavhum tasvirlar o'z dolzarbligini yo'qotib bo'ldi, degan xulosaga kelib, o'z asarlaridan eski qolip va andazalarni siqib chiqarishga harakat qildilar. Bu esa, o'z navbatida, badiiy ijodga bo'lgan ustuvor munosabatlarni qaytadan yaratish, poetik so'zga yangicha ta'sirchan ma'no yuklash, hayot hodisotlarining rang-barangligini kashf etish imkonini berdi. Lekin buni mahorat bilan uddalash hammaga ham nasib qilavermasdi.

Mirtemir she'riy ijodda o'z safdoshlari, yosh shoirlar bilan birgalikda milliy adabiy an'analar, she'riy madaniyat ufqlarini kengaytirishga intildi. Va buni u muvaffaqiyat bilan ado etdi. Mirtemir mamlakatda sodir bo'layotgan voqealarning kuchli girdobiga intiluvchan yosh, she'riyatga mushtoq qalblar nimagaki qiziqsa, shularning hammasi haqida yozar edi. Albatta, mahorat o'z-o'zidan paydo bo'lgani yo'q. Lekin bu urinishlarning barchasi samimiy edi. Keyinroq shoirning o'zi bunday deb yozgan edi: "She'r — bu yurak degani, qalbning sa'y-harakati va tug'yonlari degani, she'r obraz va obrazli fikrlash degani". Ana shu tushunchaga sodiq qolgan holda Mirtemir ham intim lirika, ham o'sha davr g'oyalari bilan to'lib-toshgan ijtimoiy she'rlar yaratdi, inson qalbini hayajonga soladigan yorqin, barkamol, muhimi, izlash-intilishga da'vat etadigan ko'pdan ko'p asarlar ijod qildi:

Tong yeliday saharlarda
Uzoqlarga jo'nar bo'ldim;
Jang qizigan mahallarda
Olov kabi yonar bo'ldim.

Shoir ijodida muhabbat lirikasi alohida o‘rin egallaydi. U Sharq she’riyatining eng yaxshi an’analarini davom ettirib, yorqin obrazlar va yuksak she’riyat namunalarini yaratdi:

Ko‘zlarim yo‘li ustida,
Yor kelur, jononim kelur.
Mehri kulib diydasida,
Yor kelur, jononim kelur.

Sevganiga etmas jafo,
Va’dasiga aylab vafo,
Sayr etgali bog‘ bosafo
Yor kelur, jononim kelur.

Mirtemir ijodida Vatan haqida ham go‘zal she’rlar mavjud. U Vatan haqida chin yurakdan, ortiqcha dabdababozlik va soxta vatanparvarlikka berilmasdan yozadi:

Tuproq ostida ham zar — hamisha zardir,
Kumushni zang bossa — kumushdir hamon.
Dengiz tublarida gavhardir — gavhar,
Chiqar tog‘ tagidan kon ham bir zamon...

Oyni etak bilan to‘sib bo‘lurmi?
Tutatqi bo‘lurmi yulduz cho‘g‘ida?
Ayting-chi, mard odam aslo o‘lurmi?
Nomi qolar yurt qo‘shig‘ida.

Barqaror milliy kolorit Mirtemir she’riyatining ajralmas unsuridir. U bu borada ham alohida bir muhit, o‘ziga xos kayfiyat, samimiy ruh yarata oladi. Uning she’rlari mayin, dilkash bo‘lib, ohangiga ko‘ra xalq qo‘shiqlari bilan uyqashib ketadi:

Qora ko‘zli va gul diydor,
Bahor chog‘i meni yod et!
Xiyobonda kezar bo‘lsang,
Nahor chog‘i meni yod et!

Qora ko‘zli, so‘lim dildor,
Senga aytay sirim oshkor,

Agar kechsa kechang bedor,
Sahar chog'i meni yod et!

Shoir bir qancha lirik ballada va dostonlar ham yaratgan bo'lib, ulardan faqatgina o'z davrining voqeligi emas, balki milliy folklor ruhi ham ufurib turadi.

Uning nasriy she'rlari, sochmalari ham o'ziga xos. Ulardan biri bo'lmish "Qalb to'g'risida" she'rini misol qilib keltirish mumkin:

"Bobolarim xoki uyqash-quyqash ezgu tuprog'im! Ey, o'zligimga, o'zbekligimga ko'zgu tuprog'im! Qaydan bu baloyi nogahon, qaylarda edi nihon? Qahringmi, dag'dag'angmi, nahot buncha titrab-qaqshasang? Nahot shu jazavangda mehri daryo onaga o'xshasang? Ne o'zi? Yer tagida titanlar jangi bormidi, o'sha titanlar yer ustida shuncha buzg'unlikka zormidi?

Alp elim, boshingni tik tut, bu mushkulotdan ham bobolardek tik o't! Boshingga yuz battar kunlar tushgani esingdami? Ne ofatlar dog' solib, kuning motamga qolib, qayg'ularing ustma-ust jo'shgani esingdami? Bu gal ham balo o'tishi aniq, dog' solsa ham ketishi aniq...".

Mirtemir badiiy izlanishlarining tadrijiy rivoji o'sha davr o'zbek adabiyoti taraqqiyotining umumiy qonuniyatlarini — ijodda realistik tamoyillarning qaror topishidan tortib ularning yangilanishigacha bo'lgan jarayonlarni o'zida aks ettirdi.

* * *

Ajoyib shoir Mirtemir tarjimon sifatida ham o'zbek she'riyatiga salmoqli hissa qo'shdi. Uning tarjimonlik mahorati tufayli Pushkin va Lermontov, Rustaveli va Abay, Nekrasov va Krilov, Geyne va Tagor hamda shu kabi ko'plab siymolar o'zbekcha "gapirishdi".

O'zining qariyb yarim asrlik ijodiy faoliyati davomida Mirtemir turli she'riy janrlarda ajoyib, benazir asarlar yaratib ulgurdi. Uning butun ijodi — bu o'zbek shoirining ulkan iste'dodidan yorqin bir dalolat bo'lib, hali ko'p yillar jozibadorligini yo'qotmaydi va sevib o'qilaveradi.

Farhod Hamroyev,
filologiya fanlari nomzodi

* * *

Qo‘shiqlarim, siz uchun xijolatlik emasman,
Siz o‘tgan yo‘llarimsiz, kechgan daryolarimsiz.
Sizni men oltinga ham, kumushga ham bermasman,
Siz mening tansiq g‘aznam, ezgu dunyolarimsiz.

Mening dardim-darddoshim, ilinjim, ko‘ngil tinchim,
Siz bilan tirikman-da, mening qalb cho‘g‘im siz-ku!
Mening oltmish besh yoshim — g‘ussalarim, sevinchim,
Eng yorug‘ xayollarim, mening bor-yo‘g‘im siz-ku!

Siz mening qalqonimsiz. Tayanchim, tog‘ bardoshim,
Siz borsiz — cho‘chitolgay na do‘zax va na ayoz.
Faqat, faqat xalqimga egilur mag‘rur boshim,
Xalqimning o‘zi bermish soz axir, bu jarang soz...

YO‘Q BO‘LMAS

Ozodlik qurboniga

Pardadan qochmishding sen,
Gul yuzing ochmishding sen,
Qorong‘ini sevmasdan,
Erk sari uchmishding sen.

Ko‘ngling nurga to‘liqdi,
Tilaklaring ulug‘di,
Ey botir qiz, umiding
Quyosh kabi yorug‘di.

Qaynar qon tindi-qoldi,
Bilaklar ishsiz toldi,
Ko‘plarni qayg‘u oldi;
Ko‘p ko‘zlar yoshga to‘ldi.

Oh, bir uchqunmi so‘ndi?
Qalblar shunga o‘rtandi?
Sen ketding bu bog‘chadan,
Boyqush, qarg‘ami qo‘ndi?

Bog‘chaga boyqush qo‘nmas!
Nurli umidlar so‘nmas!
Tinch uxla, botir qiz, sen,
Istaklaring hech o‘lmas!

TUTQUN QIZ

Esdalik daftarlarimdan

Qop-qora ko‘zing
Yoshlarga to‘lmish.
Oy kabi yuzing
Yaproqday so‘lmish.

Ma’sum dil — o‘ying
Qayg‘u-la dog‘liq.
Tilda dard kuying,
Yo‘llaring bog‘liq...

Qafasda kun-tun
Faryod etasan.
Siniq qalb — tutqun
Kimni kutasan?

Yolg‘iz... u ohing,
G‘amli nigohing
Kimsa sezmaydi...
Nadir gunohing?

Ey qiz, zamondosh,
Sochma ko‘zdan yosh...
Yirt shu pardani,
Nur otsin quyosh...

* * *

Ko‘zingni o‘ynatma, kulma, qarama,
Nozli nigohlaring kerakmas sening.
Bog‘lab olarman, deb endi o‘ylama...
Tortgan u “oh”laring chin emas sening.

Ko‘p kunlar sudrading tusmol yo‘llarda,
Men-da tilsizlarcha ergashdim-ketdim.
Adashgan ekanman, bilsam, cho‘llarda,
Mana endilikda tushunib yetdim...

Tushundim: u totli xayollar — xayol,
Aldanmas bu yurak shirin so‘zingga.
Yo‘qol, ey aldamchi, yondashma, yo‘qol,
Termilish yo‘q endi orsiz yuzingga!

Jilmayma, qarama, so‘zlama menga,
Eski afsonani kuylama menga...

TANBURIM TOVUSHI

Borliqqa tarqalsin tanburim tovushi,
Bir bolqish yaratsin yosh yuraklarda.
Shavq-u zavq qo‘zg‘otsin sho‘x-sho‘x kuylashi
Hattoki tebranmas tosh yuraklarda.

Tanburim torining yangroq sadosi
Borliqda umidlar uyg‘otib borsin;
Qalblarni eritib yoniq navosi,
Har ruhda bitmas zavq o‘ynatib borsin!

Qo‘limda tanburim kuylagan choqda,
Olam yashnab ketsin va yayrab o‘ssin
Bu erkin tuproqda qirmizi gul ham...
Umidlar dostonin so‘zlagan choqda
Charx urib, hayrat-la chamanga tushsin
Ko‘kdan zavq izlagan dardli bulbul ham...

Har yoqqa taralsin tanburim tovushi,
Birakay to‘xtalsin ko‘zlarning yoshi.
Tashlansin qo‘llardan qayg‘ular toshi,
Tugalsin borliqning hazin yig‘lashi!..

CHASHMA BO‘YIDA

Bir ko‘klam tongining nozli chog‘ida
Chashma bo‘ylarida o‘ltirib qoldim.
Qo‘ynimga chechaklar to‘ldirib oldim.
Sezardim o‘zimni zavq quchog‘ida.

Ko‘m-ko‘k og‘ochlarning qalin shoxida
Qanotli kuychilar sayrashda edi.
Ezilgan ko‘ngillar yayrashda edi.
Farah yuz ochardi qalbim bog‘ida.

Sof, kumush chashmaning sirli bo‘yida
G‘am-u g‘ussalarni men ham to‘kardim.
Charchagan tanamni yengillatardim.
Umidlar ekardim g‘amlar o‘rnida.

Tiniq chashma bo‘yi — yashillik qo‘yni;
Quchar va kuch berar edi menga ul.
Quyosh! Shu chog‘larda soch tarqatib kul.
Tabiat boshlamish ko‘klam to‘yini.

Chashma bo‘ylarida qoldim bir tongda.
Chechaklar kulardi shunda har yonda!..

BOQ!

Boq! Sharqning bulutlar bosgan ufqida
o‘tlar yonadi...
Yovuzlar bulg‘agan majruh ko‘ksiga
shu’la yog‘adi...

Zamonlar uxlagan uzoq kunchiqar
Qo‘zg‘olib qoldi.
Keng Sharqqa g‘ofillik sepgan xo‘jalar
dahshatga toldi...

Yillarning jabrini tortgan bandalar
turgan o‘xshaydi...
Isyonsiz zanjirlar uzilmasligin
bilgan o‘xshaydi...

Ufqda porlagan alanga — o‘tlar
kuchlanar, so‘nmas!
O‘lim yomg‘irini sepgan bulutlar
tarqalar, turmas!..

Boq! Tutqun kunchiqish ufqida yong‘in,
Dahshatga uradir zarbali yolqin...

KO‘KQIYO

Qari, turg‘un, g‘udur Qoratog‘
Sen go‘zalni asrar bag‘rida.
Senday bo‘lmas ujmoh bog‘ida...
Guldek borlig‘ingda hech yo‘q dog‘.

Oldin quchar erkalab quyosh...
Quchog‘ingdan topilmas hasrat.
Keng ko‘ksingda chechak, lola-pat...
Oh, na dilbar oppoq qiyo tosh!

Jon ozig‘i unib-o‘sadi
Qurshab olgan oltin qirlarda.
Ertalablar, oydin tunlarda
Ko‘ngillarni sevinch bosadi.

Shu kun ko‘nglim g‘am nima bilmay,
Ey Qoratog‘ qizi — Ko‘kqiyo,
Go‘daklikdan senga mahliyo,
Quchog‘ingdan ketgim kelmaydi...

SHU'LA

Sochma

Jahonni chulg'agan quyuq zulmat — og'ir, falokatli qanotlarni sudrab qochmoqda.

Olis tog'lar orqasidan o't parchasi alangali chehrasini ochmoqda, quchoq-quchoq o't sochmoqda.

Uyqu qochmoqda!..

Uyg'onmoqda sonsiz g'aflat tutqunlari!

Bulutlarda qizarish, qullar ko'nglida toshqin...

Shu'la nayzalari — qoq butoqlardagi xazon kuychilarining bag'riga qadaladi — ha!

Yashirindilar ular ham!

Bulutlar qa'rida allaqanday mudhish xayolga cho'mgan ulug'-vor tog'lar, tog'larning go'zalligini orttiruvchi kumush buloqlar, kuz yellari oltin sepgan uvalar, keng qulochli yaylovlar, oltin qirlar — shu'la quchog'ida...

Erk tongi — bu!

* * *

Zulmatdan bezgan yuraklar sevinchga to'ldi...

Kuldi...

O't parcha porlagandan porlab, yonadi tiniq ko'k betida!

Tabiat umidlar, sevinchlarga botadi.

Jahon go'zalligi yana ortadi...

Yana qushlar olqish so'ylaydilar sayrab...

Qalblar qayg'udan ozod... sevinch toshadi, inson yayrab.

* * *

Men — g'aflat qahrida titraganlardan...

Boyqushlardan ta'na tinglaganlardan...

Og'ir kulfatda ingraganlardan!

G'aflat quli edim men...

Ochildi yumuq ko'zlar!

JIZZAX DPU
INV No 149162
AXBOROT RESURS MARKAZI

Kuldi so‘lg‘in yuzlar...

Shodmen, ko‘plardek shodmen!

Tilimda — tong sha’niga, erk hurmatiga she’r toshadi.

Qalbimda — yangi hayotga tuganmas muhabbat oshadi...

Biz — shu yorug‘ hayot oshig‘i!

Sevmaymiz qora kechani! Soya-salqinga toqat yo‘q!..

Shu’la shafqat manbayidir! G‘amsiz, kadarsiz erkalanaman, yayrayman ko‘plardek!

Borliq uyg‘oq!

Tabiat nur ichida.

Erk, qutulish tongida, yoniq shu’lalar qo‘ynida, nur qo‘ynida qoldim men!

G‘amlar tarqoq!

Men uyg‘oq!

Qalbimda toshqin...

Ko‘nglimda muhabbat, umid!

Zahmat chekkan tanamni erkalatuvchi quyosh bag‘rida, shu’la quchog‘ida qoldim men — ko‘plar qatorida...

Menga saodat, menga baxt, erk shunda!..

Toshkent

ANA, BOG‘LAR

Tutqun do‘stim, go‘zal Qamar, turdingmi?
Ozod turmush quchog‘ida yurdingmi?
Sochlaringni to‘lqinlatib o‘rdingmi?
Erkin ellar parvozini ko‘rdingmi?

Ana, bog‘lar... ana, gulzor, xiyobon,
Ana, hayot yaproq yozgan biyobon.
Kulib turgan shu hayotdan haqing ol.
Sen ham inson, sen ham inson, sen inson!

Qora tarix qonunlari yondi, qiz!
Qora turmush do‘zaxlari so‘ndi, qiz!
Yuraklaring titramasin barg yanglig‘,
Yoz qushlari butoqlarga qo‘ndi, qiz...
Tutqun do‘stim, go‘zal Qamar, turdingmi?
Sochlaringni yuvib-tarab, o‘rdingmi?
Ozod ellar yuksalishin ko‘rdingmi?
Ana, bog‘lar...
O‘ynab-kulib yurdingmi?..

EDIL KULGANDA

Sochma

Edil oqadi.

Qirg‘oqlarda yashil o‘rmonlar Edil oynasiga boqadi. Suv oynasida o‘zlarini ko‘rgach, yashil yaproqlar bir-biriga sir ochadi, bir-birini o‘pib quchadi... yel esa uzoqlardan kelib, o‘ynaydi, uchadi. Sochlarni dolg‘alantirib, tag‘in qochadi...

Minglarcha mayin dolg‘alar, qo‘rquvsiz to‘lqinchalar ila oqib yotgan suvga quyosh oltin sochlar armug‘on etdi, Edil siynasida minglarcha oltin sochlar, o‘t chiziqlarining o‘yini boshlanib ketdi...

Suvni ikkiga ayirib borayotgan kemaning hayqirig‘i havoni tiladi. Yuraklar oshiqadi, talpinadi, yuraklardagi g‘ash o‘rniga yengil istaklar to‘ladi...

Ko‘zlar kulgan qirg‘oqlar sayrida kuladi... Minglarcha oltin to‘lqinlar bilan tovushsiz Edil ham mamnun-mamnun kuladi...

— Edil kuladi!

...Uzoqlar yo‘lchisidan xabaring bormi, hey kurash daryosi! Ayt, shu choqda: oq o‘rdular, oq to‘lqinlaringga mazlumlar qonini qo‘shganda, sendan ruxsatsiz ko‘kragingga harom oyoqlarini bosganda... jim qoldingmi?

Hayqirib, toshmadingmi? Bosmadingmi? To‘smadingmi? Hanuz saqlanadimi yillar siri yashil o‘rmonlaring quchog‘ida? Chechakli kunlar uchun kurash ochganmi bu qirg‘oqlarda?

Ayt, barchasini so‘yla, chechaklar o‘sgan qirg‘oqdagi turmush kuylarini kuyla. Hey qonli yillarning tilsiz tarixi — qoramtir suv... erk ellarining erka daryosi — Edil...

So‘yla!
To‘lqinlar o‘ynoq...
To‘lqinlar uyg‘oq!

Edil to‘lqinlar otib oqadi. O‘rmonlar Edil oynasiga kulib boqadi. Oh, so‘ngsiz bag‘rida oltin chechaklar ochilgan qora suvga qarasangiz, so‘rasangiz! Edil sizni erkalaganday o‘ynatadi. So‘ylamay, netmay oqadi. Go‘yo, vaqtim yo‘q, yo‘lim uzoq — o‘zing bil, deganday, bizning uzoqlar yo‘lchisi ekanimizni bilmaganday...

Qirg‘oqda yashil o‘rmonlar biri birini quchib turadi. Yashil qirg‘oqlar, qishloqlar sayri yuraklarda sevinch quradi.

Edil ko‘piklar sochib, quchoq ochib, nur ichida kuladi...

Edil kuladi!

Edil

CHO‘L

Esdalik daftarimdan

Ana cho‘l: har tomon qum,
Tosh eriydi go‘yo mum.
Yalpoq, yassi tepalar,
Yotadi turkum-turkum...
Keng dala — har tomon qum!

Ko‘rolmadim uchar qush,
Na sado, na bir tovush...
Adashib qolsam agar,
Netkum tashna va behush?
Ko‘rolmadim uchar qush.

Suv bo‘lsa-chi, koshki suv!
Bitardi jimlik, uyqu...
Yo‘qlikka qochar edi
Yillardan qolgan qayg‘u...
Suv bo‘lsa-chi, oh, suv, suv!..

Cho‘l ana, qum har yog‘i,
Bu yerlar do‘zax chog‘i...
Na qush, na tovush.... yotar
Turkum-turkum qum tog‘i,
Cho‘l,
jim...
tosh, qum har yog‘i.

Turkiston

OYNISA

Sochma

Yoshligi esida.

Qayg‘usiz o‘ynar edi shu oqar daryo bo‘ylarida... Yuzlari ochiq, ko‘zlari o‘ysiz, erkin-erkin yayrar edi shu yashil do‘nglarda...

Bahosiz yoshlik chog‘i esida.

Yoshlik o‘tdi. Bo‘yi yetdi. Kir odat uni zindondek hovliga soldi. U chiqolmaydigan, quvonolmaydigan Oynisa bo‘lib qoldi.

* * *

Otasi daladan qaytadi-yu, ho‘kiz haydab yana ketadi. Buvisi qari, sochlari oq, yuzlarida ajin, tasbeh o‘girib kuni o‘tadi...

Qiz...

— Qiz — dard bilan yo‘ldosh, otalarning go‘yo bag‘ritosh?

Go‘yo qiz inson bolasi emas-u ichkari uchun yaratilgan buyum.

Tosh!

Bu, olchoq qonunlarning qalbi qora bir tosh...

* * *

Tirqishlardan qarab qolish odat bo‘ldi, yuragi armonlar-la to‘ldi...

Ochiq yuzli qizlar o‘tadi; chaqchaqlashib o‘tadi, qora sochlari yellarda yelpirab o‘tadi. Tog‘ yellari erka qizlarning kular yuzlaridan o‘pib-o‘pib ketadi.

Oynisa — o‘zi o‘sgan go‘zal tog‘larda, oshno qirg‘oqlarda ochilib yurolmasa, erka qizlardek tog‘ yangratib kulolmasa...

Armon emasmi bu?

Xo‘rlik emasmi bu?

* * *

...Tog‘ boshini oq bulutlar quchdi. Salqin yellar go‘yo qanot bog‘lab uchdi.

Qiz qalbida ham to‘lqin uyg‘onadi unga qarab turganda, qalb oshiqib-oshiqib to‘lg‘anadi...

Zavq — umid topadi qarashdan qiz. Erk, baxt jilvasi bor shu qirmizi to‘lqinda.

Tog‘larga tabassum sochgan quyoshning oltin shafaqlari suvlarda cho‘mib o‘ynaydi. Uzoq-uzoqlarda, quyosh botar yoqlarda qonli bulutlar, o‘tlar to‘lqini ko‘kni qizartib, qoraydi...

— Oy... saaa, Oysa... yuvvv.

Buvisining bo‘g‘iq tovushi qayta-qayta yangrasa ham, tirqishdan qaraydi boyoqish. Qaragisi keladi; ana u binoda shahardan kelgan erkin qizlar, erka o‘g‘lonlar borligini Oynisa biladi...

Oynisa ham shu davraga aniq keladi...

Shohimardon

SUV YOQALAB...

Sochma

Suv yoqalab kelib qolganim bu chechaklar uvasi shunchalar go‘zal, do‘stim! Bir yog‘i: bag‘ri archa o‘rmonlari-la to‘la buyuk tog‘lar, bir yog‘ida o‘lim dahshatin so‘ylab turguvchi uchurimlar, qoyalar. Yashil do‘nglar!.. Baland jardan qarab tursang, chuqurlikda daryo. Yon-berimda rayhonlar, yalpizlar, gullar... Asta-sekin kuylab, oshiqib oqqan kumush irmoq shalolacha bo‘lib daryoga quyadi, tabassumkor quyosh — yaproqlar, to‘lqinlarni quchib suyadi...

Do‘nglarda, sayhonlarda ko‘klam gullar ochmish-da, qushlar mast-alast o‘qiydilar. Yaltiroq xarsanglar qalin yashilliklar, sunbullar, yaproqlar quchog‘ida g‘arq. Oh, shu toshlarga yonboshlab tabiatning bu gunohsiz, qanotli shoirlarining yurak navolariga quloq solsang, o‘ylasang... yurakka quvvat, sevinch, mador to‘kadi, xolos bu yoz choqlarida... Cheksiz bir zavq qonlarga qo‘shilib o‘ynar kabi...

Bu...

Bu naqadar soflik, yorug‘lik!.. Na yarashiqli yashillik bu? Naqadar yuksalgan go‘zallik bu hey, tabiat!

Botib borayotgan quyoshning oltin shu’lasi raqsga tushadi. Tog‘ qushlari, qaygadir, uyur-uyur uchadi. Kechki salqin havo tanni butun o‘rab quchadi. Hamon ko‘z ola olmayman bu go‘zalliklardan...

Shohimardon

FARG‘ONA

Sochma

...Kechagi foje kunlarimni so‘ramay qo‘ya qol!

Undan burungisi esa, yana majhul, yana mash’um.

Nelarni ko‘rmadi boshim... ne balolar kelmadi meni izlab?..

Ko‘p zamonlar meni qarshi olgan yolg‘iz qayg‘u bo‘ldi; kunimga baxtsizlik to‘ldi.

Oh! O‘tmishimning qoraligi, chirkinligi, og‘irligi...

Qalb yaralarini ochmay, so‘ramay qo‘ya qol!

Bu kunni so‘rasang-chi, mendan bu kunni...

Gullab, chechak otib, go‘zalligim ortadi borgan sayin... meni quyoshli kunlar bag‘ishlagan baxt kuldiryapti, ozod ish irodasi, siynamda gul hayot quryapti...

Bu kunimdan, baxtimdan so‘ra mening!

Qirlarimda o‘ynagan o‘t omochlar, inon! — Mening ishonchim, ko‘rkimdir!.. O‘sib yotgan sururlarni ko‘r, oqib yotgan nurlarni ko‘r... g‘ururlarimni ko‘r, erk olgan qora sochlar, sanoqsiz ish onalarini, emgak qizlarini ko‘r... Ularning shu erki, ishon! — Mening o‘z erkimdir...

Dalalarim bag‘rini och, tog‘larimga qo‘l sol.

Bari, bari, bari bor menda...

Bu kunimdan so‘ra...

Kel, baxtimdan — kular hayotimdan so‘ylay...

TINGLA, HAYOT!

(Sozchi qiz)

Sochma

Tingla, hayot!
Tingla, qirg‘oqsiz dengizday cheksiz koinot...

I

Soz kuylaydi...

Talvasalarga to‘lib kuylaydi soz; toshib kuylaydi soz... So‘ngsiz bir doston boshlagan-u tugatolmaydi, sirli bir tarixning sahifasini ochgan-u tamom etolmaydi...

Titrab-titrab yig‘laganday, talvasalarga to‘lgan yarali bir yurakning talpinishlaridan so‘ylaganday...

Oh, shu chog‘da uning qoramtir yuziga boqsangiz, hasrat chiziqlarini ko‘rar edingiz. Jingalak qora sochlar ochiq yuzini va yelkasini bosgan-u g‘am chiziqlarini berkitmoqchi bo‘ladi.

Shu payt uning ko‘zlaridagi ma’noni o‘qimaslik mumkinmi?..

Tingla, qirg‘oqsiz dengizday, koinot... tingla, hayot! Ranjigan yurakning mungini, o‘tgan umrning yoniq dostonini tinglang! Kuylayapti u, baxt kutgan hayotni eslab so‘ylayapti. Baxt keltirishda, bog‘lar yaratishda yo‘qolgan minglarni o‘ylayapti. Qonlarda qolib ketgan yigitlarni sog‘inadi, chog‘i... balki uning suygani bor edi, shular orasida.

II

To‘xta, hey.

Bir daqiqa to‘xtab, tingla uning baxt qo‘shig‘ini... To‘xta, sho‘x bir doston bog‘ladi sozchi qiz...

To‘xta, hey!

To‘xta, quyosh!

Eshit, so‘ngra tong chog‘idagi she’riyatingga qo‘shib socharsan uning qo‘shig‘ini...

To‘xta, yel, tong darakchisi, to‘xta!..

Eshit, ellarga tarqatib yurarsan so‘ngra uning bu qo‘shig‘ini...

To‘xta, hayot!

Tingla... ko‘zlardagi so‘ngsiz munglar qanotsiz uchqunday... Yuraklardagi tugunni so‘nggi kuy yechganday... u, shu daqiqada, shu onda suyunchlarda quloch otyapti, soz ingramasdan, o‘ynoqi kuy sochyapti...

Chal, qiz!..

Chal! Oldingi tovushlar mung bergan edi, so‘nggisi davra aylanaga farah sochdi... Chal, yuraklarda kurash zavqi uyg‘otib!.. Chal, tomirlarda qon o‘ynatib!

Chal, baxt ellarining sozchi erkasi!

Chal, bo‘lajak yengishlar va suyunchlarning darakchisiday!..

Chal, sho‘x kuylaringni!..

Tingla, hayot! Tingla, hey, qirg‘oqsiz koinot!..

SHU QADAR MAG‘RUR, SHU QADAR BUYUK...

Sochma

Shonlar, baxtlar, saodatlar ochari qayda?

* * *

...Shu qadar kibor, shu qadar mag‘rur bu tog‘lar...

Shunday musaffo — qo‘l urilmagan go‘zalliklari borki...

Tabiatning hasham va buyukligi porlagan yuksak bir dargohi yo dahshatlar, uchurumlar va tansiq dafinalardan quyma bir borgohimikin bo‘lmasa.

Tong — shu tutash tog‘lar orqasidan otsa, quyosh shu yuksak qoyalar quchog‘iga botsa... qanday erkin, qanday o‘ktam xohish u?..

— Tabiatning qalbi, iftixori bu ko‘rkam tog‘lar, erkam!

Chiroyli, mag‘rur va osuda!

Men tabiatning vahshiy siynasi, men yillarning — o‘zgarishlarning muqaddas faxri va dafinasi, deydiganday menga qarab...

Mag‘rur insonning mag‘rur irodasi oldida ne javob aytarkin; osuda mehnatning — ishning qudratini bilsa netarkin...

Inson...

Yolg‘iz inson g‘ururlansa bo‘ladi. Hayot — faqat inson mehnatidangina kula oladi! Tabiatning iftixori gumroh tog‘lar bu shon egasini bilmaydimi, ko‘rmaganmi?

* * *

Saodatlar, sururlarning ochari kimda?

Xuddi shu qarshimdagi tog‘-toshlarga titroq solishga, xuddi shu mag‘rur qoyalardan yo‘l ochishga qodir bir kuchni maqta! Go‘zallikka go‘zallik bag‘ishlovchi, buzib-axtarib, ag‘darib saodat yaratuvchi bir qudrat bilan maqtan!..

U bo‘lsa: insondir...

Hayot, o‘raz, surur, safo ochari insonda...

Shu qadar mag‘rur, shu qadar gumroh va yuksak!..

Shu qadar osuda va mamnunday bu tog‘lar...

Yolg‘iz o‘yla-chi, erkam! — Mag‘rur mehnat irodasi qarshisida ne javob bera oladi... U qo‘zg‘alsa, nechuk shu ulug‘likda, shu to‘lalikda qoladi?..

* * *

Hayot, surur, saodatlar ochari...

— Insonda!..

XO‘RSINIQ...

Qo‘limdan har nima keladi, yurtdosh,
G‘ariblik, yupunlik — barin ko‘rganman.
Qo‘sh ham haydaganman, o‘roq o‘rganman,
Ayriliqda ko‘zdan to‘kkanman ne yosh...

G‘o‘za ham ekkanman, juvari, kunjut,
Qo‘limda raqs etur tesha-yu randa,
Yo‘l ham, qo‘nalg‘a ham mo‘l bu Vatanda,
Kamchil ham bo‘lganman, to‘q, quvnoq va but...

Chuvak ham tikkanman, mol ham boqqanman,
Quduq ham qazganman naq o‘n bir quloch,
Zilol suvlarida yuvishardi soch,
Ne-ne qiz sochiga lola taqqanman.

Taqdirimga hech ham o‘pka qilmayman,
Qo‘limdan kelmaydi degan pesha kam.
Ba’zan ko‘zlarimda tomchi-tomchi nam...
Hanuz she’r yozishni bilmayman.

NURXONNI YO‘QLAB...

Oting chiqdi, o‘zing qayoqda?

Sensiz ohang taraldi bu kech,
Sensiz nash’a yaraldi bu kech,
Oting chiqdi...
Yengil yo‘rg‘alab,
Go‘yo bog‘chalarda oralab,
Chechaklarni terib taqmading;
Mamnun tabassum-la boqmading...
Oting chiqdi...
O‘zing qayoqda?

Sahnalarda sen mavj urganda...
Qo‘ling yozib yurishlaringdan,
Qush kabi charx urishlaringdan
Og‘ir, uzun bir she’r o‘qirdim...
Zotan, o‘zing tutqun qizlarning
Dil sirini ochar eding-da,
Dardlarini sochar eding-da...
Men bu sirni ochiq ko‘rardim
Sahnalarda sen mavj urganda.

Qon-la o‘sgan qonxo‘r ko‘zida
Uyg‘ondimi o‘sha yovuz o‘ch?
Oh! —
Nechog‘liq vahshiy — yovuz kuch,
Bir chechakni uzdi va otdi!
Og‘ir alam...
Sahna erkasi
Mangu, mangu, mangu ketibdi...
Erkalashi mangu bitibdi...
Qon toshibdi qonxo‘r ko‘zida...

Ochiq sahna gullar ochganda,
Sen bo‘lmading...
Ko‘plar qalbida
Og‘ir qayg‘u yotdi shu onda...
Oting chiqdi...
Nurga botgan qiz!
Bog‘chalarda quvnab, oralab,
Chechaklarni uzib taqmayin,
Mamnun kulib, o‘ynab boqmayin.
Qayda qolding?
Qayga yo‘l solding?
Bu kun sahna she’r sochganda?!

Oting chiqdi, o‘zing qayoqda?

DARYO BO‘YLAB...

Sochma

Sochlarim bilan o‘ynashgan sho‘x shamol!

Mening na’ralarimni, jahon ichida jahonlar yaratayotganligimni jahonga so‘yla:

— Yerning mehvarida, qonlardan bayroq qadalgan o‘rnida qadoq qo‘llar saodat yaratmoqda. Jahonlarning muhabbatini, qalbini qalbiga qaratmoqda!

* * *

...Zardaryoning hovliqqan, shoshgan sho‘x to‘lqinlariga qarab o‘tirganda, sho‘x xayollarim uzoqlarga qochadi. Bir nuqtaning o‘zida moziy qon sahifasini ochadi:

— Qon!

Ona boladan, bola hushdan ayrilmish...

— Non!

Suyaklar tog‘-tog‘, aylanada yurak yoruvchi og‘ir dod, fig‘on...

— Noo-o-oo-n!..

Kimlardir mas’ud-mas’ud ishrat cholg‘usi chaladi. Kimlardir qon daryolariga qarab kuladi, zavqlarga to‘ladi... Zarafshon bo‘ylarida kezarkan, qon bo‘lib oqqan zarafshonlar esga tushadi, qonlarim qaynab toshadi.

Tag‘in urush sharpasi... o‘lim sharpasi.

Tag‘in qilichlar yarqirashi, tanklar gurillashi...

Tag‘in jonsiz burgutlar bo‘sh qalbga o‘lim yuklab, qanot qoqish oldida!..

Tag‘in qonlar daryo-daryo bo‘lib oqish oldida...

— O‘lim taronasi...

— Bu!..

— Bu — bashariyatga ne berajak?

Bu — o‘lib bitishdan, dalalarda suyak tog‘lari bo‘lib qolib ketishdan million-million mehnat eli ne baxt ko‘rajak?!

...Eslarda turgandir. Qon o‘qitgan saboqlar qalbni mangu o‘rin qilgandir...

Aldanmas!

Yillarning ongi, isyonkor asrlarning darsi makr olovida pisqib yonmas!

Sochlarimni uchirib o‘ynagan sho‘x yel, kuchli yel!

Mening na’ralarimni jahonga soch:

— Yerning mehvarida, qon bayroq qadalgan o‘rinda po‘lat qo‘llar daqiqalab saodat yo‘llarini ochmoqda...

U — temir iroda egasi: daqiqalab zafar quchmoqda...

— Olg‘a uchmoqda!..

— Uchmoqda!

Samarqand

BIR GO‘ZAL

Qo‘shiq

Deydilarkim, shahrimda bir go‘zal bormish,
Har oqshom boqqa kirib mani so‘rarmish.
Izlarimni topolmay ohlar urarmish —
Gir-gir yurarmish,
Hayron bo‘larmish.

O‘ltirib yaproqlar-la suhbat qurarmish...
Ishq uchun osmas kimsa meni, deb, dorga —
Ba’zan qo‘lin cho‘zarmish mungli dutorga,
Sog‘liqlar tilar emish olisda yorga,
Asl xushtorga,
Hajrida zorga...
Salomlar yo‘llar emish bu intizorga...

YAXSHI SHAHAR

Oynisaning xati

Bir fikrda edik ikkimiz
Va men takror etdim har safar:
— Ki dunyoda ehtimol yolg‘iz
Yaxshi shahar — biz turgan shahar.

Xizmat bitar, qaytamiz uyga,
Har qadamda shildirar suvlar.
Shu’lalar raqs etar har kuyga,
Ko‘ngilda musaffo tuyg‘ular.

Biz ataylab piyoda yurib,
Yo‘l solamiz shaharchamizga.
Eng yuqori ustunda turib,
G‘azal o‘qir radio bizga.

Olqish o‘qir yoz shu’lalari
Uchib, qo‘nib tol boshlarida,
Olqish o‘qir birakay bari
Bog‘, yaproqlar, gullar, qushlar-da.

Biz sen bilan bir fikrdamiz
Va men takror etdim har safar:
— Ki jahonda yakka va yolg‘iz
Yaxshi shahar — shu bizning shahar.

Qish tonglari... Havolar ayoz,
To‘da-to‘da ketamiz ishga.
Qorparchalar qiladi parvoz,
Yel salomlar keltirar qishga.

Shu'la chiziqlari muzlarda
Hali butun so'nmasdan turib,
Dadil odim tashlab yo'llarda,
Ish vaqtiga boramiz kirib...

Xizmat kutib qarshi oladi,
Suyunch to'la, baxt to'la hayot.
Kunlar yangi his-la keladi,
Yaxshi kunlar aylanur qat-qat.

Bir fikrda edik ikkimiz,
Bu so'z bo'ldi takror har safar:
— Shu dunyoda yagona-yolg'iz
Yaxshi shahar — biz turgan shahar.

Suydik, yaxshi ko'rdik, qo'ynida —
Quvnab yurdik. So'nggi bir kecha
Xayrlashdik bekat yonida...
Qarab qoldim uzab ketguncha.

Bulutlarday qora tutun otib,
Uchib ketdi ulkan parovoz.
Ro'molimni yellarda o'ynatib,
Qancha turdim tip-tik — tikib ko'z.

Ulug' shahar o'zi o'rnida,
Hamon shunday yaqin va aziz.
Biroq uning shovqin qo'ynida
Sayr etaman sensiz men yolg'iz.

Biz sen bilan bir fikrdamiz,
Bu so'z bo'ldi takror va takror:
— Yer ustida yakka va yolg'iz
Yaxshi shahar — biz turgan shahar.

BALKI...

Xayrlashdim muyushida ko‘chaning:
— Xayr, rahmat... Unutilmas yaxshilik!
Eshik ochdi... yorug‘ qo‘yni kechaning —
Barno qizning sochi yanglig‘ ko‘p silliq.

Xayrlashdim, o‘pdim, jaranglab kuldi,
Yulduzlar nur to‘kdi ketar yo‘limga.
Qalbim bir sevinchga parvona bo‘ldi,
Sevib qoldim.
Balki bu qiz...
Ona bo‘lur tug‘ilajak o‘g‘limga.

O‘G‘IL

Tongda kirdim chamanzorimga,
Barglar bilan o‘ynar yel mayin.
Gul bog‘ladim xasta yorimga,
Xursandligim toshar dam sayin.
— O‘g‘il qutlug‘, — deydi jiddiy chol,
G‘ururi barq urar ko‘zida.
— Qutlug‘, ota, — deyman zap xushhol,
Jindak hayo ayon yuzimda...
Bir dasta gul qo‘lda, ketaman,
O‘g‘il tug‘gan xushro‘y, qaydasan?
Yurak o‘ynar, ko‘cha o‘taman,
Oh, shu fursat qanday o‘ydasan?
Chaqaloqqa mehringni qo‘yib,
Ko‘z solasan balki har minut.
G‘urur ila boqasan to‘yib,
Dilga deysan: g‘ussani unut...
G‘uncha ochgan so‘lim navbahor,
Kutganimdan keltirdi darak.
Tovlanadi barqut bog‘-gulzor,
Qo‘shiq aytar yo‘lda sharsharak.
Gul ko‘targan qiz duch keladi:
— Tug‘ruqxona, hoy singlim, qayda?
U shodumon va sho‘x kuladi:
— Xiyobondan burilgan joyda.
Jaranglaydi kulgi ko‘chada,
Asta qo‘nar gullar bargiga.
Quvonchim mo‘l, bo‘libman dada,
O‘g‘il yaxshi ota ko‘rkiga...
Kuyla, ko‘nglim! Ana onasi,
Orom olur, qoshlari qiyo.
— Jindak kuting, — deydi doyasi, —

Bir o‘g‘ilki, ko‘zga to‘tiyo...
— Salom, suluv, salom, sumbulsoch,
Guldastani ol, emas gunoh.
Vatandoshim, o‘g‘lim, qo‘ling och,
Bir o‘payin, mehrimga guvoh...
Ulg‘ayarsan, kulgusi novvot,
Yurting tengsiz, asil gul diyor.
Har qadaming — porlagan hayot,
El baxtiyor, sen ham baxtiyor...

YOZ

Turistlar ashulasi

Yoz keldi, jo‘ralar, o‘lkamizda yoz.
Bog‘larda sayrashur qushlar xushovoz.
Dalalar yam-yashil, tepalar yashil,
Hovliqma jilg‘alar, oh, naqadar soz!
Kezgali ajib joy tog‘ etaklari:
So‘lim va soyador chinor taglari,
Yo‘limizda yotar daralar, soylar,
Qizg‘aldoq, rayhonlar, cho‘l chechaklari...

Jo‘ralar, ovloqlarga,
Yam-yashil yayloqlarga,
Tabiat go‘zalligi
Yashnab turgan yoqlarga!

Ko‘ksi xazinaga liq to‘la Chotqol,
To‘qaylarda lak-lak ari to‘plar bol.
Tunga yorug‘ berur, tuproqqa mador,
Chirchiq hikmatiga keksa dunyo lol...
Yangi jilg‘a oqar Log‘on cho‘lida,
Baliqlar o‘ynashar Qubbon ko‘lida.
Kattaqo‘rg‘onda ham Bayqolday dengiz,
Yangi daryo Vatan o‘ng-u so‘lida.

Jo‘ralar, bunday soz o‘lka qayda bor?
Qayon borma, bunda toparsan do‘st-yor.
Yoz keldi, g‘animat soz oylar keldi,
Sho‘x, yosh sayyohlarga yo‘llar intizor...
Ko‘z tutar ovloqlar, kutar yaqinlar,
Surxon sahrolari, keksa oqinlar.

O‘rmonlar, dengizlar, daryolar, qirlar,
Shamollar, shovqinlar, bulut, chaqinlar...

Jo‘ralar, ovloqlarga,
Yam-yashil yayloqlarga,
Tabiat go‘zalligi
Yashnab turgan yoqlarga!

KUZ

Kecha yorug‘, to‘lin oy yelkandek yuzar,
To‘p-to‘p yulduz pirpirar, jilva ko‘rguzar,
Yellar sho‘x, o‘ynab tinmas, barglarni uzar,
Ko‘z ilg‘aydi go‘yoki olam-olam zar...

Havo ayoz, ko‘k tiniq, yassi tog‘lardan,
Oy ostida tovlangan zarrin bog‘lardan,
Kuz qo‘ynida mudragan keng o‘tloqlardan,
Qo‘shiq yangrar paxtazor, nam tuproqlardan...

Yurtim husniga to‘ymas, yulduzlar boqar,
Kuylar baxtiyor avlod, sadolar oqar,
Zallarda, klublarda childirma qoqar,
Kuz nag‘masi dillarda zavq-u shavq yoqar.

Keladi qo‘ltiqlashib tunda ikki yor,
Bir-biridan sevimli, go‘zal, baxtiyor.
Oq tunda ajralolmas, jo‘shqin ishqi bor,
Qanday go‘zal bu Vatan, yaxshi bu diyor!

Totli bo‘sa, xilvat tun, va’da, shirinso‘z,
Oy yorug‘i ostida yonar qora ko‘z,
Yonar ilk bo‘salardan gul yonoq, oy yuz —
Naqadar shoirona, na soz kelding kuz!

Tog‘larda ol tug‘ tikar quyosh tong chog‘i,
Hali-beri qaynaydi dala quchog‘i;
Respublikam — g‘ururim, ey erkim bog‘i,
Kamolingga yetasan, baxtim charog‘i!

Shoir soz ola chiqar sho‘x soy bo‘yiga,
Kuylari taraladi fasl to‘yiga.
Jo‘r bo‘lur sho‘x naslning sho‘x-sho‘x kuyiga,
Quyosh ham ko‘z uzolmay, kular kuyiga...

OYSULUV

Bo‘z to‘rg‘ay soz g‘azal o‘qir
Yashil dala bo‘ylab.
Ona bo‘lsa alla o‘qir,
Qizi baxtin o‘ylab.

Oy shu’lasi yaproqlarda
Sapchib o‘ynar shoshqin.
Alla aytgan dudoqlarda
Ona mehri toshqin.

“Yashil ko‘ylak kiydi osmon,
Yashnar to‘p-to‘p yulduz.
Hordiq olgin, Oysuluvjon,
Xo‘p o‘ynading kunduz.

Erka qizim, tinching olgin,
Ko‘zlaringni yumgil.
Uyqu keldi — uxlay qolgin,
To‘shagingga cho‘mgil.

Bahor chog‘i g‘ozlar o‘tar,
Qanoti oq, ko‘rkam.
Qishlar o‘tar, yozlar o‘tar,
Sen o‘sarsan, erkam!

Eng chiroyli qiz bo‘lursan,
Qirq kokilli qizcham.
Chevar qiz, deb nom olursan,
Bo‘lmagaysan hech kam...”.

Bo‘z to‘rg‘ay soz g‘azal o‘qir
Yashil osmon bo‘ylab.
Ona shunday qo‘shiq to‘qir
Qizi baxtin o‘ylab.

Ammo chevar bo‘lmadi qiz,
Tikmadi u kashta.
Pardalarda qolmadi qiz,
Burro bo‘ldi yoshdan.

Go‘zal bo‘ldi, oyday bo‘ldi,
Maktabida — a’lo.
Qoshi qora, yoyday bo‘ldi,
Ko‘zlari ham shahlo.

Samolyotlar guvlab o‘tar,
Oysuluvjon birga.
— Oysuluvjon unda netar?
— Uchib tushar yerga!

Ana, chodir yoydi qanot,
Kaptar kabi oppoq.
Talpinadi jo‘shqin hayot —
Kaptardan ham sho‘xroq.

Qizginani ko‘rmas ona,
Uchib kelar qaydan?
Osmon — yuz qat boloxona,
Qizi kelar oydan.

Tegib o‘tar oq bulutga,
Ipak qanot — chodir.
Uchib ketdi qanday yurtga
Oysuluvday botir?

O‘z yurtining osmonida
Uchib o‘ynar lochin.
Quvnoq, porloq zamonida
Quvnar, yayrar lochin.

Onagina kutar tun-kun,
Oysuluvjon qayda?

Oysuluvjon uchar bukun
Osmondagi oyday.

O‘n to‘rt kunlik oyday bo‘lib
Onajonga qaytar.
O‘ynab turib, kulib-kulib,
Hikoyalar aytar.

Bo‘z to‘rg‘ay bir nag‘ma o‘qir,
Qushlar uchar kuylab.
Qiz mardona qo‘shiq to‘qir
Tiniq osmon bo‘ylab.

* * *

Samoga termilib boqdim kechasi...
Samo cheksiz, yashil dalaga o‘xshar.
To‘lin oy kechaning oppoq g‘unchasi,
Har yulduzi qirmizi lolaga o‘xshar.

Adirda yurganman navro‘z ayyomi,
Adir cheksiz, yashil dengizga o‘xshar.
Shu qadar chechak mo‘l, topilmas nomi,
Har barra qizg‘aldoq yulduzga o‘xshar.

Yam-yashil samoning ko‘rki — yulduzdir,
Yam-yashil dalaning ko‘rki — qizg‘aldoq,
To‘qayzor ko‘llarning ko‘rki — qunduzdir,
Baland tog‘lar ko‘rki — cho‘qqilari oq...

Salqin buloqlardan qonar yo‘lovchi,
Gul ochilsa, bog‘da bulbul nag‘makor.
Jayron hasratida yo‘l kechar ovchi,
Oshiqning dardini so‘ylar g‘azal, tor...

Qora kun kelganda do‘st keladi ilk,
Nomard do‘st — dushmandan battar jafodir!
Yigit ko‘rki esa mardlik, tantilik,
Aqli raso yorning ko‘rki vafodir.

YURT QO‘SHIG‘I

Qancha yiroq chopsa charchamas tulpor,
Qancha yiroq oqsa qurimas buloq.
Maysa qulf urganda mast bo‘ladi nor,
Nafsi yomon kishi bo‘lur qurg‘uloq...

Tuproq ostida ham zar — hamisha zar,
Kumushni zang bossa — kumushdir hamon.
Dengiz tublarida gavhardir — gavhar,
Chiqar tog‘ tagidan kon ham bir zamon...

Oyni etak bilan to‘sib bo‘lurmi?
Tutatqi bo‘lurmi yulduz cho‘g‘ida?
Ayting-chi, mard odam aslo o‘lurmi?
Nomi qolar yurt qo‘shig‘ida...

SENI, BOLALIGIM...

Qushlar chirqillashur, to‘p-to‘p uchishur,
Ko‘kka ko‘tarilur katta yo‘l changi.
Bog‘da yurganimda yodimga tushur
Bolalik kunlarim, umrimning tongi.

Har yaproq, har novda, norasida shox
Bahor og‘ushida rozi, bearmon.
Gullar jilvasidan tovlanadi bog‘,
Gunafsha, gulsafsar, pushti, nafarmon.

Bahor bolaligim kabi beg‘ubor,
Tabiat ijodi shunday asilki...
Shudring marjonlari taqmish sabzazor,
Suvlarga uzalmish tollarning ilki.

Kapalaklar uchar gulzor aylanib,
Atlas qanotlari ko‘zga jilvagar.
Gullar dudog‘idan so‘rishar qonib,
Javlon urib o‘tar turkum kabutar.

Savlatidan mag‘rur yakka qayrag‘och,
Daldasida o‘ynar ikki musicha.
Loy tashiydi shiftga bir juft qaldirg‘och,
Nili muborakdan kelishgan kecha.

O‘sha uyalardan aytishar qo‘shiq
Hademay chiroyli polaponlari.
Uchishar, qo‘nishar, o‘ynashar sho‘x-sho‘x
Ona qaldirg‘ochning bolajonlari.

Kuz fasli ko‘rgandim, bo‘shdi bu go‘sha,
Siynasi sabzalar mavjidan gulgun,
Yana yalpiz o‘smish, bulturgi o‘sha,
Izlab o‘z o‘rnida uchratdi bugun.

Demak, bolaligim, ketmading yiroq,
Men seni gullarning bargida ko‘rdim,

Har xil suratlarga kirasan, biroq
Men esa ko‘p kunlar axtarib yurdim.

Do‘st tutgansan quyosh sharsharasini,
Bahor sumbullari, sumbul yaprog‘i
Sening jilvangmidir? Ko‘rdim men seni
Quyosh chehrasida subhidam chog‘i.

Ona chiroyida barq urgan ziyo
Farzand yanog‘ida bo‘ladi paydo.
Seni, bolaligim, men ko‘rdim boya
Bahor diydorida ravshan — huvaydo.

Qushlar qo‘shig‘idan keldi ovozing,
Bu qo‘shiq naqadar yaqin sozimga.
Suvlarning nag‘masi u jo‘shqin sozing
Shu qadar oshino, jo‘r ovozimga.

Erta tong salqini, quyosh kulgisi,
Shafaq latofati, buloq diydori,
Onalarning mehri, padar suygisi,
Hayot malohati — jilvang diyori!

Demak, bolaligim ketmabdi yiroq,
Jilvasi shafaqda, gullar rangida.
Xil-xil suratlarda ko‘rinar, biroq
Barq uradi har bir umr tongida...

Otalik sharafi tushur yelkaga,
Ammo nari bo‘lmas na g‘urur, na baxt,
Minnatdorman aziz respublikaga,
Shiddatga, mehnatga o‘rgatmish barvaqt.

Shiddatga o‘rgatgan bolalik chog‘im,
Ko‘zim qorasida qolur umrbod.
Sochimga oq tushdi, o‘g‘lim, chirog‘im,
Ammo ko‘nglim mulki seningday obod.

LOLAZORDAN O‘TGANDA

Katta yo‘lning bo‘yida yassi tepa, toshloq bor,
Har yil bahor kelganda bo‘z siynasi lolazor...

Men bu yo‘ldan necha bor qishlog‘imga o‘tganman,
Lolazorning sayriga to‘yolmayin ketganman.
Har yil erta bahorda toshloq yerda sel oqar,
Katta yo‘lni suv bosar, go‘yo jo‘shqin Nil oqar.
Har yil bahor kelganda hatto toshga kirar jon,
Bahor chog‘i bormikan yayramagan biror jon?
Qaldirg‘ochlar keladi uchib allaqaylardan,
Chiroyli uy soladi balchiqlardan, loylardan.
Qizarib tong otganda sayrab qolar to‘rg‘aylar,
Ovoz qo‘shar bedana, ko‘lda oq chag‘alaylar...
Katta yo‘lning bo‘yida mana shunday har bahor —
Alvon-alvon jimillab, imlar yoyiq lolazor.

Esimdadir: bir kezda amakimning yonida,
Men o‘tdim lolazordan navbahorning tongida.
Lola yaproqlarida yaltiraydi injular,
Injularday jilodor shudring tomchilar bular...
Men ancha lola terdim, ko‘zni ololmas edim.
Bola ko‘nglim rag‘batin tutib qololmas edim,
Xuddi birov ataylab ekkan kabi chiroylik,
Men ko‘zim uzolmayman, amakim der: yuraylik!
Men ko‘zim uzolmayman, men suq bilan qarayman,
Ko‘ngil toshqinlaridan, bilmam, nedur so‘rayman.
Amakim xo‘rsindi-yu, ko‘z soldi lolazorga,
Pichirladi, fotiha o‘qiganday mozorga,
So‘ng dedi: bu tepada ulkan qirg‘in bo‘luvdi,
Qancha qonlar oquvdi, qancha odam o‘luvdi,
Qalmoq podshosining lashkari kelgan choqda,

Falokat bo‘ronlari dasht bo‘ylab yelgan choqda,
Elning nayzadorlari, qilichbozlari o‘ldi,
Ot o‘ynatib, yov qirgan chavandozlari o‘ldi.
Uvalar to‘lib ketdi kallalar g‘aramidan,
Bobolarni o‘tkazdi dushman qilich damidan.
Men senday go‘dak edim o‘sha qirg‘in zamonda,
Ko‘rgandim bu tepani bellashgan qizil qonda...

Amakim xotirasi yuragimdan joy oldi,
Ulg‘ayganim sari u teran esimda qoldi...
Men ba’zan ulkan yo‘ldan qishlog‘imga o‘taman,
Har o‘tganda lolazor tepa bo‘ylab ketaman.
Lolalarni teraman, ololmayman ko‘zimni,
Bolaligim tugadi, tutolmayman o‘zimni.
Xayolimga tushadi amakim xotirasi.
Deyman: har qizil yaproq o‘sha qonlar qatrasi...

OY YUZLI

Kecha oydin, ko‘z oydin!
Men so‘radim so‘z oydin,
Oy dedi: oy yuzliging
Oydinroqdir, yuz oydin.

Qo‘zim, sen erkatoysan,
Sho‘xlikda tentak soysan.
Yulduzlar orasida
To‘lin oy, to‘lin oysan.

Oydinda dengiz suluv,
Suvda oy tengsiz suluv,
Dengizdan ham, oydan ham
Oy yuzli shu qiz suluv.

Suv usti qora baxmal,
Shu’lalar naqshi zarhal,
Oy tug‘gandan yaxshiroq
Oqshom sen kelgan mahal.

Sohillarda nay chalay,
Kuyla, hamohang bo‘lay,
Xohla, do‘st tut o‘zingga,
Xohlagil, akang bo‘lay.

Bir yo‘l ko‘rdim, to‘ymadim,
Yuz yo‘l ko‘rdim, to‘ymadim.
Bir balo bo‘lsa kerak,
Ming termildim, to‘ymadim.

Bulbul der: ochil, g‘uncha!
Sayrar zor ochilguncha.

Sayrayman zor-u nolon,
Oy yuzing to‘sding buncha...

Oydinda ko‘ray seni,
Bog‘imda ko‘ray seni.
Sahnada javlon etgan
Chog‘ingda ko‘ray seni...

* * *

Ko‘zlarim yo‘li ustida,
Yor kelur, jononim kelur.
Mehri kulib diydasida,
Yor kelur, jononim kelur.
Sevganiga etmas jafo,
Va’dasiga aylab vafo,
Sayr etgali bog‘ bosafo,
Yor kelur, jononim kelur.
Shahlo ko‘zi yulduz misol,
Qirq kokili qunduz misol,
Kulsa, yuzi kunduz misol,
Yor kelur, jononim kelur.
Baxt yallasin kuylash uchun,
Dilni bog‘lab dilga butun,
Vafosiga yetib bukun,
Yor kelur, jononim kelur.

YALI-YALI

Qo‘shiq

Daryosi ko‘p dardga davo yali-yali,
Lim-lim oqar, bo‘lmas ado, yali-yali.
Hovliqishi telbanamo, yali-yali,
Boqmay o‘tar asti qiyo, yali-yali,
Shovqinidan to‘ldi havo, yali-yali.

Qirg‘og‘ida qirg‘og‘i yo‘q dasht yotar,
Telba oqim qancha teran, sho‘x o‘tar,
Tashnasiga qatra suv bersa netar?
Qatra tugul zarrasiga zor etar,
Mag‘rur o‘tar shom-u sabo, yali-yali.

Daryo jamolini ko‘rarmanmi, der.
Oshiq ekan qancha zamon tashna yer,
Qancha zamon bo‘sasini endi ber.
To‘yni qilur tanti elim narra sher,
Dasht-u dala topdi safo, yali-yali.

Dasht yuziga yurdi elim qahramon,
Qudrati zo‘r — topmag‘usi tog‘ omon:
Baxt suvini ochg‘uvsi u begumon,
Bo‘ston o‘lur, suvga qonib har tomon,
To‘lqinida mehr-u vafo, yali-yali.

Bo‘ylarida suxsur uchar, g‘oz uchar,
Qirg‘ovul, oqqushlar etib noz uchar,
Bulbul o‘qir, nag‘ma xushovoz uchar,
Qishni quvib ko‘klam uchar, yoz uchar,
Ko‘kka to‘lar savt-sado, yali-yali.

SHODIYONA

Bu yangi daryo bo‘ylab toshqin keladi,
Cho‘lga obodonchilik shoshqin keladi.
Suvga qonar, dam olar aziz ona Yer,
Gul asri, unum asri yorqin keladi.

Bu yangi daryo bo‘ylab iqbol keladi.
Lim-lim bo‘lib, chayqalib oq bol keladi.
Saharda kelinchakday uyg‘onar sahro,
Asrlik uyqusiga zavol keladi...

Bu yangi daryo bo‘ylab oqin keladi,
Jizg‘inak sahrolarga salqin keladi.
Barakatli panjalar yoyadi daryo,
Sakrashiga uzoqlar yaqin keladi.

Bu yangi daryo bo‘ylab to‘lqin keladi.
Qadimiy orzularga yakun keladi.
To‘lqinida ushalar dildagi toshlar,
Suv deganing guldurab har kun keladi.

Bu yangi daryo bo‘ylab baxt xush keladi.
Behayot maydonlarga xurush keladi,
Ko‘klam uva olib, chechaklar olib,
Farovon va baxtiyor turmush keladi.

Bu yangi daryo bo‘ylab mo‘l baxt keladi.
Uni qamrab olgali el shaxt keladi.
Zo‘r binolar quramiz kanalni bo‘ylab,
Jahonga ko‘z-ko‘z qilur soz vaqt keladi.

Bu yangi daryo bo‘ylab armon keladi,
Bahodir elimizga xo‘b shon keladi.
Cho‘llarning siynasida jannatlar bo‘lur,
Sayri jannat etgali jahon keladi.

Bu yangi daryo bo‘ylab urfon keladi.
Ma’rifat barq uradi — shodon keladi.
Asr pog‘onasini oylarda oshib,
Jahonga mard, bahodir inson keladi.

Bu yangi daryoda suv chandon keladi,
Paxta-yu meva, ipak, mo‘l don keladi,
Xalqim sevgisi bilan toshib, shodumon,
Paxtakor respublikam xandon keladi.

DAM

Salqin oqshom, chiroyli oqshom,
Yaproqlarga tushar asta nam.
Yo‘llaringga boqdim intizor,
Yilday uzun va turg‘un har dam.

Asta-asta kelding, sarvinoz,
To‘lqinlarga tushdi yurak boz.
O‘rgilayin baxtimdan o‘zim,
Damlar na xush, oh, damlar na soz!

Oqshom... Oqshom oydin, sehrgar,
Sen yonimda sehrgar dilbar.
Bir damini yilga bermayman,
Yili bir davronga barobar.

TO‘YGA ATAGANIM...

Jo‘ralar, to‘y qutlug‘ bo‘lsin,
Gullar sochay boshingizga.
Qadahlarga boda to‘lsin,
Bol tatisin oshingizga.

Birday suluv siz ikkovlon,
Paxtazorim o‘zg‘irlari.
Terimchi qiz, botir o‘g‘lon,
Gul diyorim ko‘z nurlari...

Sozchi kuylar chalib maqom,
Shoir to‘qir jonon g‘azal.
To‘y — umrda tansiq ayyom,
Sevishganlar to‘yi go‘zal.

Shirin yoshlik berdi zamon,
Qadrin har kim bilsa qani.
Ishq umrida yangi davron —
Ikki umr qo‘shilgani...

Qo‘sh kaptarday yashang inoq.
Onalar der: qo‘shaqaring.
Mard yigitga sevgi sinoq,
Erka bo‘lsa sevgan yoring.

Ishq degani — oliy tuyg‘u,
Olib uchar samolarga,
Yuz yashasin o‘tli suygu,
Dong‘i ketsin dunyolarga.

Baxt o‘qidim yuzingizda,
Qutlug‘ do‘stlar shodiyona.

Shodiyona to‘yingizda
Qutlov so‘zim shoirona:

Baxt ustiga baxtlar kelsin,
Soya solsin boshingizga.
To‘y ustiga to‘ylar bo‘lsin,
Yeting yuz bir yoshingizga...

UYG‘ON!

Uyg‘on, erkam, ko‘zing och,
Tong yoydi zarrin quloch.
Bosh ustingda aylanib,
Uchib o‘tdi qaldirg‘och.

Allaqachon botdi oy,
Tur, yotmagil, erkatoy.
Qanot yozib osmonda,
Kuy boshladi bo‘zto‘rg‘ay.

Kutadi o‘yinchog‘ing,
Kutadi qo‘zichog‘ing,
Kutadi yer tepinib
Sho‘x, o‘ynoqi toychog‘ing.

Kutadi daftarlaring,
Bo‘yoqlaring, zarlaring,
Kutar uchgisi kelib
Birtalay kaptarlaring.

Gullar intizor boqar,
Suvlar charx urib oqar,
Sening uchun tong otib,
Quyosh mash’ala yoqar.

Uyg‘on, erkam, tur, erkam,
Ko‘z sol, olam na ko‘rkam!
Sen uchun bog‘cha, bog‘lar,
Olamlar bermish o‘lkam!

Uyg‘on, qo‘zim, yuzing yuv,
Tong — o‘zingdek sof, suluv...
Shoshil, shoshil, maktabda
Kutadi seni o‘quv!

O‘YLAR

Tong chog‘i qarayman ufq tomonga,
Ko‘k yuzini tutar olov lovva-lov.
Go‘yo, qanotini yoyar jahonga
Jahonni tutgulik qirmizi yalov.
Naqadar chiroyli tovlanishlari,
Nimalarning ramzi bu ol rang xil-xil...
Uzoq ufqlarda ne hodisa bor?
Dunyodan xabar ol, olovli ko‘ngil!
Tong chog‘i ufqqa tashlayman nazar.
Dilni girdobiga olar ajib dam.
Xayol qanotlanar — olamni kezar,
Deyman: koshki, tug‘dor bo‘lolsam men ham!

Dengiz qirg‘og‘ida o‘tirganim bor,
To‘lqinlar tog‘-tog‘-u rangi ko‘k shisha.
Ba’zan xurujidan titrar qoyalar
Va qushlar bezovta uchar hamisha.
Naqadar qudratli talpinishlari,
Nelar bayon aylar bu zarblari zil,
Tog‘-tog‘ to‘lqinlarning orzusi nima,
Yuragiga qo‘l sol, to‘lqinli ko‘ngil!..
Dengiz qirg‘og‘ida o‘tirganimda
Dengiz, girdoblarga tashlab tik qadam,
Ushatsam dengizlar tilsimotini,
So‘ngsiz muhitlarning qulfin ocholsam!

Qorli cho‘qqilarda yurganman yolg‘iz,
Oh, yashil daralar naqadar sozdir!
Buloq bo‘ylarida gul, rayhon, yalpiz,
Qushlar xushovozdir, balandparvozdir!
Naqadar jilvagar qiya to‘shlari!
Bu na davlat, g‘urur, sipohlik nuqul?!
Yuzar havolarda ona burgutlar,
Kezar cho‘qqilarda ishqiboz ko‘ngil!

Qorli qoyalarda yurganda yakka,
Shoir o‘zin sezar shunchalik bardam.
Deyman: oq qoyaday bo‘lsam abadiy,
Lochin kabi mag‘rur parvoz etolsam!

Uzun tunlar bo‘yi ko‘z nurlarim band,
Tonglar otqizaman jildlar varaqlab.
Biri yulduz monand, biri oy monand,
Kelur ustozlarim chaqnab, yaraqlab.
Naqadar nuroniy-o‘ychan insonlar,
Har qaysi odamzod sevgan mard o‘g‘il...
Ham Pushkin, ham Geyne, Shota, Alisher,
Madad ol, madad ol, ey o‘ychan ko‘ngil!
Uzun tunlar bo‘yi ko‘z nurlarim band,
Deyman: er yigitga qirq hunar ham kam!
San’atkor oshig‘i soz Vatanimda
Koshki, tilga olgulik shoir bo‘lolsam!

QIZG‘ALDOQ

Yigit yoshimgacha qishloqi edim,
Quyonlarim qashqa, toychog‘im to‘riq.
Bola xayolimni olib uchardi
Yavshan taglaridan uchgan bulduriq.
Tashna qushlar kelur ayni tush payti,
Tuzoqlar qo‘yardim suv yoqasiga.
Ilinar olifta kaklik jo‘jasi,
Qil tushib chiroyli bag‘baqasiga.
Tong chog‘i turardim qushlardan burun,
Tinglay deb parranda kuyini sahar.
To‘rda, qafaslarda talpinar edi
To‘rg‘aydan tortib to qirg‘iyga qadar.
Ko‘nglimni tutolmas na ov, na o‘yin,
Nimadir izlardim, bilmayman o‘zim.
Xayolimni olar cho‘llarda quyun,
Tepalarga hayron boqardi ko‘zim.
Inson bola choqni unutarmi hech?
Tegirmon o‘ynardik suv yoqasida.
Shikoyat qilardik bo‘g‘iq hayotdan,
Ulkan g‘aramlarning jim orqasida.
Bir daf’a sargardon, yo‘l kanorida,
Yassi qir bag‘rida sen bo‘lding duchor.
Qizg‘aldoq... hech gulda bunday jilo yo‘q,
Sen uchun adashdim cho‘lda necha bor.
Sen, ey dalalarning tantiq chiroyi,
Yassi tepalarning, ey yarashig‘i,
Men o‘sha kundanoq bo‘ldim shaydoyi,
Qoldi soqqalarim, olqor oshig‘i...
Qoldi qafaslarda kaklik jo‘jalar,
Qoldi suluv qiyg‘ir, qoldi bedana.
Qoldi qashqa quyon, to‘riq g‘o‘nonim,
Yangi savdolarga berildim yana.
Mening dilkashlarim tengdosh cho‘ponlar,
Mening ovunchog‘im bo‘ldi qizg‘aldoq.

Dasta-dasta terib keltirar edim,
Ham o‘yin, ham yupanch, ham dilga aldoq.
O‘sha kundan beri ajab maftunman,
Esingdami, terib yig‘laganlarim.
Esingdami, taqdi olib qo‘limdan
Seni bolalikda sevgan dilbarim.
Men unga qo‘ygandim sening otingni,
U ham suluv edi, qirmizi chiroy.
Lola yuzligimni ko‘rolmas bo‘ldim,
Dalani tark etdi lola taqqan oy.
Mendan yiroq tushdi qizg‘aldoqday qiz,
Beishq dil umrbod bo‘taday bo‘zlar.
Esiz u latofat, u dilbar esiz,
Oq parda ostida qadalgan ko‘zlar...
Qishlog‘imdan ketdim bola chog‘imdan,
Muncha erta tushdi boshimga savdo.
Sarg‘aydim, rang o‘chdi ol yanog‘imdan,
Yosh umrim dovda...
Men bugun uchratdim yassi tepada,
Xayolimdan o‘tdi bolalik davri.
Qani jo‘ralarim, qani lola yuz,
Boshimdan uchdimi esarlik hovri?
Yosh bola singari o‘ksib yig‘ladim,
So‘ldi qizg‘aldoqlar, so‘ldi chamanlar.
Men yigit umrimga topmayman baho,
Yodimga tushganda yig‘lab ketganlar.
Chamanzordan o‘tdim, suvlari ravon,
Ko‘ngil, qishlog‘ingga muncha bog‘lisan.
Yassi qirlar ko‘rki, suluv qizg‘aldoq,
Gulzor o‘rtasida tursang haqlisan...

QIZ

Oqshom... Tun soyaday keladi jimjit,
Har dam bir umrday seziladi zil.
Oy chiqquncha bunda odam bo‘lur xit,
Yorilib ketguday to‘lg‘onadi dil.

Yaxlit bir pardaga burkanur tollar,
Tog‘larning qorasi xira va chigil.
Tush-tushdan uchishib kelar xayollar,
Oq qoya, archazor tovlanmas xil-xil.

Shunda, jimjitlikda allaqaylardan
Sen asta boshlaysan rohat mashqini.
Odamlar turadi bir-bir joylardan,
Dilda qo‘zg‘aladi hayot toshqini.

Tun singari asta bosib keladi,
Suv singari sarin jimib keladi.
Tog‘ yeliday shoshqin esib keladi,
Ko‘l mavji singari tinib keladi.

Bo‘zto‘rg‘ay singari aytar yuz navo,
Bulbul qo‘shig‘iday jaranglar tolzor.
Bo‘g‘iq ko‘ngillarga go‘yoki davo,
Jimjitlikni buzib kelar shifokor.

Naqadar mung yotar bu pardalarda,
O‘tgan umrlarning oh-u zorimi?
Qushlar chirqillamas tol panalarda,
Usta barmoqlarning ko‘ring korini...

To‘lqinlanib uchar ohista ohang,
To‘lqinlanib uchar teran tuyg‘ular.
Bir lahza to‘xtab qiz sozlaydi tarang,
Ko‘zlardan qochadi og‘ir uyqular.

San'at cho'qqisiga ko'taril, qo'zim,
Tarat sho'x qo'shiqlar, tarat sho'x bayot.
Jo'r bo'lur g'azalim, yuragim, so'zim,
Jo'r bo'lur shodumon va rangin hayot.

Shohimardon

QOYA

Tolzor kuz rangida va salqin.
Daraxtlarda yaproqlar oltin.
Tog‘dan esar yel oqin-oqin,
Tag‘in bo‘lur tin.

Tolzor kuz rangida, butoqlar —
Bari kiymish yoqut sarupo.
Ko‘zni aldar xil-xil bo‘yoqlar,
Oh, na dilrabo!

Tolzor qoldi, tog‘larga oshdim,
Tog‘ ustida qor bor bel bo‘yi,
Archazorga kirib adashdim,
Go‘yo yil bo‘yi.

Atay izlab keldim, oq qoya,
Sen naqadar mag‘rur va kibor.
Imlaganday bo‘lganding boya,
Ko‘nglingda ne bor?

Ketar choqda bir ko‘ray devdim,
Sening mag‘rur husningni ayon.
Toshloqlardan yo‘l solib keldim,
Siring et bayon.

Tilga kirdi qoya, tingladim:
“Men azaldan yaraldim mag‘rur.
Kel, tepamga osh odim-odim,
Jahon ko‘rinur.

O‘mrovimda qor xazinasi,
Mana, yon-berimda irmoqlar.

Mana muzlar, sadaf siynasi,
Mana buloqlar.

Archalar mo‘l tosh ko‘kragimda,
Mana bu yon yashil yayloqlar.
Dafina ko‘p keng yuragimda,
Qatlarim saqlar.

Kuching bo‘lsa yurakka qo‘l sol.
Qudratingga qoyil bo‘layin.
Ayamayin, mayli barin ol,
Hech ayamayin”.

“Qoya! — dedim, — hoy mag‘rur qoya!
Yuragingga albat qo‘l solg‘um!
Xazinang-ku mo‘l, benihoya,
Barini olg‘um!”

BARAKA TOMCHILARI

Oq tuman oqadi yuksak tog‘ boshidan,
Shamol quvlamoqda vodiy ustiga.
Hayratda boqaman yassi oq toshidan,
Bir zumda ko‘k kirar marmar tusiga.

Bir zumda ochilur oq yelkan sanoqsiz,
Boshimning ustida bari suzishur.
Shu qadar keng ko‘kda tinimsiz, qo‘noqsiz,
Chaqnashur, yashnashur, sukut buzishur.

Oq tiniq tomchilar xuddi dur donasi,
To‘kilur, sochilur dala betiga.
Yuksak tog‘ bo‘lmayin faqat boshpanasi,
Asta yo‘l solishar sahro ketiga.

Qatralar tushadi... Daqiqa o‘tmayin,
Yuvinib, yarqirab qolur archazor.
Oq bulut bo‘z sahro ustiga yetmayin,
Qushlarning qo‘shig‘i kelur lutfkor.

Havoga to‘ymaysan, havolar muattar,
Ko‘zlaring tushadi to‘lin oyiga.
Qaraysan: na shamol, na yog‘in, na xatar;
Oq tuman qaytadi tag‘in joyiga.

Go‘yoki sho‘x shamol bog‘larning yuzidan —
Gardini olgali bulutni quvmish.
Bulut ham chiqmayin shamolning so‘zidan
To‘qayzor, ekinzor yuzini yuvmish.

Baraka yog‘adi bu oltin tuproqqa,
Bir zumda musaffo, ko‘m-ko‘k aylana.

Jon kirmish yaproqqa, hattoki tosh-toqqa,
Yomg‘irjon, yog‘ deysan, yog‘ yomg‘ir yana.

Qorli tog‘ oq marmar silsila singari
Dilni beixtiyor husniga bog‘lar.
Ko‘zlarga ko‘rinmas na suluv, na pari,
Tushimga kiradi har kun u tog‘lar...

Shohimardon

NAVOIY

Uzun tunlar bedor va tanho,
O‘tiraman tikib ko‘zimni.
U keladi yarqiroq siymo,
Unutaman bir dam o‘zimni.

— Siz o‘shami, keling, marhabo!
— Men o‘shaman, lol bo‘lma, bo‘tam.
— Ko‘z tutganman, muhtaram bobo,
Ko‘z tutganman azizim — otam.

— Men o‘lganman, unutdingmi yo?
— O‘lmagansiz, o‘lmaysiz hali!
Siymosida barq urdi ziyo:
— Balli, sahar suhbat mahali...

Ko‘z oldimda nuroniy siymo,
U zabardast qalamkash inson.
Daftarimga qiladi imo,
G‘azalimni o‘qidim hayron.

— Balli, — dedi, — andak havas bor.
Hikmat degan g‘azalga husn,
Chidam darkor, vazminlik darkor,
Kuylagani erlar tuyg‘usin.

Umring yorug‘, Vataning ujmox,
Mendan so‘ra, men yonib o‘tdim.
Anglamadi zamona, evoh,
Besh asrkim, shu kunni kutdim,

Beshigim u qadimiy qal’a,
Balki og‘am u Bahrom sardor,

Balki onam nozanin Laylo,
Balki singlim Shirin nolakor.

Balki yurtim u zangin dara,
Balki do‘stim Farhod pahlavon.
Ammo, asring baland yuz karra,
Har poyada bir ulug‘ doston.

Iskandardan o‘tik va a’lo,
Muz tog‘ida u to‘rt qahramon.
Shirindan ham ko‘zlari shahlo
Qizlar ko‘rdim, faxri bir jahon.

Tilsimlarni ochur begumon,
Polvonlari ertakdan baland.
Quyoshlarki, qochadi tuman,
Zamonalar kutgan, jon farzand.

Ko‘kni olur Vataning azmi,
Xazinalar ochur tog‘lardan.
Afsonadan baland har bazmi,
Qo‘shiq uchar chaman bog‘lardan.

Ozod elning armoni bormi?
Men u choqda yosh to‘kdim talay,
Bugun boqib ko‘zim to‘yarmi?
Har kim ham der: shoiring bo‘lay...

Shoir ketdi... Ko‘z uzmay qoldim,
Ketdi buyuk u alamdiyda.
Cho‘chib turdim, bir nazar soldim,
“Xamsa” turar boshim tagida.

Ko‘k g‘uborsiz, yuksakda quyosh,
Laylo yanglig‘ vafodor va yosh.
Doston ila uxlab qolibman,
Tushlarda ham shoir suhbatdosh.

BOG‘IMNING CHECHAKLARI

Oh suluv chechaklar, suluv chechaklar...

Qirmizi barglardan ko‘z uzish mahol,
Qiz bola kulgusi yanglig‘ quvnoqsiz,
Qiz bola uyqusi yanglig‘ yumshoqsiz...
Erta saharlarda uyqumdan kechib,
Qo‘shiq eshitganman taglaringizda,
G‘azal to‘qiganman barglaringizda
Men o‘zim etganman sizni parvarish,
Sevgilim yuziga yuz qo‘ygan kabi —
Sizga saharlarda yuzim surtganman,
Tovlangan barglarga ko‘zim surtganman.
Oh, suluv chechaklar, suluv chechaklar...

Qizil rang — ko‘nglimda latofatli ishq,
Pushti rang — derlarki, — sharofatli ishq,
Bularni keltirdim ardoqlab sizga,
Naqadar nafis-u naqadar xushbo‘y...
Bular — bari mening peshona terim,
Bular — mening jo‘shqin ishqim va mehrim...

Lekin, afsus bari shu go‘zallikda
Sizning jamolingiz oldida loldir,
Sizning kamolingiz oldida loldir!
Siz jannat gulisiz, siz jannat guli...
Ey so‘lim chechaklar, so‘lim chechaklar!
Yorga ayon eting ko‘nglimni tugal.
Har gul alohida aylasin bayon
Inja muhabbatim, toshqin sevgimni,
Kechalari bedor sog‘inganimni...

Oh, so‘lim chechaklar, so‘lim chechaklar.

XOLTOSH

Kishi qirqdan o‘tgach kirarmish aqli...
Shunday Xoltosh ham,
Bag‘rin kuydirgandek bobolar naqli,
Bosar ba’zan g‘am.
Qaylig‘i kechalar tonggacha tinmas,
Aytadi alla.
Xoltosh ko‘ziga ham hech orom inmas,
Sirqirar kalla:
“Koni tashvish-ku bu tilsiz chaqaloq,
Ey sho‘rlik ona.
Kechalari shundoq o‘tgandir uyg‘oq,
Zor-u parvona...
Koni tashvish-ku bu: yuvsa, tarasa,
Tebratsa kun-tun,
O‘zi so‘lg‘in, charchoq — kulib qarasa
Beshikka beun...
Ey ona taqdiri, ona taqdiri,
Og‘ir nechog‘liq.
Hanuz yaralganmas ona tasviri,
Siynasi dog‘liq...
Mening hasratimda ketdi bevaqtroq,
So‘ndi sham kabi.
Qirq yoshida sochi paxta kabi oq,
Titroq, asabiy.
Odam bo‘lganimni ko‘rmay ketdi-ya,
Munglug‘, bedarmon.
Bir kun ham baxt shavqin surmay ketdi-ya,
Dilida armon...”.

Sandiqda qolibdi atog‘liq belbog‘.
Xoltosh tag‘in gang.

Yemay-ichmay balki jamg‘armish uzoq...
Attang, yuz attang!
Hayotdan o‘rnini topdi-ku hozir,
Lek onasi yo‘q.
Kech hozir, yosh to‘kib eslar birma-bir,
Eslar bo‘lib cho‘g‘:
...Mahallada tanho so‘qqabosh,
Do‘ppi yarim, beparvo, beor.
Tirik boqim, beburd, bag‘ritosh,
Bor-yo‘g‘ini o‘rtamish qimor.
Yarim tunda kelar: “Ona... Oshshsh!”
Qari ona shu kulfatda zor.
Toqati toq, nursiz ko‘zda yosh,
Hasratida qaddi yoy, bemor.
Tokay g‘alva, tokay bu bardosh
Ko‘tararmi bundoq yukni nor?
O‘g‘il dardi el-u yurtga fosh,
Har kun ta’na... o‘g‘il sababkor...
“Koshki qo‘ysa daydishni Xoltosh,
Sayoq ko‘ngli topsaydi qaror,
To‘y-tomosha qilsam... bir yuvosh
Kelin tushsa, kunday beg‘ubor...
Mana Hojar... hamsoya — tengdosh,
Hayotidan rozi, minnatdor.
Kelini bor suluv-qalamqosh,
O‘g‘li tanti, o‘g‘li beozor...
Qani, bu ham kezmasa bebosh,
O‘z yo‘liga o‘zi qazib g‘or.
Oh, loaqal bo‘lsa sartarosh,
Yigit umri o‘tmasa bekor.
Toshni talqon qilolgudek yosh,
Kasbi qimor, olam bo‘ldi tor.
Tengdoshlari bir-bir ishga bosh,
Bu hali ham qimorga xumor.
Ko‘rpa, yostiq, hatto chorak mosh
Bir-bir ketdi, kuni g‘alvador.

Bezor bo‘ldi qavm-u qarindosh,
Yig‘lab aytgan o‘git emas kor...”

Dag‘-dag‘ titrar ona, jigarxun.
Yolg‘iz farzand... yosh to‘kar takror.
Xayol tarqoq, yuzlari so‘lg‘in,
Yolg‘iz farzand... sevar chor-nochor:
“O‘tga soldi guldek chog‘ini,
Umrini ham tikar bu badkor.
Ko‘rmay o‘lsam edi dog‘ini...
Oh, dilimda ne armonlar bor!”

Xoltoshga tunov kun duch bo‘ldim noxos,
Qissasi mungli.
Ko‘chirdim qisqaroq — naq o‘ziga xos,
Bo‘shasin ko‘ngli...

Koshki men ham bo‘lsam aytguli shoir,
Bir armonim bor:
Onalarga atab yaratgum oxir —
She’rdan cho‘ng yodgor.

KO‘L BO‘YLARIDA

Chanqoq dalalarning dudoqlariga
Hayot toshqinlari limmo-lim oqar.
So‘lg‘in sahro yassi qumloqlariga
Yalpizlar, rayhonlar, chechaklar taqar.
O‘sar adirlarda yashil to‘qaylar,
Bulbullar o‘qishar gul butog‘ida.
Jannatga aylanur changalzor joylar,
Bepoyon Vatanning bu aymog‘ida.
Darrandalar kezgan bo‘sh daralarda
Ma’rashar podalar, yilqilar, qo‘ylar.
O‘tgusi guno-gun manzaralarda
Mehnat bayramlari, shodumon to‘ylar.
Baxshi dostonida kuylangan daryo —
Xalqim xayolida barq urgan soz ko‘l
Mardlar qudratida bo‘ldi muhayyo,
Qatralari gavhar, gavharlari mo‘l...
Ofarin, marhabo, Oqbilak opa!
Ofarin, tasanno, bahodir Yodgor!
Cho‘lda vafo ko‘li, ishq ko‘li barpo,
Dengiz qadar cheksiz mazmunlari bor.
Balli, azamatlar, toping baraka,
Yashaymiz, yoronlar, mangulik bu baxt.
Bizniki g‘alaba, to‘y-u ma’raka,
Yo‘q edi, bor bo‘ldi zar ko‘l, ayni vaqt!
O‘sar adirlarda yashil to‘qaylar,
Bulbullar o‘qishar gul butog‘ida.
Jannatga aylanur yavshanzor joylar
Bepoyon Vatanning bu aymog‘ida.

Kattaqo‘rg‘on

O‘LAN AVJLARIDA...

O‘lan avjlarida gul ochadi dasht,
O‘lan avjlarida zamon uyg‘onur.
O‘lan avjlarida dunyo-dunyo gasht,
O‘lan avjlarida olam to‘lg‘onur.

O‘lan avjlarida tug‘ilur suygu,
O‘lan avjlarida tug‘ilur jujuq.
O‘lansiz na rang bor, na yorug‘ tuyg‘u,
Hayot lablariga toshadi uchuq...

QUNDUZ

Sochma

Esingdami, Qunduz! Salqin yellar sochlaringni to‘lqinlatib esgan, qalbimizda suyunch o‘sgan bir kun?

Ko‘klam.

Quyosh tabassumkor, to uzoqlarda yasharib ko‘ringan qirlar jilodor, sen esang, ma’sum qiz, — nimalarnidir to‘plovding, gunohlardan pok, ishsevar do‘stim! — Esingdami, o‘rim-o‘rim sochlaring-la shafaqday yuzingni qoplovding...

* * *

Bolalik...

Yurakda qayg‘u kezsa-da, yurakni o‘ragan muhitda baxtsizlik kezsa-da, — o‘yin sevgan bolalik!

Tush payti — barcha ko‘lankaga oshiqadi, tol ostlariga oqadi. Bolalik mavj urgan sof qalbimiz buyrug‘ida biz soy bo‘ylab ketdik. Uzoqlashib, o‘ynoqlashib ketdik...

Suv bo‘yi...

Ko‘klam bezaklari to‘la sochilgan suv bo‘yi...

— Qo‘chqor, huv... Qo‘chq-oo-r!

Yoningga bordim, sening bilan ko‘klam chechaklari terdim, senga berdim va tarqoq sochlaringga chechaklar taqdim, chechaklardek ochilgan yuzingga suq bilan boqdim...

Esingdami shu?

Erta ko‘klamning shunday yoqimli kezlarida armon o‘raydi meni...

Omochlar sudragan qirlar usti, baxtsizlik kezgan dalalar siynasi kulib turgan paytlarda orzular o‘raydi meni!

Qaytsammikin?

Balki, Qunduz — ma’sum Qunduz, tag‘in, barno bo‘lgandir... Kular yuz qiz bo‘lib, to‘lgandir...

Ketsammi?

* * *

— Qunduz!

Esingdami, qirlarda uyquli omochlar tentirardi — bolalikda biz o‘ynab yurgan kunlarda…

Bu kunlarda o‘t omochlar kuylaydirgandir-a?

Sochlaring yellarda tarqalib, ko‘zlaring o‘ynaydirgandir-a?

Esingdami, to‘lqin sochgan, bola qalbimizga so‘ngsiz suyunch bag‘ishlagan bir kun…

* * *

Esingdami, Qunduz!

SAHARLARDA

Tong yeliday saharlarda
Uzoqlarga jo‘nar bo‘ldim:
Jang qizigan mahallarda
Olov kabi yonar bo‘ldim.

Tong yeliday saharlarda
Yov ustiga yurar bo‘ldim.
Yurtim uchun zo‘r janglarda
Zolimlarni qirar bo‘ldim.

Xush qol, sanam! Jonim, xush qol!
Omon bo‘lsam, qaytarman ham.
Tong chog‘ida bulbul misol
Dil rozini aytarman ham.

Tong yeliday saharlarda
Sunbul soching silarman soz,
Bir yil uchun muncha zarda,
Zafar olib kelarman boz...

Tong yeliday saharlarda
Derazangni qoqarman, yor.
Uxlar bo‘lsang — tutma parda,
To‘yib-to‘yib boqarman, yor!

PILLA

Qiz qo‘shig‘i

Yashil yaproq, xush yaproq,
Zar yaproq, kumush yaproq,
Qurtlarimga oboray —
Etagimga tush, yaproq!

Bog‘imga nihol ekdim,
Tut ekdim-u, tol ekdim,
Pillam xo‘b ipak berdi,
Yorga soyabon tikdim.

Ro‘molim shoyi katak,
Barg kesay etak-etak.
Dushman bo‘g‘zini qiysin
Qizlar yigirgan ipak.

Ipagim qizil, pushti,
Yuragimga o‘t tushdi.
Sevganim ko‘kda uchib,
Fashist bilan urishdi.

Qizlarjon, qo‘rqdi demang,
Parashyutdan g‘am yemang.
Sevganim tushgan bo‘lsa,
Yovni qilar hang-u mang.

MARD YIGIT, YORING BO‘LAY

Qiz qo‘shig‘i

Mard yigit, yoring bo‘lay,
Ham vafodoring bo‘lay.
Sen yovga qarshi otlan,
Men jilovdoring bo‘lay.

Mard yigit, yoring bo‘lay,
Ham vafodoring bo‘lay.
Sen yovga qarshi otlan,
Men madadkoring bo‘lay,

Mard yigit, yoring bo‘lay,
Ham vafodoring bo‘lay.
O‘q tegib yaralansang,
Men shifokoring bo‘lay.

Mard yigit, yoring bo‘lay,
Ham vafodoring bo‘lay.
Yovni yengmayin kelma,
Men intizoring bo‘lay.

Mard yigit, yoring bo‘lay,
Ham vafodoring bo‘lay.
Sen qo‘lsiz qolsang agar,
Men kuch, madoring bo‘lay.

Yigitsan, jangda jonsan,
Tantisan, pahlavonsan,
Vatanga botir o‘g‘lon,
Yovga o‘chsan — yomonsan.

Jangda javlon urib kel,
Yovlarni o‘ldirib kel.
Sog‘ bo‘l, mard bo‘l har qayda,
Qasos ol-u qirib kel.

SEN ONA...

Alisherga alla aytib uxlatgan
Sen — ona.
Og‘ushida Bobur kamolga yetgan
Sen — ona.
Torobiyni og‘ir jangga jo‘natgan
Sen — ona.
Olamni nurida munavvar etgan
Sen — ona.
Yig‘lasa, dunyoni raso titratgan
Sen — ona.
Kulgisi saodat parvarish etgan
Sen — ona.
Dohiylar beshigin bedor tebratgan
Sen — ona.
Mehri bahorida elni yashnatgan
Sen — ona.
Yagona o‘g‘lingni jo‘natding jangga,
Bo‘l bardam, ona!
Onaday oshiq yo‘q ona Vatanga,
Muhtaram ona...

QORA KO‘ZLI

Qora ko‘zli va gul diydor,
Bahor chog‘i meni yod et!
Xiyobonda kezar bo‘lsang,
Nahor chog‘i meni yod et!

Qora ko‘zli, so‘lim dildor,
Senga aytay sirim oshkor,
Agar kechsa kechang bedor,
Sahar chog‘i meni yod et!

Qora ko‘zli, vafoli yor,
Ajab xilvat, chamanzor bor,
Ko‘zing tushsa — etar xumor,
Xumor chog‘i meni yod et!

Qora ko‘zli va gul diydor,
Bo‘lay jangda shijoatkor,
Agar o‘lsam, so‘ray takror,
Bahor chog‘i meni yod et!

BO‘SASI QAND

Ishqing yuragimda tashlamish kamand,
U kundan oshiqman, kamandingda band,
Balolarga duchor bo‘lsam-da, harchand,
Seni unutmayman, o bo‘sasi qand!

Orzumand ko‘nglimning sho‘x dildori sen,
Sevgi saltanatin shu’lakori sen,
Yigitning ayrilmas vafodori sen,
Nechuk unutgayman, o bo‘sasi qand!

Yoshlikka muhabbat — ajab yarashiq,
Yor — yorning ko‘zida yongan qorachiq,
Yor sevgan yigitning yo‘llari ochiq,
Seni tark etmayman, o bo‘sasi qand!

Maydonga kiraman hali necha bor,
Yodimda sevgan yurt va sevgili yor,
Bor bo‘lsin yorlarki, senday vafodor,
Va’daga yetgayman, o bo‘sasi qand!

KO‘ZLARIM YO‘LINGDA

Ayb etma, dil qurg‘ur dilingga payvand,
Ko‘zlarim yo‘lingda, ey nomi baland!
Olti oy xat kutdim Barchinoy monand,
Ko‘zlarim yo‘lingda, ey nomi baland!

Yoningdan tushmasam bir qadam ayri,
Jonimga tegibdi g‘urbatning sayri,
Ho-yu havaslarning bo‘lmas hech xayri,
Ko‘zlarim yo‘lingda, ey nomi baland!

Beqaror ko‘ngilga shifokor o‘zing,
Yov uchun haq ajal — mard suvor o‘zing,
Qalbida yolqini — o‘ti bor o‘zing,
Ko‘zlarim yo‘lingda, ey nomi baland!

Qahramon bo‘lib qayt, quchoq ochay men,
Aziz boshginangdan gullar sochay men,
Ko‘ksingga bosh qo‘yay, bo‘yning quchay men,
Ko‘zlarim yo‘lingda, ey nomi baland!

BOBO

O‘g‘lidan kechqurun oldi qoraxat,
Uyqu tugal qochdi chol ko‘zlaridan.
Sarxona singuday tortdi chilimni,
Bir ko‘rgusi kelib nevarasini
Sahar chog‘i tushdi kelin yoniga.
Asta chaqaloqni qo‘liga oldi,
O‘pdi erkalatib peshonasidan.
Yozib qulochini, talpinar yengil,
Uchirma polapon yanglig‘ chaqaloq.
Bobbo-bobbo, deydi ma’sum, beparvo.
Titrar beixtiyor, tutganday to‘lg‘oq,
Oppoq soqollarga larza tushadi,
Nuroniy yuzlarda ikki qatra yosh
Sadaf donalardek yumalab ketar.
Rostlar qomatini o‘sha lahza chol,
O‘t parcha singari nevarasini
Mag‘rur va mehribon o‘padi takror.
— O‘zi-ya... yopiray, muncha o‘xshabsan!
Bolamsanki, senga tushibdi mehrim,
Bolamsanki, meni ataysan bobo.
Kunda bir ko‘rmasam uyqum qochadi,
G‘ussa to‘lib ketar bobong diliga.
O‘rgilay qulunim, sadag‘ang bo‘lay,
O‘ziga o‘xshagan tanti bo‘l, chiroq,
Dushmanga beomon, do‘stga mehribon.
Bobong seni ko‘rsa, sig‘mas teriga,
O‘lsam, zurriyotim qolar jahonda...

YOR

Qiz qo‘shig‘i

Bilsang, go‘dak chog‘imdan
Ko‘ngil berganman senga.
Gullarni ham bog‘imdan
Atay terganman senga.

Gullarim dasta-dasta,
Hamon seni kutaman.
To‘rt yil hajringda xasta,
Yo‘lingga ko‘z tutaman.

Uyqusiz kechalarda
Surating ko‘z oldimda.
Kezsam gar ko‘chalarda,
Savlating ko‘z oldimda.

Qanday seni unutay,
Ko‘nglimni bog‘lagan yor!
Barchinoy yanglig‘ kutay,
Bag‘rimni dog‘lagan yor!

Mayli, qo‘lsiz kelsang ham,
Qayt, intizoringga qayt.
Jilmayib misli ko‘klam
Intizor yoringga qayt.

BOG‘ KO‘CHA

Bog‘ ko‘chadan o‘taman bo‘stonimga,
Har kun salom bitaman jononimga,
Jonon yozar: jonginam, kel yonimga,
Qizlarjon, qaydasiz?

Bog‘ ko‘chadan o‘taman tutzor tomon.
Tutzorim orqasida gulzor tomon,
Ko‘nglim qurg‘ur uchadi dildor tomon,
Qizlarjon, qaydasiz?

Ko‘nglim qurg‘ur uchsa ham iloj bo‘lmas,
Toshqin o‘tmas yerlarda ravoch bo‘lmas,
Yigit jangga kirmasa rivoj bo‘lmas,
Qizlarjon, qaydasiz?

Bog‘ ko‘chadan o‘taman barg tergani,
Yurtimga oltin pilla mo‘l bergani.
Yori jangda, uyat qiz o‘ltirgani,
Qizlarjon, qaydasiz?

QIRG‘OQ

Janub dalalari — jimjima barqut,
Unda yemishlarning tuslari gulrang.
Tong otgan damlarda ufqlar yoqut,
Kechasi keng osmon bulut-la kulrang.

Ba’zan yulduzlarning charaqlashidan
Yerda topib bo‘lur hattoki igna.
Oy bo‘sa oladi dala to‘shidan,
Dengiz — keng olamga sayqal oyina.

Qrim go‘zallarin sochlari kabi,
Qalin zaytunzorlar tog‘, tepalarda.
Lutfiga tashnadir oshiqning labi,
Kumush shalolalar yaltirar jarda.

Dengiz tublarida cho‘milar quyosh,
Jannat manzaralar rohatdir jonga.
Yurtimga qal’aday sonsiz qiya tosh,
Yalta — gul diyorim, bermam jahonga.

Qirg‘oq, qirg‘oq! So‘lim maydonlaringdan
Xasta mador olur, dillar bahramand.
Ko‘zim ololmayman gul diydoringdan,
Tolgan yuraklarga jon bo‘lur payvand.

Qirg‘oq, oltin tuproq — saxiy mamlakat!
She’rim sanarmikan vasfingni, qaydam...
Naqadar hayotbaxsh, qanday barakat,
Shoir, erk oldi boz bu gul diyor ham.

Quvon, kuylaringni erta sahardan
Ellarga taratsin ertangi yellar.

Quvon, qo‘shiqlaring oshsin ko‘klardan,
Qo‘shiqqa qo‘shilsin erk olgan ellar.

Qirg‘oq, Vatanimning jannat bog‘isan,
Husningga oyina ufqning zari.
Qirg‘oq, Vatanimning oltin tog‘isan,
Sen — dengiz bo‘yida tengi yo‘q pari...

DENGIZ BO‘YIDA

I

Chaqmoqday tutqusiz, xayolday uchqur,
Quyosh shu’lalari suvlar ostida.
Simobday yarqirab va og‘ir to‘lqin,
Qirg‘oqlarga faqat dengizning peshi.

Jannat go‘shasimi bu so‘lim sohil,
Ko‘z uzib bo‘lmaydi oy jamolidan?
Suv bilan tuproqning qadim jangiga
Qoyalar quyma bir tabiiy haykal,
Udir asrlarning tosh kitobasi...

II

Zaytunzorkim, qushlarga oshyon,
Tabiatning qizlik chiroyi.
Qirg‘oqlarkim, toshlarga makon,
“Tosh ayiq”ning to‘xtagan joyi...
Haybatidan titraydi dengiz,
“Aypetri”da bulut barqaror.
Etagida suluv archazor,
To‘lqinlarda yuzar “Orzi qiz”.
O‘rmonlarning qoq o‘rtasidan
Bosh ko‘targan minoralar bor.
Tog‘lar qadar mag‘rur va kibor,
Qolmish Yunon dabdabasidan...
Butxonaning sur devoriga
Har o‘tkinchi bir satr bitmish.
Qancha yo‘lchi qadami yetmish
Kechmishlarning iftixoriga...

Jannatoso bog‘da jilvagar
Soz, turfa rang marmar koshona,
Koshonani aylab mayxona
Bazm qurmish bunda to sahar —
Sariq shayton, kelgindi o‘zi.
Tog‘ boshida mudhish zang urib,
Yonboshida qora xoch turib,
Qonun bo‘lmish noma’qul so‘zi...
Gul qizlarning ilk oqshomlari
So‘lmish, so‘lmish sovuq og‘ushda.
Uyqudan mast turib dol tushda
Tashlanmish boz may, bazm sari.
“Hay darig‘” deb ko‘rgan kuniga —
Suluv Qrim, begunoh Qrim,
Qrim qizlarikim bejirim,
Kul bo‘larmish kuyib zulmiga...
Qon yig‘lamish tog‘da oq bulut,
Qon yig‘lamish tosh bo‘lgan ayiq,
Qon yig‘lamish go‘dak emmay sut,
Qon yig‘lamish ko‘kalam yoyiq.
Qon yig‘lamish buyuk shoir ham,
El deb bag‘ri kuyuk shoir ham,
Yotolmayin go‘rda bechora,
Bu dunyoda kezmish ovora.
Sariq vabo dilni tig‘lamish,
Shunday, Pushkin ruhi yig‘lamish.
U demadi ammo: “Hay darig‘!”
U tutgandi xanjar — qinsiz tig‘.
Tig‘ki, zolim qo‘rqar — qaltirar,
Jon so‘ragan yanglig‘ Azroil.
Tig‘ki, qasos talab — yaltirar,
Xun to‘laydi yalmog‘iz — tosh dil...

Zulmlardan dilshikast shoir,
Ammo eli zabardast shoir,
Quyosh g‘amgin botar choqlarda,

Ko‘lka misol shu qirg‘oqlarda
Tentirarmish tanho va g‘arib,
Tinmayin soz chalarmish lekin.
Tong otganda Mashriq oqarib,
Chayqalarmish dengiz ham sekin...
Qrim, Qrim! Ezgu qadamjo,
Shoir sevgan sehrgar sohil.
Tokay toptar iflos oyoqlar,
Qanday chidar erksevar ko‘ngil!
Qrim! Qrim! Jannat diyorim,
Fig‘oningdan otmagin tutun...
Yig‘lama, ey Pushkin sevgan yurt,
Keldi tugal ozod bo‘lar kun!

Tong yuzidan pardani oldi,
Suv yuziga oltin xol soldi,
O‘rkach-o‘rkach oq bulutlarning
Qizillikka botdi ranglari.
Jo‘r bo‘lishib sayrashur qushlar,
Jaranglaydi xush ohanglari.
Jaranglaydi qizlar kulgusi,
Butun Qrim soz qo‘shiq aytar.
Jarang berar dengizning usti,
Qoyalarga urilib qaytar.
Erkin diyor, jannatoso yurt,
Diydoringga husn oq bulut.
Har go‘shada shifo chashmasi,
Ko‘k dengizning simob jilvasi
Ko‘nglimizni tortar o‘ziga,
Sayrgohday dilbar va sirli.
Quloq soldim shoir so‘ziga,
Jilvalaring ajab sehrli!..

Aziz diyor, jafokash diyor,
Ham alamnok, ham dilkash diyor!
Sen yig‘lading, dilingda armon,

Erk! — deding sen, chekding ko‘p fig‘on,
Sen uchun deb to‘kdik biz ham qon,
Sen ozodsan, ozod va omon.
Senga tugal behad koshona,
Salom, shoir sevgan soz qirg‘oq.
Jannat bo‘lur boz bu vayrona,
Qattol kunlar mangulik yiroq...

Xuddi shunday g‘arib, mungli choq,
Oqshom suvga sep yoyganida,
Ufq rangi sarg‘ayganida,
Suv ustiga termulib uzoq —
Xayollarda horigan boshin
Salqin yelga qarshi tutgandir,
La’nat o‘qib qora kuniga,
Zaytunzordan asta o‘tgandir,
Yuragida to‘la g‘azab-kin,
Hujrasiga tanho qaytgandir,
Bu ellarda ovora Pushkin
Dengiz uchun she’r aytgandir.
Aziz diyor, so‘lim koshona,
Salom, shoir sevgan soz qirg‘oq,
Jannat bo‘lar boz bu vayrona,
Qattol kunlar mangulik yiroq...

AMU QIRG‘OQLARI

Oq yolli asov tulpor,
Bebosh va tentak oqin,
Qumloq sahro erkasi
Va daryolar serkasi.
Beshik-beshik to‘lqinlar
To‘lg‘anib yon soylarda,
Jiydalik to‘qaylarda,
Qaqroq sahro labiga
Ham bog‘lar asabiga
Darmon eltar, jon eltar;
Biyobon tomirida
Ko‘pirguvchi qon eltar.
Ezgu daryo, sho‘x daryo,
Toshqinlaring shiddatkor.
Jahon-jahon qudrat bor;
Xuddi sahro arsloni
Va qumlar pahlavoni,
Arillaysan tunlarda.
Qirg‘oqlaring qaltirar,
Olislar bo‘lur larzon,
Nili muboraksimon
Loyqalanib toshasan,
Tepalardan oshasan,
Qishloqlarni ko‘masan,
Shunday zavqqa cho‘masan.
Bahodirlar ot surmish
Tabarruk, ey qirg‘oqlar,
Temur Malik izlarin
Saqlamish ko‘k yayloqlar.
Gullarning atirlari
Yellarning qanotida,

Ogahiy satrlari
Uchar hayot otida...
Ey, bosh egmas cho‘ng daryo,
G‘ururingni sindirib,
Bosqiningni tindirib,
Ham sening qoq belingga
Bir ulkan sad mindirib
Va boshlab asriy bir dov,
Solg‘umiz senga jilov!

Xorazm

ERKATOY

Buvim allasi

Erkatoyim qayda ekan?
Asqar-asqar tog‘da ekan.
Asqar tog‘da netar ekan?
Qo‘zi boqib ketar ekan.
Qo‘zilari qayda ekan?
Adirda, to‘qayda ekan.
Qo‘nar joyi — ko‘kbuloq,
Qashqir, bo‘ri ko‘p yiroq.

Erkatoyim qayda ekan?
Yashil-yashil bog‘da ekan.
Yashil bog‘da netar ekan?
Olma ko‘chat ekar ekan.
Olmalari qayda ekan?
Kelasi kuz oyda ekan.
Pishar ekan qirmizi...
Tushar ekan qirmizi...

Erkatoyim qayda ekan?
Ulkan shahar yoqda ekan.
Shaharda u netar ekan?
Har kun maktab ketar ekan.
Maktabida netar ekan?
Olimlikka o‘qir ekan.
O‘rtoqlaridan o‘tik,
Hamma bilimda yetuk.

Erkatoyim qayda ekan?
U chegara yoqda ekan.
Chegarada netar ekan?
O‘z burchini o‘tar ekan.
Yov qutursa, netar ekan?
Hech ayamay otar ekan.
Asl bahodir o‘zi,
Peshonada yulduzi...

YORIM BOR-U YORIM BOR

Yorim bor-u yorim bor,
Ko‘zlari xumorim bor.
Xumor ko‘zli o‘ynasin,
Chamanim, gulzorim bor.

Yorim bor-u yorim bor,
Olma-yu anorim bor.
Olamga dong‘i ketgan
Paxtam — paxtazorim bor.

Yorim bor-u yorim bor,
Oq oltin shiorim bor.
Sohibkor o‘zbek derlar,
Baxti barqarorim bor.

Bog‘larim — gul bog‘larim,
Bog‘ bo‘lgan qumloqlarim.
Vatanimga armug‘on
Oq oltindan tog‘larim.

Yurtim, o‘zim o‘rgilay,
Ko‘rar ko‘zim, o‘rgilay.
Oydek to‘l-u kunday kul,
Sen — qunduzim, o‘rgilay!

BERDIMAT AMAKI

Tong chog‘idan tog‘lar ostiga tushar
Ko‘mir qazuvchilar — yer o‘g‘illari.
Tong chog‘idan tinmay xarsang urishar,
Tosh chaqib, tosh bo‘lmish qadoq qo‘llari.
Tog‘ ostida tog‘lar paydo bo‘ladi
Yaxlit ko‘mir xarsanglaridan.
Elektrovozlar tez-tez to‘ladi,
Misli karvon chiqar g‘orlar qa’ridan...
Tepada yang‘irar, kuylar to‘p-to‘p qiz,
Yer ostida peshona teri.
Yer ostida ish ildam, tig‘iz,
Yer ostida erlarning eri!

Berdimat amaki qaziydi ko‘mir
O‘sib-ungan ona tuproqdan,
Xayol qilgan edi bir umr,
Xayol qilgan edi go‘daklik choqdan:
“Qani, kuch bo‘lsa-yu, tog‘ni tilkalasang,
Behuda yotmasa ne-ne xazina.
Ko‘mir yotar bunda xarsang-u xarsang,
Zamonlarki, saqlar bu saxiy siyna”.
Ter to‘kib qazigan oltin ko‘miri
Mamlakatga olov ham mador.
U yurtga tanig‘liq mardlarning biri,
Tanti, o‘ktam, barzangi, devkor:
“Asl tuproq, aziz tizma tog‘larim,

Siynangni och, siynang to‘la zar.
Senda o‘tgan mening go‘dak chog‘larim,
Murodimga yetdim, sol nazar!
Bo‘z siynangga boshimni qo‘yib,
Quvvat olay, ey ona diyor!
Jamolingga yuz qatla to‘yib,
Quchoqlayin xud suyukli yor!”

JALA

Qo‘qqis jala quyib o‘tdi qishloqdan,
To‘lqin urgay yashil ko‘kat dengizi,
To‘lqin urgay chechaklar oq, qirmizi,
Bu darakchi sut, qaymoqdan, pishloqdan...

Qo‘qqis jala quyib o‘tdi qishloqdan,
Chuchmoma-yu rovoch yesak arziydi,
Qo‘ziqorin, lola tersak arziydi,
Tepalardan, soydan, hatto toshloqdan...

SOY BO‘YI — YALANG QUMLOQ

Soy bo‘yi — yalang qumloq,
Soy bo‘yiga yur, o‘rtoq,
Qumdan saroylar qurib,
Soylarni cho‘lga burib,
Bo‘zda yarataylik bog‘,
Bobom ko‘ngli bo‘lur chog‘...
Soy bo‘yi — yalang qumloq,
Soy bo‘yiga yur, o‘rtoq,
Charchaguncha yugurib,
Hamma ishga ulgurib,
To‘lqinlarda yuzaylik,
Baliqlardan o‘zaylik,
O‘ssak-unsak quvnoq, sog‘,
Bobom ko‘ngli bo‘lur chog‘...

GILOS

Gilos ko‘chatini ekkin, der bobom,
Hovli chekkasida ana joy ham bor,
Gilos soyasida olasan orom,
Mehnating sira ham ketmaydi bekor.

Xuddi o‘zing kabi o‘sar ko‘chating,
Ikki-uch yil o‘tmay aniq ko‘rgaysan:
Bekorga bo‘lmabdi jindak mehnating,
Mevasin yegaysan, zavqin surgaysan.

Gilos ko‘chatini ekdim bu ko‘klam,
Ariq olib, tagin bo‘shatdim, bobo.
Yaxshi o‘gitlaring yoqadi biram,
Yaxshi orzungni ham ushatdim, bobo!

QAYRAG‘OCH

Suv bo‘yida sadaqayrag‘och,
Yuz kishilik mo‘l soyasi bor.
Eniga ham yetmas to‘rt quloch,
Bir g‘alati hikoyasi bor:

Emish burun, yuz yil burunroq
Shu qishloqdan o‘tmish chol darvesh
Yolg‘iz ekan, soch-soqoli oq,
Na o‘g‘li bor, na qiz, na yor, xesh.

Suv bo‘yida dam olibdi chol,
Keyin yerni kovlab, tayog‘in —
O‘sha joyga tiqibdi darhol...
Eslay olmas hech kim u yog‘in.

O‘sha tayoq, ko‘klam ekan-da,
Asta-asta yozibdi kurtak.
Tag‘in har yil ko‘klam kelganda
Bo‘y cho‘zibdi, dema bu ertak.

Bo‘y cho‘zibdi, yil o‘tgan sayin
Ulg‘ayibdi, kuchga to‘libdi.
Soyasi mo‘l, salqini mayin,
Shundog‘am dov, polvon bo‘libdi.

Egolmaydi hozir bo‘ronlar,
Bo‘ronlarga o‘zin qilar pesh.
Bunda orom olarkan jonlar,
Eslanadi o‘sha chol darvesh.

LARZA

...Yomg‘ir yog‘sa, tuproqning qat-qati bo‘shab,
Quyma qoyalar ham shishaday ushab,
Yel uvlab,
Tog‘ qulab,
Yerning qatlariga larza tushadi...

Zambarak o‘qining zarbi beo‘lchov,
Lova o‘chog‘iday ochar ming quduq.
Bir zumda ko‘tarar ne alg‘ov-dalg‘ov.
Tabiatning tili bir zumda duduq,
Azim tepalarga larza tushadi...

Bulutlar quyulsa, chaqsa chaqmoqlar,
Suron solsa agar zo‘r qaldiroqlar,
Yashin tegsa agar —
Yuz yillik chinorga larza tushadi...

Agar sen, sevgilim, jindak ma’yuslansang,
Oydek yuzlaringda ko‘rsam jindak g‘am,
Ko‘zlaringni bossa jindek mung izi —
Mening yuragimga larza tushadi...

QALDIRG‘OCH

Nili muborakning sayroq elchisi,
Ne yo‘llardan chang bor qanotlaringda:
Sho‘r daryodan nam,
Erksevar ohang bor bayotlaringda,
Ne-ne diyorlarning bahor atri ham,
Ellar yo‘lchisi...

Shipda uyang butun, qo‘l cho‘zdirmadim,
Qo‘nalg‘angga qo‘n-u, o‘qi “Val-fajri...”.
Hatto bir g‘ishtni ham sal buzdirmadim,
Zig‘irdek qalbingda bir yilning hajri.

Suvlarga to‘sh urib, o‘yna, qanot yoz,
Sendan qolishmasin qo‘shalog‘ing ham.
Qo‘shaloq umrning ma’nosi na soz,
Tag‘in bola ochgin va bo‘lma hech kam!

Kuzda ketib, tag‘in ko‘klam chog‘ida —
Kelarsan, azizim,
Yo‘llar, tinch yo‘llarning tinchrog‘i, hozir,
Bulbulga jo‘r bo‘lib baxtim bog‘ida
Kuylarsan, azizim,
Bu el tinch ellarning tinchrog‘i hozir!
Nili muborakning sayroq elchisi,
Tag‘in gurkiragay yurtim yozlari,
Yangragay sho‘x yozning yangroq sozlari,
Yo‘lda qut o‘chirmas o‘q ovozlari...
Kelaver har ko‘klam,
Qanotlik hamdam —
Ellar yo‘lchisi!

BULUT

Yozda yaylovimizdan
Ahyon bir o‘tar bulut,
Ahvol so‘ramay bizdan,
Olislab ketar bulut.
Ko‘katlar talpinganday,
Ko‘chatlar talpinganday,
Qarab qolar ketidan.
Qo‘y-qo‘zilar ma’rashib,
Go‘yo tomchi talashib,
Chopishar qir chetidan.
Men ham ko‘kka ko‘z tashlab,
Baralla gurung boshlab:
— Chaqmog‘ingni chaq, — deyman.
— Bu olis yaylog‘imga,
Bu olis aymog‘imga
Sel-sel bo‘lib oq, — deyman.

KIPRIKLARIM

Yosh qalamkashlarga ataganim

Kipriklarim qo‘ng‘irmikan yo qora?
Kipriklarim yuztamikin yoki ming?
Kipriklarim muncha aziz va sara,
Ko‘zginamning kipriklari...
Quyunlarda qolganimda, changga o‘ralganimda,
Ohangaron to‘zonidan zanji qoralganimda,
Yoki yaxshi timsol izlab, changday taralganimda,
Yoki bir she’r armonida yuz bir ko‘ralganimda,
O‘zbekiston tonglarini bedor kutgan ko‘zlarim,
Tengsiz tonglar falsafasin tashna yutgan
ko‘zlarim.
Ko‘zlarimga chegarada shay askarday qo‘riqchi,
Ko‘zlarimga olis Bobur g‘ussasiday yo‘riqchi,
Ey aziz kipriklarim.
Sergaklikda tiriklarning siz-ku eng tiriklari...
Kiprigimday azizlarim, nechog‘liq ham suyuksiz.
Armonimday buyuksiz!

JO‘JA

Ergashtirib bir to‘p jo‘ja,
Qo‘shnimizning qo‘rasidan
Chiqib kelar ona tovuq,
Juda badjahl, juda o‘jar.
Tutay desam sarasidan,
Yo‘l bermaydi sira yovuq.
Buvim der: yondosha ko‘rma,
Bir jo‘ja ham oldirmaydi.
Haddingdan sen osha ko‘rma,
Hech qarovsiz qoldirmaydi.
Men qarayman olisroqdan:
Bir-biridan suluv jo‘ja,
Biri xuddi oppoq ro‘ja,
O‘zgasi naq yuz quroqdan.
Biri ola, biri sarg‘ish...
Bu yonidan o‘tgim kelur,
Bittasini tutgim kelur,
U yonidan o‘tgim kelur,
Uttasini tutgim kelur.
Lekin o‘tib ketaman jim,
Ranjimasin, axir buvim,
Kimga darkor axir qarg‘ish...

ONAGINAM

Tovonimga chaqir tikanakday botguvchi — g‘ashlik,
Bedavo sizloviqday sizlatguvchi — g‘ashlik.
Jigarimni qiymalab ahyon-ahyon,
Chuchvaraga chekkuvchi — g‘ashlik.
Meni o‘ylab notavon va nimjon,
G‘ashimga tekkuvchi — g‘ashlik.
Suyaklarimni sirqiratib,
och tevatday g‘ajiguchi,
Ko‘zimga yosh tirqiratib,
jig‘ildonimda achchiq bo‘zaday achiguvchi g‘ashlik...
Dunyoga qayta kelishimga ko‘zim yetsaydi,
Yigit yoshim to‘lmay turib,
Ayriliq zaylida qoq yog‘ochday qurib
Jon bergan onamni ko‘rishimga
ko‘zim yetsaydi,
Tizzasiga bir nafas bosh qo‘yishimga
ko‘zim yetsaydi,
Onalik mehriga o‘bdan to‘yishimga
ko‘zim yetsaydi,
Oq sutingni oqlay, deyishimga
ko‘zim yetsaydi,
Menda g‘ashlik netardi?
Yantoq o‘tinidek,
Tamaki tutunidek,
Tong paytida taralgan badbaxtlik tunidek —
Cheksiz fazolarga tarqab ketardi!
Onaginam!
Odam bo‘ldimmi menam?
Yigit yoshimgacha bir chelak suv keltirib
bermagan bo‘lsam,
Yo tashnaligingda bir kosa sharbat to‘ldirib

bermagan bo‘lsam,
Yo non yopishing uchun,
Hatto biryo‘la, bir kun
Sahrodan o‘tin orqalab kelmagan bolangman...
Og‘zingdan so‘z chiqmay, yelmagan bolangman..
Sening arzimas bir yumushingni ado etolmaganim,
Sening bir ishorangga yuz o‘mbaloq oshib ketolmaganim!
Seni jindak xushvaqt qilgani,
Seni jindak xushbaxt qilgani —
Tagsiz jarlardan o‘tolmaganim,
Seni so‘nggi yo‘lga o‘zim uzatolmaganim —
Tog‘day zil.
Abadiyatday cheksiz armon bo‘lib qoldi dilimda,
onaginam!
Odam bo‘ldimmi menam?
Ha, odam sanashar meni elimda.
Senga qilolmagan xizmatim,
Sen deb chekolmagan zahmatim —
Jindak zehnim, jindak she’rim, jindak g‘azalxonligim
Onalik mehriga to‘ymagan mehrim,
jindak yaxshilik va yomonligim
Meni odam sanagan elimga baxshida,
jafodiyda onaginam!
Elga xizmatim — senga xizmatim emasmi axir,
El meni farzandim demasmi axir!
Rozi bo‘l, odam sanalay menam...
Dunyoga qaytib kelurman,
Lekin boshqa o‘g‘il bo‘lib...

QAYDADIR BULOQ...

Qaydadir buloq bor tog‘lar boshida —
Kumush baliqlarning so‘lim o‘lkasi,
Toshlarga urilib tushmoqda oq suv,
To‘lqinlari tiniq va porloq inju.
— Qaylarga shoshasan pokiza oqim?
— Ulkan dengizga, —
Ulkan dengizdagi chiroyli qizga...
Salqin og‘ushimda yoyib qulochin,
U mening mavjimda yuvadi sochin,
Tashna lablariga bo‘laman darmon,
U menga muntazir, menga nigoron.
— Ha, senga muntazir faqat u emas,
Cheksiz dengiz emas, cheksiz suv emas,
O‘sha qiz singari tashna irmoq ham,
O‘sha dengiz yanglig‘ cheksiz tuproq ham,
Senga muntazir-u, senga nigoron...

MAXTUMQULI TO‘YIDA O‘ZBEK KO‘ZASI

Hay’atda yarqirab, ko‘z qamashtirar
Chinni kosalar-u bir chinni ko‘za.
Qaraganing sayin es adashtirar,
Har qaysi go‘yoki yaxlit firuza.
Naqshlari chinnisoz diliday yorqin...
O‘zbek to‘yonasi kattakon to‘yga.
Yal-yal yonar edi firuza yolqin,
Men ham lol qarardim, cho‘mgandim o‘yga:
O‘zbek tuprog‘idan yasalmish chinni,
Nechog‘lik nafosat zarrin xatida,
Istasang bol to‘ldir, istasang — shinni,
Nechog‘lik fusun bor el san’atida!
Nechog‘lik daho bor, nechog‘lik ma’no,
Nechog‘lik jilo bor sehr qudratida,
Shundoq bir ko‘zani, qaydam, Bobur shoh
Ko‘rolganmi cheksiz saltanatida!

Bunda ne ellardan o‘tirar qo‘noq:
Bunda yetti iqlim yo‘lchilari bor,
Hind-u, Chin-u Major, Bolqon-u Qozoq,
Turk, Slav ham Mo‘g‘ul, Tatar-u Bolqor...
Ko‘zadan ko‘z uzmas edi keng zal ham.
Go‘yo Maxtumquli tug‘ilgan kunda —
Dunyo adiblari bo‘lgan edi jam,
Turkmanlar to‘yida, shunday to‘kinda;
San’at saroyida, oq koshonada,
Fuzuliy, Xayyomning sho‘x davrasida,
Yuz Hotamdan saxiy shu to‘yxonada —
Nizomiy, Pushkinning cho‘g‘ davrasida
Davronga yarashiq shodiyonada,

Go‘yo she’r sharobin eliksir misol
Zumrad kosalarga lim-lim to‘ldirib,
Barchani etib lol,
Qardoshi to‘yiga zavq, fayz keltirib,
Ulashardi jami qo‘noqlarga jom —
Navoiy bobom...

Ashxobod

* * *

Yuragimni sevgi chertgan ilk oqshom
Ilk satrim tushgandir qog‘oz betiga.
Keksalik ham sekin to‘ldirmoqda jom,
Xayol uchar cheksiz olam chetiga.

Mayli, shu jomni ham ichay paymona,
Keksalik gashtini suray to bekam.
She’rlarimda jilva qilsin zamona,
Yurtim madhi bo‘lsin so‘nggi satrim ham...

OQSOQOL

Bir oqsoqol ko‘rdim — bo‘yi chinordek,
Egnida banoras, ko‘kragi ochiq,
Qora chaqmoq kabi yal-yal qorachiq,
Bilaklarda yo‘lbars quvvati bordek.

Ko‘chalardan o‘tar sekin, salmoqdor,
Har odimi yerga titroq solguday,
Yerning tanobini tortib olguday,
Oshkor bir savlat, botirlik oshkor.

Yo‘llardan o‘tadi — billur sharshara,
Jarlar, yonbag‘irlar, dovonlar tanish.
Mevazorlar tanish, qo‘rg‘onlar tanish,
O‘n olti o‘g‘il-qiz, qirq bir nevara.

Yo‘llardan o‘tadi — go‘yo boboyga
Ona tabiatning o‘zi ta’zimkor,
Odamlarday go‘yo salomga tayyor,
Boboyni ko‘rganda to‘lar chiroyga.

Belida to‘rt belbog‘, qo‘lida aso,
Shu joylarning to‘ng‘ich hukmronidek,
O‘tmishi, buguni, pok vijdonidek
Aqli luqmonlardan to‘liq va raso.

Qora terga botib ekarkan g‘o‘za,
Egnidagi to‘ni edi yuz yamoq.
Buloq bo‘ylarida qaqrarkan tomoq...
Baxt u payt tuproqqa ko‘milgan ko‘za.

Qora terga botib yaratarkan bog‘,
Lekin mevasini tatiy olmasdan,

Nolasi ucharkan olis Olmosdan,
Soqol oqarguncha dil bo‘lmabdi chog‘...

Yo‘llardan o‘tadi — tog‘ yanglig‘ o‘mrov,
Hali ne yuklarni ko‘tarolgudek,
Hali ne tog‘larga panja solgudek,
Hali ham yurtida misoli kam dov.

Mehnatkash insonga xos ko‘rk va savlat,
Tabiatday barhaq, barhayot, ezgu.
Ha, piyri badavlat deganlari shu,
Yuz bir shohdan ortiq piyri badavlat.

Olmos qishlog‘i

BALIQLIK BO‘YIDA

Tabiat bu joyda nechog‘lik jo‘mard,
Hovuz taglarida qaynar chashmalar.
Chashmalar shildiri so‘ylaydi nalar?
— Bir ho‘plam ich, — deydi, —
ko‘rmagaysan dard!

Tabiat bu joyda nechog‘lik suluv,
Inson tabiatning o‘g‘li bu joyda.
Ming buloq jo‘sh urar jarda-yu soyda;
— Bir qultum ichgin, — deb, — jildiraydi suv.

Kim bilur yetti qat yerning qa’ridan —
Ne tilsim — dafina totini yuvib,
Billurin mavjlari mavjlarni quvib,
Yorug‘likka chiqar tog‘lar bag‘ridan.

Billurin mavjlari qanday shifokor,
Qondiradi odam chanqoqligini,
Qondirgudek olam chanqoqligini,
Bu mavjlarda sir bor, mo‘jizalar bor.

Tabiat bu joyda nechog‘lik jo‘mard,
Inson — tabiatning o‘g‘li bu joyda,
Bog‘-u rog‘, ekinzor, jarlarda, soyda,
Mehnatkash yurtdoshim, ko‘rmagaysan dard!

Olmos qishlog‘i

BALIQ OVI

Bizning qishloq tog‘ bag‘rida,
Tog‘ bag‘rida — bog‘ bag‘rida,
Etagida chopqillar soy.
Yozda tiniq,
Kuzda tiniq,
Suvda quyosh yuz bir siniq,
Ko‘klam chog‘i soy butun loy.
Qirg‘og‘ida jambil, yalpiz,
Quchog‘ida balig‘i mo‘l.
O‘ltiraman ba’zan yolg‘iz,
Suvga tushmay usti-bosh ho‘l:
Qarmog‘imga ilinmaydi,
Suzmoqdami yo chopmoqda,
Suv tagidan ne topmoqda?
Yuz tikilsang bilinmaydi...

Tashlay qolsam non ushog‘in,
Yugurishib kelar talay,
Ulgurishib kelar talay.
Ilinsaydi ulkanrog‘i,
Eltar edim jon buvimga.
— Hay, rostanmi, hay, baliqmi,
Tangalikmi, chaqalikmi?

Balli, derdi, uquvimga...
Ilinmaydi lekin hozir.
Bundan keyin to‘r tashlayman,
Tashlasam ham zo‘r tashlayman,
Qo‘lga tushar bari oxir.

TO‘RG‘AY

Yoz boshi, dalalar soz,
O‘z ko‘rkini yoymish yoz,
Chechaklarda hali noz,
Ko‘llar to‘la suqsur, g‘oz,
Oq bulutlar cho‘g‘lanib,
Tong otar yallig‘lanib,
Ko‘l osmoni bug‘lanib,
Ko‘rinar go‘yo sayoz.
Shu vaqt allaqaylardan,
Qaydam, qanday joylardan,
Dashtdanmi yo soylardan
Yangrab ketar sho‘x ovoz,
Hech o‘xshashi yo‘q ovoz.
Tut bargi kesganlardan,
Suvga chim bosganlardan
Un chiqmas, tinglashar jim.
Kim u o‘zi, qani, kim?
Qushlar ham qilmas parvoz.
Jonvorlar ham tinglardi.
Bog‘bon ham, paxtakor ham,
Sholikor, chorvador ham,
Butun odam tinglardi,
Go‘yo olam tinglardi,
Qandoq tinmagur ovoz!..
Men chopib cho‘lga chiqdim,
Hech kim ko‘rinmas edi.
Kattakon yo‘lga chiqdim,
Hech kim ko‘rinmas edi.
Keyin boqdim osmonga:
Kuy taratib jahonga,
Ko‘k osmon cho‘qqisida,

Moviy rang ko‘zgusida,
Bir nuqtada pirillab,
Bir nuqtada chirillab,
Nuqtaday bir qush uchar,
Go‘yoki behush uchar...
— Hoy, — dedim, — o‘zing kimsan,
Bunchalar betinimsan,
Javroqisan bunchalar,
O‘ynoqisan bunchalar,
Tinmay tushib o‘yinga,
Lol etasan kuyingga?
— Men-ku, men to‘rg‘ay, — dedi. —
Ko‘k yuzi soz joy, — dedi,
Dema, chala ko‘rinar,
Butun dala ko‘rinar.
Ko‘k yuzida chirillab,
Yuz bir qo‘shiq to‘qisam,
Bir nuqtada pirillab,
Keng vodiyga o‘qisam —
Yomonmi, hoy, sho‘x o‘g‘lon?
Hayotni maqtaganim,
Tongni ardoqlaganim —
Yomonmi, hoy, sho‘x o‘g‘lon?
— Ha, tongni ardoqlagin,
Hayotni ham maqtagin,
Uchib-o‘ynayver, — dedim. —
Kuylab quvnayver, — dedim.

OLTIN QO‘NG‘IZ

G‘uv-g‘uv uchib oltin qo‘ng‘iz,
Qora tunda xuddi yulduz,
Yo bulutli kunda chaqmoq,
Gulzorimga qo‘nar erkin.
Men kelaman sekin-sekin,
Tikilaman unga uzoq.
Chaqnasa ham xuddi yulduz,
O‘zi juda epsiz qo‘ng‘iz,
Kapalakday charx urolmas,
Yumalasa hech turolmas,
Ukam ko‘rsa — tutib olar,
Qutisiga darrov solar.
Yo‘q, ukamga tutqizmayman,
Qo‘ng‘iz tomon o‘tkazmayman,
Suqlanolmas bo‘yog‘iga,
Ip bog‘lag‘ay oyog‘iga.
Mayli, har kun uchib kelsin,
Gulzorimga tushib kelsin,
Oltin qo‘ng‘iz, oltin qo‘ng‘iz,
Chaqmoq kabi yorqin qo‘ng‘iz.

QIMIZ

Olatov etagida kezardim oqshom yolg‘iz,
Sarvzor soyalari. Jilg‘a-yu, soylar ravon,
Oq o‘tov orqasida o‘choq yoqar suluv qiz...
Go‘yoki tush paytida oshgan yanglig‘ qo‘sh dovon.

Hech nari o‘tolmasdan, asta-asta yondoshdim,
Yo‘lchilikning rasmi-da: ayron, dedim, ozgina!
Tortinchoq, asov ekan — go‘yo esdan adashdim,
O‘zi qorachagina, o‘zi dilnavozgina...

Ayron degandim, ammo keltirdi korson qimiz,
Korson to‘la qimizni ichdim, qaydam qancha vaqt.
Shoshmayin shimirardim, olisdan jilmayar qiz,
Shoshmayin shimirardim, jilmayishi qanday baxt...

Shoshmayin shimirardim, men-ku tashna emasdim,
Qandaydir tashnaligim qonganday edi lekin.
Jilmayib tag‘in korson tutsa ham yo‘q demasdim,
Uni ham ichar edim shoshmayin, sekin-sekin.

Sekin-sekin... va lekin tap-tayyor bo‘ldim, sarxush,
Ahyon-ahyon jilmayar, jilmayardi hamon qiz.
Ko‘zlarimda bu olam go‘yo ertak va yo tush,
Ha, shundoq ajib qimiz:

Olis yaylovlar hidi, nomsiz chechaklar hidi,
Ona sutiday toza, ma’jundan sirliroq kuch.
Go‘yo yuz bir jannatning kavsar ta’mi anqiydi,
O‘sha qizmi, ko‘rinar ko‘zimga birakay uch...

— Uch opa-singilmisiz, — dedim, — birday suluvsiz...
Olatov cho‘qqisidan qaytdi sho‘x qahqahasi.

Kaklikday kulardi qiz.
Kulardi qiyiq ko‘zlar, topilmas andaqasi.

Gap o‘sha qizda emas, gap anavi qimizda,
O‘n sakkiz yasharimda ilk bor o‘pganday mastman.
Gap o‘sha qimizdami, yo‘q, o‘sha suluv qizda,
Nainki mast, dev kabi norg‘ulman, zabardastman.

Axir, qulluq, dedim-u tushdim kelgan so‘qmoqqa,
Hech nari ketolmasdim, qaraymikan qayrilib?
Kelib turing, — dermikin, — kelib turing qo‘noqqa...
Kelib turing, — demadi. Ketdim nochor ayrilib.

Oh, Olatov qimizi! Oh, Olatov qimizi!
Ne dardlar davosisan, ha, ne dardlar davosi,
Oh, sen Olatov qizi! Oh, sen Olatov qizi!
Sen qutlug‘ armonimsan, ko‘nglim ko‘rking shaydosi!

KONCHI CHIROG‘I

Menga tortiq qildingiz
konchining chirog‘ini,
Qulluq, ey konchi og‘a,
unutmayman bir umr.
Bu chiroq yorug‘ida
qazib olasiz ko‘mir.
Yelpiratib o‘lkada
botirlik bayrog‘ini.
Yaratasiz hayotning
qora oltin tog‘ini.

Siz chiroq yorug‘ida
yer tagiga tushasiz,
Qora gavhar uyasiz,
ertakdagi dev misol.
Siz Vatan davlatiga
ne-ne davlat qo‘shasiz,
Bobolar tushida ham
qilmagan edi xayol.
Devkorsiz, azmingizga
bu bobo cho‘llar ham lol.

Bebaho tortiq uchun
yuz bor qulluq aytsam oz,
Chirog‘ingiz hamisha
yoritgay ketar yo‘lim,
Bir qo‘limda jarang soz,
So‘nggi nafasimgacha
chiroq tutgay bir qo‘lim,
So‘nggi nafasimgacha
yop-yorug‘ o‘ng-u so‘lim. —

Ham sizday tinim bilmay
ijod teranlaridan,
Ona yer qatlaridan,
tog‘ oshib, dovon o‘tib,
She’riyat olmoslarin
izlagum qurum yutib,
Bitta-bitta ajratib
olgum timsol baridan,
(Maqtanish tuyulmasin
aytganim ilgaridan.)

Va o‘sha gavharlarni
sizga qilgayman sovg‘a,
Ko‘zlarga quvonch bo‘lsin,
dilingizga yorug‘lik,
Qora gavhar oshiqi —
konchi do‘st, konchi og‘a,
Yana olqish va qulluq,
Yana olqish va qulluq!

QARQARALIK

Qarqaralik, qaydan kelding qoshimga,
Qaydagi savdoni solding boshimga.
Qaydagi savdoni solsang boshimga,
Qota ko‘rma qatron mening oshimga!

Qosh ustiga qo‘ndiribsan qarqara,
Qora soching qora tunda sharshara,
To‘lqinida koshki o‘zim cho‘milsam...
Shaydoyingman, gar qarama, gar qara!

Qarqaralik, izlab keldim, yo‘l olis.
Olis yo‘lda cho‘l olis-u ko‘l olis.
Bir qaragin, ko‘zginangdan bilayin:
Dermikinsan yaqin yoki bo‘l olis!

Qarqaralik, soylaringni kechgum bor,
Suvlaringni sharob kabi ichgum bor.
Olislardan keldim-u gap o‘zingda,
Mayli desang, Qarqarangga ko‘chgum bor.

Qarqaraning o‘rdagi-yey, g‘ozi-yey,
Yozlari-yu, kuzlarining sozi-yey.
Yo “ha”si bor, yo “yo‘g‘i” bor, ne bilay,
O‘rtavordi qarqaralik nozi-yey.

KELGIN

Tonglarning jilosiday
Pirpirab alvon kelgin,
Bo‘zto‘rg‘ay navosiday
Kuylab bearmon kelgin,
Bog‘larning shovvasiday
Sharqirab ravon kelgin,
Sochlaring tarab-o‘rib,
Va’daga jonon kelgin.

Oy kechaning qo‘yniga
Noz ila kirganida,
Osmon ko‘k ko‘ylagiga
Injular terganida,
Turg‘un suvlar epkinga
Bo‘salar berganida,
Hey, lablari qirmizi,
Kelgin, shu zamon kelgin.

Archazor tog‘ orasi,
To‘shaylik ko‘k yalpizdan,
Dardim-o‘tinchim o‘lan
Bu kecha sendek qizdan,
Yaylov oqshomi bo‘lur
Minnatdor ikkimizdan,
Har kelishing bir ertak,
Jonginam, omon kelgin.

KUZ

O‘lka bo‘ylab kezar so‘lim, qaynoq kuz,
Quyoshning o‘ziday yorqin, porloq kuz.
Bir yillik mehnatning jo‘shqin fasli bu,
Mevalari oltin, paxtasi oq kuz.

Qish bo‘yi yer sho‘rin qirq yo‘la yuvib,
Yerning qat-qatiga, zovurga quvib,
Bevaqt yomg‘irlarda, sellarda uvib,
Yong‘oqday kesakni ko‘sakday chuvib;
Dalalar bag‘rida yelding yel kabi,
Tuproqqa mehring bor o‘sha sel kabi,
Zahmatkash paxtakor, boboyi dehqon,
Manglaydan ter to‘kding butun el kabi.
Sel kelsa simirib, toshni yemirib,
Jarlarni to‘ldirib, do‘ngni kemirib,
Yetukliging shuncha: tuproq-bo‘rdoqi,
Tilsiz olqish o‘qir bo‘rsib, semirib.
Bu yil tabiat ham turlandi yuz xil,
Qish — quruq, bevaqt do‘l ko‘p o‘tdi bu yil.
To‘rt qayta tikding-a, haydab to‘rt qayta,
Mardsan, bardoshing bor tog‘lar qadar zil.
Zumraddek paxtazor, osmon firuza,
Har tupi tagida bir oltin ko‘za.
Sada salqinlari imlab turganda,
Tomoqlaring qaqrab, sug‘ording g‘o‘za.
Tog‘chi tog‘ tagidan gavhar undirur,
Binokor cho‘llarga shahar qo‘ndirur.
Terak bo‘yi jardan dashtga suv olib,
Paxtakor azamat yo‘qdan yo‘ndirur.
Konchi hurmatiday elda hurmating,
Rassom san’atiday nozik san’ating.

Rassomda bo‘yoq bor, senda qadoq qo‘l,
Qudratga qut qo‘shar qutlug‘ mehnating.
Xirmonlar uyumi — cho‘qqilarday oq,
Ustidan ko‘rinar falak — yetti toq.
Ko‘kka ko‘prik qurgan xalqmiz-da, axir.
Oq tog‘lardan osmon yana yaqinroq.
Xirmonlar uyumi — ko‘zlar quvonchi...
Ochil, ha, g‘o‘zalar, parpirab yon-chi!
Ochil, oppoq tonglar alangasiday,
Ochil, hayron bo‘lsin ko‘kda somonchi!
Yulduzlarday bir-bir terishga shay yurt,
Misqoli tushsa ham olib ko‘zga surt.
Qatradan ko‘l bo‘lur, debdi bobolar,
Pastda qolsin Oloy, Chotqol-u, Qozg‘urt.

O‘lka bo‘ylab kezar so‘lim, qaynoq kuz,
Quyoshning o‘ziday yorqin, porloq kuz.
Bir yillik mehnatning jo‘shqin fasli bu,
Mevalari oltin, paxtasi oq kuz...

QISH EDI

Qo'shiq

Qish edi, gul kamyob, o'sha kechqurun
Ilk bor keltirdim men qittak ko'k shisha.
Esda qolgulik tun, esga olgulik tun...
— Atirdek anqigin, — dedim, — hamisha!
Navro'zi olam-da... — Dalalar ko'm-ko'k...
Chechaklar imlashar ovloq-ovloqqa.
Ko'nglim, qish g'uborin, dedim, ayamay to'k,
Birdan atir hidi urdi dimoqqa...
Yalpizdan, jambildan va bo'tako'zdan,
Yuz xil gul — chechakdan anqisa atir,
Sadqa bo'lay shundoq sehrgar navro'zdan,
Bahorgi ertakdan anqisa atir.
Erta ko'klam haqi, o'shani yod et,
Xayolingdan o'tsin jajji ko'k shisha,
O'sha tun, o'sha qish bo'sani yod et,
Keyin atir yanglig' anqi hamisha...

SOCH OQLIGI — KO‘NGIL OQLIGI

Sezarding-ku axir vasling ko‘yida
Yurar yo‘llaringda poylardim seni,
Yo xiyobon, yo ko‘l, yo soy bo‘yida...
Yolg‘iz, yolg‘iz, yolg‘iz saylardim seni!
Goh va’da berarding: “Kelurman birrov”.
O‘sha majnunona, g‘arib har oqshom,
Ne soch, ich-ichimga tushardi qirov...
Oqib ketdi suvlar, o‘tdi ko‘p ayyom,
Sochim ham soqolim oqardi sekin.
Insof qil: “Sababchi o‘zim” degil-da.
Bir gal dil ocholmay o‘tdim men lekin,
O‘rtangan dil uchun bir gal egil-da.
Soch oqligi — emish — ko‘ngil oqligi...
Jumboq kabi tag‘in so‘rashing nechun?
Ey oltin yoshligim beboshvoqligi,
Ey sen, g‘oyib kun!

PARDALIK

Seni izlab keldim... Sog‘inganman-da.
Esingdami bahor, beg‘ubor kunduz,
O‘ylamagan joyda bo‘ldik yuzma-yuz,
(Men-ku, odamzodga oshiq, jo‘n banda...).
Shu qadim shahringda qing‘ir ko‘chadan
Kelarding beparvo, yuzing pardalik...
Shahring — salomimga berganday alik,
Qo‘shiqlar yangrardi... Shunda daf’atan
Qadimdan tegajoq, shaydoyi shamol
Pardangni ko‘tarib, qochdi yiroqqa.
Qamashdi ko‘zlarim... O‘xshab chaqmoqqa
Bir yarqirab o‘tdi to‘lin oyjamol.
Bir nafas ko‘zingga tushdi ko‘zginam,
Hayhot, u ko‘zlarda hayrat, qora cho‘g‘,
Yo‘q, u ko‘zlar cho‘g‘i nogahoniy o‘q...
Bir zum turib qoldim behushday men ham.
Sendaqasin sira ko‘rmagan edim
Na qadim Samarqand, na Turkistonda,
Na bedor o‘qigan yuzlab dostonda.
Ko‘zlarim so‘rardi hayron: kimsan, kim?
Sen to‘xtovsiz o‘tding go‘yoki sho‘x soy,
Senga shaydo edi yo‘ldoshlaring ham,
Seni o‘z qo‘yniga oldi o‘sha dam
Tor ko‘cha go‘yoki tog‘da qapchig‘oy.
Bir nafas kuzatdim izingdan lol, jim,
O‘z-o‘zimga derdim: nahot bu ohu
Hali ham tuzoqda? Chidarlikmi bu?
Aytingiz, bu kim?
Na bilaguzuklar, gavhar baldoqlar,
Na atlas ko‘ylakning qichiq burmasi,
Yulduz ko‘zlaringning tug‘ma surmasi,

Na taqinchoqlar,
Na xipcha beldagi bu baxmal nimchang,
Na shohi ro‘mol —
Pari chiroyingga bo‘la olur xol,
Pari chiroyingga qo‘ndirolmas chang...
Yo‘q, bu bezaksiz ham tengsizsan, tengsiz.
Ha, sen bezaksiz ham shundoq suluvsan,
Sen bahorgi tushsan, buloqda suvsan,
Bundaqa chiroyga arzir cho‘ksang tiz...
Sen o‘zing odamzod ko‘rki-bezagi,
Faqat, netay, hanuz ko‘rking pardalik,
Salom berar bo‘lsam olmasding alik,
Ey, oltin vodiyning jannat chechagi!
Hatto quyoshga ham sevgi solguday
Jamoling, esizki, bulutda hanuz,
Xayoling, esizki, bulutda hanuz —
Yuz shoir xayolin bandga olguday...
Men hanuz ko‘yingda sargardon ovchi.
Sen asov jayronday g‘oyib bo‘lding-u,
Hamon so‘roqlayman: qaydasan, suluv!
O‘ylama: bu odam yuborgay sovchi,
Yo‘q, hayotdan haqing ol, demoqchiydim.
Yorqin shu yillarning so‘lim bog‘ida,
Yorqin erta kunning tongi chog‘ida
Sen ham erka bir soz chal, demoqchiydim.
Seni izlab keldim... Sog‘inganman-da!

USTOZGA ATAGANIM

Oybekka

She'r — hikmat daryosi, sehr daryosi,
Jumboqday bittalab yecholsam deyman.
Ilm-u ishq daryosi, mehr daryosi,
Qonib-qonib men ham icholsam deyman.

Qo'yning bir xazina — bebaho durdan,
Tozaliging o'tar toza billurdan,
Yaralibsan go'yo bir daryo nurdan,
Nuringni nur bo'lib qucholsam deyman.

Hayratda qarayman, dil toshib-to'lib,
Sendan suv ichganlar qolmaydi so'lib,
Men ham shu daryoda bir to'lqin bo'lib,
Cho'llardan sel kabi kecholsam deyman.

Jonlarning ozig'i — so'zning yotig'i,
So'zim bo'lsa elning qo'shiq yo tig'i,
Ko'nglimni titratmas aslo yot yig'i,
Doim xushvaqt davron qucholsam deyman.

Ko'klamda quyilar ne-ne irmoq, sel.
To'qaylarda kezar yelpib-yelpib yel,
Bahra olar, qonar ham tuproq, ham el,
Sohillarda men ham soz chalsam deyman.

To'lqinida yuz bir quyosh jilosi,
Har qatrasi ne-ne dardning davosi,
Bo'ylarida o'sar mehrigiyosi,
Mavjiga to'sh urib, ucholsam deyman.

Jayhunmisan, qaydam, yo teran Sayhun?
Har qalay toshqinsan, jo'shqinsan, jo'shqin,
Ona tuprog'imga zarursan har kun,
Men ham qonib-qonib icholsam deyman.

TARSAKI

Voqeiy

Tirik yetim... Qanday og‘ir tirik yetimlik!
Balki bundoq o‘ksimasdi onasi bo‘lsa,
Suyanchig‘i, soyaboni, panasi bo‘lsa,
Shu sababdan bosar ba’zan toshday zil jimlik.
Xarsang toshday jimlik bosar, lekin bu — o‘tmish...

Qani hozir onajoni tirilib kelsa,
Bo‘yginangdan o‘rgilay, deb kerilib kelsa,
Yigitchaning yuragida qolmas edi qish.
Qish g‘ubori qolmasdi, ha, chunki Bo‘tajon —
Hozir ona kerilgudek yosh mashinasoz,
Ne zangori arg‘umoqlar yasaydi shovvoz,
“Bo‘tajon!” deb ardoqlashar, emas “So‘tajon...”
Hech kim uni So‘ta demas... Deb ko‘rsinlar-chi!
Lekin ba’zan otasiga duch kelar o‘g‘il,
Yuz aytganda ota ekan — kuyar, bo‘lar kul,
Yuragini bir esdalik muzlatar garchi.
Yuragini muz bosganday bo‘ldi bugun ham,
Duch keldi-yu, o‘ta ketdi qiyo boqmayin,
O‘zga yo‘ldan yursa netar o‘rtab-yoqmayin,
Ota-bola ekanlarin bilgan emas kam.
Ha, bilganlar oz emas-di, lekin ne iloj?
Duch kelganda o‘tar-ketar devona misol,
Ko‘z tashlamas ota hatto o‘tsa bemajol,
Ko‘z tashlamas ota hatto kiydirsa ham toj,
Kiydirsa ham, iydirsa ham... ajabo bu gal
Bo‘ta yig‘lar, eridimi yurakdagi muz?
Ota yig‘lar, ne qilsinki, o‘zi qora yuz:
O‘lganda ham, — o‘ylar ota, — kuymasmi sal-pal?
Kuymasmikin? Ziyrak edi o‘zi, so‘lqildoq,

Go‘daklikda arimasdi yuzdan kulgusi,
Kelar edi qorovul ham shofyor bo‘lgusi,
Yuvosh edi, burro edi, sho‘x edi, quvnoq...
Quvnoq edi, sho‘x edi, ha... Hozir-chi, jimjit.
Ko‘zlariga qaragani haddim yo‘q hozir,
Ko‘zlaridan qadalganday dilga o‘q hozir,
Ota! — desa, buncha kutib, bo‘lmas edi xit.
Iti bo‘lib, eshigini poylab yotardim,
Yomonlikni sira-sira ko‘rmasdim ravo,
Sirqov bo‘lsa yelib-yo‘rtib topardim davo,
Kerak bo‘lsa, o‘zimni ham o‘tga otardim.
Hovlisini supurardim munosib ko‘rsa,
Chopqillardim yosh boladay imosiga ham,
Istamasdim g‘ubor qo‘nsin siymosiga ham,
Qayta toshib, ko‘pirardim holimni so‘rsa!
Esiz, esiz... bolajondan ayrildim tirik,
Qayda qoldi nevaralar ko‘rmoq orzusi,
Qayda qoldi davri-davron surmoq orzusi?
O‘zim rasvo, o‘zim pastman, vijdon bo‘sh, chirik...

Bo‘ta bo‘lsa o‘zni tashlar kelib to‘shakka,
Gangib, changib yuzi tuban yotadi uzoq,
Tipirchilar naq bo‘g‘ziga tushganday tuzoq,
Harorati qirqdan oshiq, lovullar chakka...
Tag‘in eslar, yuz gal balki, xira tortmas es:
Ota — badmast, uyda — suron, biqsir tamaki,
Oh, insofsiz... O‘sha tepki, so‘nggi tarsaki,
Onasiga o‘shqirgandi: manjalaqi, pes!

O‘shqirgandi, ona-bola ketishgandi, ha,
Ko‘p o‘tmayin jon bag‘ishlab ona armonda,
Bo‘ta go‘yo yolg‘iz qoldi butun jahonda,
O‘lganda ham kelmaylik deb bitishgandi, ha...
Keyin, keyin... Dalda bo‘ldi munglug‘ xolasi,
Keyin, ota bo‘shagan yo‘q yangi qayliqdan,
Ahyon kelsa, o‘gay ona tinmas: “Chiq! Chiq!”dan,

O‘ksiz go‘dak, noinsofning sho‘rlik bolasi.
Yetimxona, undan keyin hunar maktabi,
Undan keyin ulug‘ dargoh — mashinasozlik,
Nag‘z hunar-da, egni-boshi qishlig-u yozlik,
Dastgohiday berch va chayir yigit asabi.
Aqchasi bor, uyi ham bor, xola ham tekin,
Yuragida gohi-gohi mehr ham toshar,
Otasini izlaguday ba’zida shoshar,
Ilg‘asa bas — hovri tushar va lekin sekin
Barini ham unutardi, bari o‘tgan gap,
Lekin o‘sha bedod oqshom, o‘shqiriq hanuz,
Ona yegan qoq tarsaki dilni qilar muz, —
Eslasa bas, o‘sha nafas tag‘in bo‘lar chap.

Tarsakining alami-yu, bedarmon yig‘i —
O‘lganda ham ketarmikan, qaydam, achchig‘i...

BOQISHI

Qo‘shiq

Ko‘nglimga cho‘g‘ soldi, cho‘g‘ soldi, netay,
Javdirab-javdirab jayron boqishi.
Xanjarsiz jon oldi, jon oldi, netay,
O‘sha nozikado, jonon boqishi.

Xayolim ohangdosh ishq havosiga,
Ko‘zim to‘ymadi yor tamannosiga,
Kimga boray bundoq dard davosiga,
Ko‘z o‘ngimdan ketmas pinhon boqishi.

Do‘stlar, tik aytishga shasht-u tilim yo‘q.
Sevgi kitobidan menda bilim yo‘q,
Dilda armonim shu — o‘zga dilim yo‘q,
Bilmadim, rostmi yo yolg‘on boqishi.

O‘ylasam — ortganday har kun kamolim,
Koshki seza qolsa sohibjamolim,
Desa: aytavergin, ey tili lolim,
Dilimda qo‘ymasdi armon boqishi...

BARNO

Qo‘shiq

Tong pallasi kel bog‘imga,
Chechaklardan uzgin, Barno,
Baxtday to‘lib quchog‘imga,
Sochlaringga tizgin, Barno.

Kuylashaylik to‘lib-to‘lib,
Ketma, bog‘im qolar so‘lib,
Sahar chog‘i suqsur bo‘lib,
Sarhovuzda yuzgin, Barno.

O‘qiy husning kitobini,
Topay sevgim javobini,
Tingla ko‘nglim rubobini,
Ko‘ngling bilan sezgin, Barno.

Yorqinroqsan ra’nolardan,
Va’dasi bema’nolardan,
Vafosi yo‘q barnolardan
Vafo bilan o‘zgin, Barno!

SEN BARGIDA...

Sen bargida bo‘lsang men shoxidaydim,
O‘ylamaki, uzlat borgohidaydim,
Yo Mashrab, yo Xayyom panohidaydim...
Yo‘q, men haqiqatning dargohidaydim,
Sen bargida bo‘lsang, men shoxidaydim.

Ha, men shoxidaydim, agar silkinsam,
Bargday uzilishing aniq edi, ha,
Xazoningga ko‘nglim qoniq edi, ha.
Hattoki shox bilan qo‘shala sinsam...
Bargday uzilarding agar silkinsam.

Bargida yuraver, g‘ingshib gohida,
Mayli, maymun yanglig‘ taqlidga yopish,
Iblis bilan topish, yel bilan chopish...
Men shoxida qolay, o‘sha shoxida...

Qolay haqiqatning o‘z dargohida!

OLXO‘RI

Naq nikoh oqshomida
Yasangan suluv yanglig‘,
Oq shoyi ko‘ylakdayding,
Ko‘rgandim bahor chog‘i,
Kumush tabassumlaring
Ko‘nglingga ko‘zgu yanglig‘,
Mast etardi oftobning
Ehtirosli quchog‘i.

Yoz bo‘yi yigit bog‘bon
Yuz o‘rgilib bo‘yingdan,
Butab, tarab, ardoqlab,
Hech suvsatib qo‘ymadi.
Yoz bo‘yi dimog‘i chog‘
Sening atir bo‘yingdan,
To‘lishgan jamolingga
Yuz qarasa to‘ymadi.

Oltin kuz ham kelibdi,
Shoxlaring shig‘il yemish,
Quyoshda yarqirashar
Yirik yoqut donalar.
Bog‘bon yigit mehnati
Qanday serhikmat emish.
Savat-savat terishar
Kelinlar-u onalar.

To‘ylarning tansiq ko‘rki,
Chiroyli kuz mevasi,
Shirinlikda go‘yoki
Bo‘y qizlarning dudog‘i,
Dudoqdek ardoqlamoq
Oshiq bog‘bon shevasi,
Faxr etsa arzigulik
Bu kentning cheksiz bog‘i.

Sirdaryo

DORILFUNUN XIYOBONIDA

Senda kezarkanman, tushadi yodga
O‘smirlik yillarim va dorilfunun —
Tob berolmay yorug‘ bir girdibodga,
Chekinardi u vaqt jaholat, junun...
Xiyobon! Yuz yillik chinorlaringki,
Bobolardan yodgor, salqin, soyalik.
Yashil gumbazlar-u minorlaringki,
Har qaysi sarguzasht va hikoyalik.
Otashin o‘smirlik guvohi bo‘lar!
Sirdosh bir chinor ham bor orangizda.
Eh-he, oqib ketdi ne oqin suvlar,
Bugun mana tag‘in men davrangizda...
Yosh kelinlar yanglig‘ o‘ralibsiz-ku
Bugun saxiy qishning oq ipagiga,
Ne chog‘li bo‘ydorsiz, sersavlat, suluv!..
Keldim asta tanish chinor tagiga,
Boshim egib turdim, qor yog‘ar edi,
Ikkov pichirlashdik, so‘rashdik sog‘liq,
“Eh-ha, sen ham qorday oqsan-ku!” dedi.
Boshlandi betovush hazil, vaqtchog‘liq.
“Sen-chi, o‘shamisan? Sen — hamon o‘sha,
Qor qo‘ynida tag‘in qirchillabsan zap.
Hamon o‘sha so‘lim va xoli go‘sha...”
— So‘yla, nima gap?
“Esingdami, u vaqt kelardim har kech.
Ba’zan kelar edim hatto ertalab.
Kimni kutganimni bilarmiding hech,
Sochlarim oqarar edi bittalab”.
— Nega?
“Ko‘rganding-ku, o‘sha ilk sevgim,
O‘sha ilk sevganim kelmayin qolsa,
Ne soch, o‘zligim ham oqarardi jim,
Ne qilay, ishq shundoq savdolar solsa...
U vaqt to‘rt yoningda pastqam ko‘chalar,

Osmondan yog‘ardi kecha-kunduz chang.
Qora ko‘lkalarda mudrab kechalar,
Yorug‘lik so‘qmoqqa tushardi arang.
U vaqt ariqlardan oqardi bezgak,
U vaqt qatralarda yashardi rishta,
Jonga vahm solardi qadimiy ertak...”.
— Bugun bari o‘zga, bari sarishta!
“Aka uka bilan pichoqlashardi
U vaqt Registonning xoli chetida.
Zulmat va jaholat quchoqlashardi
Siyob ketida...
Ola choponlaring qani, ajabo?
Qani sur tumanday kezgan xayolot?
Qayda ne jonlarga chang solgan vabo,
Qani u hayot?
To‘rt yoningda baland va oq koshona,
Ko‘rkingda barq urar yorug‘ bir olam,
Savlatingda ayon qutlug‘ zamona,
Sohibi davroning — mehnatkash odam!
Ey aziz xiyobon, mening yoshligim
Senda qolgan edi, rostmi, yodga ol.
She’r-u hikmat bilan ilk sirdoshligim
Senda qolgan edi...”.
Shu zum bitta chol,
Chinorday chol kelib qoldi yonimga,
Ha, o‘sha gulchi-ku, bog‘bon, donishmand.
Yuragim tor kelib hayajonimga,
Dedim: “Salom bo‘lsin, aziz Samarqand!
Senda qolgan edi mening yoshligim,
O‘zimga qaytib ber, Samarqand bobo!
Senda qolgan edi qalam qoshligim.
O‘zimga qaytib ber, donishmand bobo!”
Shu kez dorilfunun eshiklaridan
Xiyobonga to‘ldi yoshlar oqini.
Bari, oltin davron beshiklaridan,
Ko‘zlarida chaqnar bilim chaqini.

Hayron va baxtiyor qarayman jimjit,
Qo‘lini ko‘tarib shundoq dedi chol:
Yoshligin izlovchi, hey oqsoch yigit;
Yoshligingni ol!
Ha, men yoshligimni va sho‘xligimni
Shu navqironlarning ko‘zida ko‘rdim.
O‘sha ilk sevgimni, qalb cho‘g‘ligimni
Shu yosh jononlarning yuzida ko‘rdim.

She’rga sig‘may qoldi baxtiyorligim...

Samarqand

* * *

Fasli bahor, qir lolazor,
To‘rg‘ay uchar sor ustina.
Lolazorda kuyla, dildor,
Rubob chalay tor ustina.
Ne bor visolingdan shirin.
Yonoqda xolingdan shirin,
Bo‘stonliq bolidan shirin,
Olma hidi nor ustina.
Bir — sen, bir — men, ko‘l qirg‘og‘i,
Yashil yaylov — oqshom chog‘i,
Oqshom chog‘i — visol bog‘i,
Oy ham qo‘nar dor ustina.
Beishqlar dardi dard emas,
Ishq faqat ohi sard emas,
Yorni ranjitgan mard emas,
Qor yog‘gusi qor ustina.
Eldan ayrilgan begona...
Yordan ayrilgan devona,
Yor, o‘lguncha men parvona,
Yor sevmayman yor ustina.

ARAZLIQ

Qo‘shiq

O‘ltiribman to‘qayda yolg‘iz,
Archa ko‘mir, qirg‘ovul kabob,
Yonimda na qayliq, na boldiz,
Na bir yutum qirmizi sharob.

O‘ltiribman to‘qayda yolg‘iz,
O‘tlamoqda tushovlik yo‘rg‘am.
Sanchilganday jonga juvoldiz,
Tomog‘imdan o‘tmas bir to‘g‘ram.

O‘ltiribman to‘qayda yolg‘iz,
O‘ylamangki, biron g‘arazlik,
O‘rtada so‘z qochdi, bir og‘iz,
Arazlikman, jindak arazlik.

NAY

Sayidjon Kalon o‘g‘lining
50 yoshiga bag‘ishlaganim

Nay ohangi keladi ayni sahar pallasi,
Sayraganday g‘oyib qush,
Yo munglug‘ ona kuyi — ayni sahar allasi
Iliq va yumshoq og‘ush.
Nay ovozi keladi buloq suviday ravon,
Ertakmi yo ayni tush,
Hayot cho‘qqilariga yuksal deb dovon-dovon,
Undaganday bu tovush...

Nay ohangi keladi eshilib har sho‘x oqshom,
Xilvatga chorlar go‘yo.
Ishq bog‘lariga imlar yo yordan yaxshi payg‘om,
Shundoq suyuk, bebaho...
Nay ohangi tinmaydi dara-yu jilg‘alarda,
Do‘nglarda o‘sha navo,
Bog‘larda, yaylovlarda, bulut — qasirg‘alarda
O‘sha nay, o‘sha havo...

Nay ovozi uchadi cheksiz-cheksiz osmonga
“Girya”mi yoki “Gulyor?”
Nay ovozi uchadi — shikva to‘lar jahonga,
Qandoq uzun, nolakor...
Quloq soling dardli soz, mungli bu soz zoriga,
Yig‘lar va yig‘latar zor.
Quloq solmabdi birov shuncha vaqt ozoriga...
Bunda mo‘l hikoyat bor...

Nay ovozi uchadi qandoq sho‘x-u dilnavoz,
Yetti falak toqidan balandroq yang‘irog‘i.

Nay ovozi uchadi — qandoq so‘lim, qandoq soz,
Shu so‘lim sadolarda go‘yo olam qulog‘i.
Qubbon ko‘lidek sermavj, baravj va jozibador,
Qandoq sir bu, ajabo, mo‘jizami yo tilsim,
Nahot jo‘n shu chalg‘uda shunchalar kuch-qudrat bor?
Ajabo, bu sehrgar soz ustasi o‘zi kim?

— San’atkor elimning bir jigarbandi...

Ilhom parisining suyuk farzandi!
Qo‘lingdan tushmasin shu oltin chalg‘u,
Shu otashin soz,
Kuyga shaydo elda yagona orzu:
Nay chalgin, eng kami, tag‘in ellik yoz...

CHOLLAR

Chollar o‘tiribdi bog‘ning to‘rida,
Olmazor to‘rida, ko‘rkam so‘rida...
Baliqlar bazmiga ko‘zgu sarhovuz,
Suvi jildir-jildir, shabadasi muz.
Sokin-u savlatli, soyabon sada,
Sira yondosholmay garmsel zada;
Chollar o‘tiribdi qurib chordana,
Davrasi arziydi desak shohona;
Yaktaklari oppoq, soqollar oppoq,
Boshlarda chust do‘ppi, ko‘zlari chaqnoq,
Chakkalarda yonar rayhon yo lola.
Chayir qo‘llarida gardun piyola,
Ichishadi sipo va sekin ko‘k choy,
Dasturxoni to‘kin, suhbatlari soy,
Qoramtir yuzlarda quyoshning qo‘ri,
Umrzoq baxt bermish mehnatning zo‘ri.
So‘zlashar cho‘lga ilk kelgan kunlardan,
Qora ayozlardan, qum quyunlardan,
Asov bo‘ronlardan, muz shamollardan.
Taysal ko‘rgani yo‘q cho‘l bu chollardan,
Sohibkor, bilag‘on, mehnatkash, o‘ktam,
Dunyoning o‘ziday keksa, hikmat jam,
Bular cho‘lda bog‘-rog‘ yaratganlardan,
Oq momiqdan ne tog‘ yaratganlardan,
Elimga taniqli, ardoqli chollar,
Hamisha bellari belbog‘li chollar;
Zamon ziyo to‘kmish bular diliga,
Bular juda yetuk tuproq tiliga,
Dunyoga bergusiz tansiq yeridan,
Gavhar undirishar manglay teridan...
Kim aytar: olamni qari bilmaydi,

Qari bilganini pari bilmaydi!
El baxti — o‘z baxti — bular mehnati,
Elning yuragida bular hurmati,
Har biri donishmand bir bobo dehqon...

Ha, dunyoning ko‘rki inson-da, inson!

CHANQOQLIQ

Kechalar mijja qoqmay,
Ko‘z nurlarim to‘kilib,
Sigara tutuniga
O‘pkam cho‘milsa hamki,
Yaxshi qo‘shiq ishqida
Siynam hatto so‘kilib,
Yurakkinam qurumga
Yuz gal ko‘milsa hamki,

Paysallashga vaqtim oz,
Ter to‘kaman, jilaman,
Mayli ayoz, mayli yoz,
Cho‘qqiga intilaman.

Yaratmoq, qurmoq uchun
Keldik axir jahonga,
G‘aflatdan toqatim toq,
Hushim yo‘q uyquga hech.
Insonlikni unutmoq
Gunohmasmi insonga?
Xastalik bahonamas,
Yo‘ldan qo‘ymang, qolmay kech!

Kuzgi yaproq bo‘lgim yo‘q,
Xazonim olis hali,

Hali juda ko‘nglim to‘q,
Davronim olis hali.

Quyosh toshqinlarini
Sipqorgum misli sharob,
Sho‘x boladay cho‘milgum
Hayot daryolarida,
Gangitolmas tilsimlar,
Aldayolmas hech sarob,
Uchgum hali baxtimning
Yorug‘ fazolarida.

Meni notavon demang —
Sochimning oqligidan.
Keksalikda bu jarang —
Qalbim chanqoqligidan!

Mayli, hansirab qolay,
Imillamayin lekin,
Ketda qolmoqning o‘zi
Yuz o‘limdan yomonroq.
Halol non oshab yashay,
Bir ushoq yemay tekin,
Mehnatkash yurt oldida
Yuzim bo‘lsin doim oq...

Kekkaymoqqa havas yo‘q,
Bo‘lolmayman havoyi,
Mehnatsiz bir nafas yo‘q,
Men ilhomga shaydoyi.

O‘z erkining egasi —
Insonga oshiqligim
Elimga sir emas-ku
O‘sha qirchin yoshimdan.

Zaminga oshiqligim —
Zamonga oshiqligim —
O‘lguncha barq uradi
Har zum ich-u tashimdan.

Zar sochguvchi daryomday
Dashtlarga darmon bo‘lgum.
Jumanbulbul bobomday
Qo‘lda soz bilan o‘lgum.

Samarqand

YOZ YOMG‘IRI

Yoz yomg‘iri yog‘adi sim-sim...
Bog‘lar changin yuvayapman, der,
Cho‘l taftini quvayapman, — der —
Quloq solsam qo‘shig‘iga jim.
Sim-sim yomg‘ir, obi rahmat-ku:
Irmoqlardan jilg‘a bo‘l, mayli,
Jilg‘alardan soyga to‘l, mayli,
Obi rahmat — bu barakat-ku.
Paxtakorning ko‘nglini chog‘ et,
G‘o‘zalarning ol g‘uborini.
Hozirdanoq chal kuz torini,
Ofatlarni yo‘latma, dog‘ et!
Ekinzorni haftrang tovlantir,
Suvchilarning yuzin silab o‘t,
Faqat yaxshi tilak tilab o‘t.
Chorvadorning ko‘zin quvontir...
Sim-sim yomg‘ir, sirli soz misol.
Pichirlaydi ona tabiat.
Saxiyligi ortganday qat-qat,
Go‘yo deydi: ol, ol, olib qol!..
Unutma, hoy, shoiringni ham,
Ko‘krak to‘la nafas olayin.
Go‘zallikni kuyga solayin,
Yoz yomg‘iri, kuzgi barakam!

Samarqand

SUV VA SULUV

Yetilgan juvon kabi
Hansirar bo‘la tuproq.
Chanqoq va chatnoq labi:
Suv! — deydi, — suv ber ko‘proq!
Paxtazor eksiz-cheksiz,
Jannatday barq urardi,
Egatlarda bitta qiz
Suv sug‘orib yurardi.
So‘lqildoq, do‘ndiqqina,
Yalang oyoq, qoramtir.
Ko‘z chaqmoq, puchuqqina,
Har odimi go‘yo sir:
Tashnalab g‘o‘za shuv-shuv
Barg silkib, pichirlashar,
Bir-biriga inoq-ku,
Imlashar va sirlashar:
Suv — suluvdan suluvroq,
Suluv — suvdan suluvroq...

Zavq toshar yuragida
Suvning jildirashidan,
Har tup g‘o‘za tagida
O‘ynab pildirashidan:
Payqaydi: bu — saraton.
Har qatra suv — bir chanoq.
Jilmayib qiz nogahon,
Qizarar gulday yonoq.
Yangraydi olislardan
Do‘rillagan bir ovoz;
Dilda jo‘shqin hislardan
Xabardordek saxiy yoz,

Tanish ovoz, bo‘ydoq roz,
Bu — ishqining allasi.
Ishqim, — der, — sabr et bir oz,
G‘animat suv pallasi!..
Suv — suluvdan suluvroq,
Suluv — suvdan suluvroq...

Samarqand

KO‘NGLIM

Seldan keyin har gal o‘sha kamalak,
Seldan keyin har gal yarqirar falak,
Seldan keyin har gal tushadi tog‘dan
Sochlari jingalak, o‘sha sho‘x malak...
Tog‘dan tushmay qolsa, yonaman g‘ashda,
Jiydash ko‘nglimdadir,
ko‘nglim Jiydashda...

Ko‘llar injusiday jilvakor ko‘l bu,
Olam ko‘zgusiday beg‘ubor ko‘l bu.
Sohilda kutaman besabr har oqshom,
Sohillari sirli, sehri bor ko‘l bu.
Netayki ilinjim shu parivashda...
Jiydash ko‘nglimdadir,
ko‘nglim Jiydashda...

Ko‘zimdan ketmas hech nozik adosi,
Suhbati, o‘lani, savti-sadosi,
Ko‘lday tiniqligi, selday sho‘xligi,
Gulday nafisligi... bo‘ldim gadosi!
O‘zi ham zap chechan, dildor, dilkash-da...
Jiydash ko‘nglimdadir,
ko‘nglim Jiydashda...

Bunda tabiat ham qiz yanglig‘ toza,
Ishqim bo‘lmasaydi axir ovoza.
Baxtimga tor go‘yo shu cheksiz qirg‘oq,
Yohu, go‘zallikka bormi andoza?
Meni bog‘lab olmish yolg‘iz qarashda...
Jiydash ko‘nglimdadir,
ko‘nglim Jiydashda...

Issiqko‘l

QALDIRG‘OCH

Cheksiz ko‘k toqlarida qaldiroq qarsillashi...
Qaldirg‘och qaytibdi-da.
Ko‘klam quchoqlarida keng olam lorsillashi...
Qaldirg‘och qaytibdi-da.
Yashil ipaklik kiymish tog‘ sirtlari, ne-ne bo‘z,
Qaldirg‘och qaytgani shu.
Kamalak yastanganday yer ko‘rkin qilar ko‘z-ko‘z,
Qaldirg‘och qaytgani shu.
Esga tushar go‘daklik — umrimning ko‘klam chog‘i,
Qaldirg‘och qo‘shig‘idan.
Esga tushar sho‘xligim — to‘palon soy qirg‘og‘i,
Qaldirg‘och qo‘shig‘idan.
Yoshligim diyoriga shaydoman hanuz-hanuz...
Qaldirg‘och, qo‘shiqqa qo‘sh.
Farzandlik burchim bor-da, esimda ezgu non, tuz...
Qaldirg‘och, qo‘shiqqa qo‘sh!

KO‘KLAM ELCHISI

Soy qirg‘og‘ida
Yo chamanzorda,
Ko‘klam chog‘ida
Ajab gasht bor-da...
Silaydi na xush
Cho‘llar havosi,
Sayrar ne-ne qush —
Sevgi navosi...
Yalpiz anqiydi,
Ilk ko‘klam hidi!

Hammadan burun
G‘uncha ochguvchi,
Dimoqqa durkun
Atir sochguvchi —
Dema: gul pechak,
O‘zga chechak bor.
Chechakmi — chechak,
Ko‘kish, fusunkor,
Jimjima xati,
Gunafsha oti.

Nozik va tamtam,
Xiyla tortinchoq,
Jimillar biram,
Inju taqinchoq,
Ko‘klam elchisi,
Tonglar kulgusi,
Jannatiy isi,
Samoviy tusi
Yoshlikday suluv,
Binafsha-da shu...

Qani, yur qirga,
Kezaylik picha...
Teraylik birga,
Kun botgunicha...
Binafsha terib,
Chakkangga taqqin,
Tong kabi erib,
Ko‘zimga boqqin.
Suvda suralay,
Ko‘zi quralay!

Yashil og‘ushda —
Qirg‘oq adir, bo‘z,
Qo‘shiq tush-tushda,
Navro‘z-da, navro‘z...
Damlar g‘animat,
Qani, yur, dildor,
Suyuk va qimmat,
Olamda ne bor —
Yoshlik kabi sho‘x,
Yoshlik kabi cho‘g‘...

MEN KETGANDA...

Men ketganda avjidaydi ayni kuz,
Pishiqchilik fayzidaydi dala-tuz.
Sahar payti karsillardi to‘rlama,
Bir palakdan uzar edik xuddi yuz.
Men ketganda yetilgandi g‘o‘za ham,
Cho‘ng xumlarda ko‘pirardi bo‘za ham,
Bir kosadan mast bo‘lishar tuyadek,
Sinar edi xum ham, ne-ne ko‘za ham.
Men Toshkentga shaylangandim tugal oy,
Ketar kunim sanqib yurdim soyma-soy.
Ko‘kragimga, qaydam, tushdi qanday o‘t,
Bosolmasa na muz ayron, na ko‘k choy.
Bir qop paxta tergan edim xarj uchun,
Oqshom o‘tib, bo‘ldi axir yarim tun.
Aravasin qo‘shganida amakim,
Onam yum-yum yig‘lar edi jigarxun.
Keyin quchib, peshanamni siladi,
Qo‘lin ochib, ne yaxshilik tiladi;
Buvim bilan qoldi duo o‘qishib,
Ne alomat kun bo‘lur — kim biladi...

Pichirlardi: “Mayli, mulla bo‘lib qayt,
Zora kelsa men ham jindak yayrar payt.
Bolaginam, ko‘rmay saning dog‘ingni,
Belbog‘ingga tumor tikdim, qo‘shib bayt”.

...Qaytdim, lekin qani o‘sha g‘amdiydam,
Topolmadim izlab hatto izin ham.

ANG‘IZ

Yo‘l-yo‘lakay bepoyon ang‘iz,
Poda-poda kezar tuvaloq.
Salt g‘unanda o‘taman yolg‘iz,
Suq kirguday qarayman uzoq,
Sollanishar semiz qo‘ziday,
Boshoq chaqar kezib do‘ng, cho‘nqir.
Tuslari ham cho‘lning o‘ziday,
Bedana pat, jimjima, qo‘ng‘ir.

Yo‘l-yo‘lakay bepoyon ang‘iz,
Gala-gala kezar bulduruq.
Qirdan oshsam, yam-yashil poliz,
Nahot borsam polizga quruq...
Kun botguncha boshoq chaqishar,
Biqqaligi o‘xshar tovuqqa.
To‘xtasam, bas, cho‘chib boqishar,
Yo‘latmaydi sira yovuqqa.
Bittasiga chovut sol, dersiz,
O‘ljalik bor o‘rang‘ayliqqa...
Qo‘shotarim yo‘q edi, esiz,
Ne vaj aytgum bugun qayliqqa?

HALI HAM...

...Onam non yopadi bo‘g‘riqib-bo‘rtib,
Dam-badam kuyadi qo‘li yengsakda.
Chiviq toycham gijing, yo‘rg‘alab-yo‘rtib,
Hadeb aylanaman shu tevarakda.

Nari ketolmayman o‘choq boshidan,
Yuguruk bo‘lsa ham toycham nechog‘liq.
Mazaliroq ba’zan qiyma oshidan,
Har gal bitta patir menga atog‘liq...

Yalpizlik, rayhonlik yo jindak jizza,
So‘lqildoq, yumaloq, cho‘g‘day va qumoq,
Gohi bo‘lsam hamki kimdandir izza,
Sinib yotsa hatto kichik arg‘umoq.

Menga o‘sha patir tegsa bo‘ldi, bas,
Otlanib, ovloqqa jo‘nayman darrov.
Ayiqmi yo qoplon — menga pisandmas,
Patir to‘qligida o‘ljalik-da ov.

...Dilda armon qoldi, umrga tatir,
Ne kunlar bor ekan manglayginamda.
Qishloqda yodimga tushdi shu patir,
Hali ham ta’mi bor tanglayginamda.

Turkiston

OV

Mingashib toyga,
Yo qapchig‘ayga,
Yoki bedana
Qalin, soz joyga,
Balig‘i pana
Yoyilma soyga —
Ketsak-chi ikkov,
Ov yaxshi-da, ov...

Soyda suqsur ko‘p,
Qamish ko‘lda g‘oz,
Tustovuq to‘p-to‘p,
To‘qay qandoq soz.
Qorli qapchig‘ay,
Alqor emas oz.
Gijing, yo‘rg‘a toy,
Etaylik parvoz.
Ketaylik ikkov,
Ov yaxshi-da, ov...

Tog‘larga oshsak,
Do‘lana, chetik.
Qirga yondoshsak,
Yigitday tetik
Bobo cho‘ponlar —
Bo‘lgaymiz qo‘noq,
Tog‘da o‘rmonlar...
Kezaylik o‘rtoq,
Ketaylik ikkov,
Ov yaxshi-da, ov...

Qoramurt

SOY

Loyqa soy — bo‘tana soy,
Toshqin soy — po‘rtana soy,
Tanimading shekilli,
Hijron ham to‘rt-o‘n yillik...

Shoshqinsan, beboshvoqsan,
Doim o‘yinqaroqsan,
Qo‘shiqchisan, quvnoqsan,
Hamisha o‘shandoqsan.

Men ham to‘palon edim,
Sho‘x, tinmas, biyron edim,
Loyqa — bo‘tana edim,
Olov — po‘rtana edim,
Tiniqib, tinib keldim,
Seni sog‘inib keldim...

Tanimading shekilli...

SHUDRING

Tong belgi bergandanoq
O‘tib osma ko‘prikdan,
Jar ketiga chopardim —
Jar keti o‘zga olam.

To‘ldirib chanoq-chanoq,
Go‘yo sutdek ko‘pikdan,
Tutgandek g‘oyib qo‘llar —
Jilvagar ko‘zga olam.

G‘o‘za yaproqlarida
Ko‘katlarning bargida,
Chechaklarning bag‘rida
Yaltirar lak-lak inju.

Sho‘x soy qirg‘oqlarida,
Nihollar kurtagida,
Sal epkinda simobday
Qaltirar lak-lak inju.

Yaltirar suyri tepa,
Yaltirar qir uzunchoq,
Kelinlar taqinchog‘i,
Uzuk ko‘zlarimi yo.

Chor atrof sabzalarda
Jimir-jimir ko‘zmunchoq,
Bo‘y-bo‘y dilrabolarning
Suzuk ko‘zlarimi yo?
Yo‘q, bu giryon ko‘zlarning
yarqiroq zamzamasi.
Kechasi onam tag‘in
yig‘labdi-da chamasi...

QO‘G‘IRMOCH

Bug‘doy o‘rog‘iga hali hafta bor,
Xampalarda un yo‘q, unsiz-ku kun yo‘q.
O‘roq tushgunicha kun o‘tar nochor,
Tushda mo‘rilarda hatto tutun yo‘q.

Har tong olis qirga ketardik to‘p-to‘p,
Tog‘dan esar xushbo‘y va salqin sabo,
To‘rg‘ay-u bedana o‘lan aytar xo‘p,
Bug‘doyzor chayqalar qandoq dilrabo!

Boshoqlar chayqalar, dumbulroq lekin,
Dumbul boshoqlarda hali sut donlar.
Uzun uzilar payt, vaqt o‘tar sekin.
O‘zini tutolmas bobo dehqonlar...

Bu kez tansiq hatto bir hovuch oqshoq,
Bu kez kulbalarda ko‘proq ko‘k sho‘rva.
Har kim o‘z chekida uzadi boshoq,
Uyga qaytar edik limmo-lim to‘rva...

Keyin boshoqlarni uqalab, puflab,
Onam qovuradi bizga qo‘g‘irmoch,
Talashib yer edik puflab va suflab,
Horg‘in onajonga jilmayib qiyg‘och...

Shundoq o‘tar edi qishloq hayoti,
Hali ham og‘zimda qo‘g‘irmoch toti...

BULOQ

Jar tagida ajriqzor sozloq bor,
Jar tagida yam-yashil yozloq bor,
Terak bo‘yi tik jardan yonlab tush,
Jayron ko‘zlik, jimjima buloq bor.
Zap buloq-da, chopqillar, jildirar,
Qo‘ng‘iroqday hamisha shildirar.
Tiniqligi ko‘k misol, tansiq suv,
Qubba-qubba pildirar, pildirar...
Olislarda Qoratog‘ qorasi,
Qara, lekin tog‘larning sarasi.
Tog‘ salqini, tog‘ hidi sozloqda,
Cho‘pon uchun olismas orasi.
Poda-poda mol ichar buloqdan,
Qayrag‘och-u tol ichar buloqdan,
Atay tushar sozloqqa yo‘lchilar,
Har kim ichsa — bol ichar buloqdan.
Jar tagida sumbul bor, yalpiz bor,
Har kun tushda kelguvchi bir qiz bor.
Qo‘zi haydab kelaman mo‘ljalda,
Bir ko‘rmoqqa shoshaman, dil xumor.
Tog‘ boshida yong‘oq ko‘p, olma ko‘p,
Qoqib, terib, to‘rvam ham to‘lar xo‘b
Ba’zan olma tutaman tush chog‘i,
Ba’zan olmas bo‘laman xuddi cho‘p...
Cho‘chiganday jayron naq bo‘rsiqdan,
Menga qatiq tutadi to‘rsiqdan.
Zarang kosa limmo-lim, men bo‘lsam,
Ko‘zim o‘ynar soqov suq, ko‘r suqdan...
Qo‘y qatig‘i qilganday go‘yo mast,
Mastligimda men dadil, zabardast,
Yangratadi yozloqni o‘lanim,

Yigit ishqi oldida tog‘lar past!
Pariginam egnida yo‘l-yo‘l bo‘z,
Ayriliqni o‘ylasam, dilim so‘z.
Voyaga yet, parizod, beshikast,
Sendan nari bo‘lsin-da yomon ko‘z!

Jar tagida ajriqzor sozloq bor,
Cho‘lga tutash, yam-yashil yozloq bor.
Terak bo‘yi tik jardan yonlab tush,
Jayron ko‘zlik, jimjima buloq bor.
Jar tagida sumbul bor, ko‘k yalpiz,
Uzoq qoldim o‘ylanib men yolg‘iz.
Qo‘zi haydab kelardim bir mahal,
Qayda ekan tengi yo‘q o‘sha qiz?

Turkiston

YOPIG‘LIQ NON

Qator do‘ngmi, deysiz, yo qator o‘tov,
Ba’zisi baqaloq, o‘zgasi cho‘qqi,
Bostirmami bular eshiksiz, butov,
Yoki chinorlarmi — tarvaqay, do‘qqi?

Epkinda mavj yanglig‘ jimirlar dala,
O‘lan hidi tig‘iz, hozir avji yoz...
Bo‘ron tursa to‘sat yoki do‘l, jala,
Yo yomg‘irdan keyin toyg‘oq yo ayoz,

Qisqasi — qish kelsa, bossa qalin qor,
Asqatar o‘sha payt shu qator g‘aram,
Qator g‘aramlarda g‘alati sir bor:
G‘aramlik — ofatga bo‘lmaydi qaram...

Chorvador o‘roqchi o‘rgan xirmon bu,
Qo‘ra-qo‘ra molga yopig‘liq non bu...

CHO‘PON

Soy vag‘illab oqar, jimjit, yorug‘ tun,
O‘tloq o‘rtasida yolg‘iz olachiq,
To‘rt tomon yeliga ko‘kragi ochiq,
Eshakday tevat ham yotibdi beun.
Olisda uvlarmi bo‘ri yo boyqush,
Mayli, cho‘ntagida shay turar gugurt,
Gugurtlik cho‘ponning yuragi burgut,
Mayli, o‘rab kelsin, bo‘lmaydi noxush.
Olov yallig‘ida o‘tirar cho‘pon,
Bunda tun harqalay izg‘iriq, salqin,
Salqin balosini daf etar yolqin,
Uyquda o‘tari — tugal, beziyon...
Qaynar qora qumg‘on, qaynar sho‘rvasi,
Tagida po‘stag-u yonida cho‘qmor,
Belida xanjar bor, chaqchada nos bor,
Pishloq, qurt, qatlama to‘liq to‘rvasi...
Qoziqda osig‘liq mitti apparat,
Buravorsa bormi, kuylar keng dunyo,
Kuylar, keng dunyodan so‘ylar keng dunyo,
Ba’zan yakkalikdan bezor dil faqat...
To‘ng‘ichi olis yurt chegarasida,
Cho‘ponlikka moyil emas kenja ham,
Cho‘pon mehri bitta nevarada jam,
Butun umid o‘sha nevarasida.
Kelib-ketib turar, ostida xo‘tik,
O‘sha tashlab ketar nosmi yo kulcha,
Sahroga moyilroq o‘sha o‘g‘ilcha,
Baytari ilmiga hozirdan yetuk.
Olov yallig‘ida o‘tirar cho‘pon,
Olamni aylanib, xayol izg‘iydi.
Tonggacha yuz yo‘la mudrab, mizg‘iydi,
Uyquda o‘tari — tugal, but, omon.

SHUMG‘IYA

Tizzadan tuproq chopib,
Tizzadan jo‘yak olib,
Bobom qovun ekkandi,
Jannatdek bo‘ldi poliz.
Har palak xud qirqtadan
Gul-u tugunak solib,
Saraton yallig‘ida
Suv so‘rar edi yolg‘iz...
Bobo dehqon-da bobom,
Uch gal suv berdi, xolos,
Chopig‘i to‘rt bo‘luvdi,
Uzdik hatto handalak.
Bobom bir kun polizda
Ko‘tardi ayyuhannos:
“Shumg‘iya!” deb shum ko‘kat
Yulardi, joni halak.
Yulgan bilan bo‘lmadi,
Yulgan bilan bo‘lmadi...
Yashil polizimizda
Quriy boshladi palak,
Uyqusiz o‘tar tunlar,
Sal qoldiki o‘lmadi,
Arvoh singari oriq,
Boshi ham sarak-sarak...
Butun umid shundaydi,
Yillik rizq-u ro‘zi-da,
Saharlar qarsillashi,
Shinni-yu qovun qoqi.
Bir alam yonar edi
Boboginam ko‘zida,
So‘kib qo‘yardi tajang:
“Ha, seni, manjalaqi!”

Bitta paydo bo‘lsa, bas,
Ketar ekan kuchuklab,
Bobom oh urib, deydi:
“Tegdi o‘xshar yomon ko‘z!”
Qirqi chiqqan og‘riqday
Avaylab va uchuqlab,
Topolmadi hech iloj,
Rangi har kun bo‘zdan-bo‘z.
Ildizidan qo‘porib,
O‘t qo‘ydi axir bobom,
Polizga shundan keyin
Zo‘rg‘a kirgan edi jon.
Har gal bir eslab deyman:
— Chuchvara sanamang xom,
Shumg‘iyaga o‘t qo‘ying,
O‘latdan battar yomon...

Samarqand

QUCHOQ

Uzoq yo‘lchilikdan kelmovdim qaytib,
Yo dur to‘kilmovdi qo‘ynimdan.
Eshikdan kirmovdim yo qo‘shiq aytib,
Lekin to‘sat quchding bo‘ynimdan.

Bag‘ringda bir nafas qirovlik boshim,
Sochlaring isidan darhol bo‘ldim mast.
Bo‘g‘moq istar meni duv-duv ko‘z yoshim,
Tog‘day zil mung mavji shu zum bo‘lar past...

Bilaklaring o‘ti, qalbing yolqini,
Guldek andomingda titroq bir sado,
Suzgun ko‘zlardagi sog‘inch chaqini
Meni birato‘la qilgandi ado...

Xayolimga tushdi so‘lim Samarqand,
Esrik yigitligim. G‘o‘r edim u choq.
Nechog‘liq jannatiy, sehrgar nachand,
Qadrini bilmayin ketganim quchoq...

Keyin olislarda qo‘msadim ne vaqt,
Holvaday hech mahal ketmasdi toti.
Badbaxt yillarim, hey, sizdan dil karaxt,
Ey aldoqchi ishqning sermast novvoti...

Uzoq yo‘lchilikdan kelmovdim qaytib,
Inju to‘kilmovdi qo‘ynimdan,
Eshikdan kirmovdim yo qo‘shiq aytib,
Lekin to‘sat quchding bo‘ynimdan.

Meni olib borib-olib keldi dam,
Samolarga uchdim qanotsiz.

Dilorom, jannatiy, yoqimtoy biram,
Ey sehrgar damlar, nesiz, hayhot, siz?

Men o‘larman, lekin shu quchoq shavqi,
Olov quchoq toti o‘yimdan ketmas.
Ming yilga yetgusi nash’asi, zavqi,
Ming yil o‘tsa hamki kuyimdan ketmas.

Tuproqqa ko‘mishar, uxlagayman jim,
Lekin xayol sen-la o‘sha yerda ham,
Esga tushganingda har gal, bekachim,
Ag‘darilib tushgum — xushvaqt, xotirjam.

Ag‘darilib tushgum kulimsib tushda,
Go‘yo hamon o‘sha otash og‘ushda...

KELMAGIN

Qo‘shiq

Kel dedim — kelmading hech
Joyingdan jilmading hech.
Sog‘indim, somon bo‘ldim,
Ko‘nglimni bilmading hech,
Kelma, kelmagin, mayli,
Yo‘lda yelmagin, mayli,
Kutmayman erta-yu kech,
Jindak jilmagin, mayli.
So‘nmish ishqi, demagin,
Xom xayolda kulmagin,
Ishqim battarroq hozir,
Mayli, betinch bo‘lmagin.
Zap qutuldim, demagin,
Shubhaga yo‘l bermagin,
Yetib boraman o‘zim,
Kelma, asli kelmagin.
Yetib bormasam bo‘lmas,
Seni ko‘rmasam bo‘lmas,
Dil xushlab, qo‘ling ushlab,
Davron surmasam bo‘lmas.

ILHOM PARISIGA

Ko‘zimni murg‘aklikdan ochmasayding jahonga,
Burrolik bermasayding,
Suqlanish qayoqdaydi kechalar kahkashonga...
Shaydolik bermasayding:
Qaydan ko‘rardim axir hayot uyg‘onishini
Yorug‘lik quchog‘ida?
Ko‘katlar, chechaklarning xushbaxt to‘lg‘anishini
Ko‘klam qaldirog‘ida.
Samolar uchishini qaydan ko‘rardim ochiq,
Sensiz, quyosh tal’atim.
Ey hayotim ilinji, ey hayotga yarashiq,
Ey sen, go‘zal san’atim!

Zehnimni go‘daklikdan tutmasayding insonga,
Olovga solmasayding;
Qaydan tushunar edim jumboqday yuz lisonga...
Yuz dovga solmasayding:
Qaydan payqardim, axir koinot pichirini
Soniya titrog‘ida,
Zarrada zarralarning sira o‘lmas sirini
Qo‘r quyosh o‘chog‘ida.
Yulduzlar ko‘chishini qaydan sezardim ochiq,
Sensiz, quyosh tal’atim,
Ey hayotim ilinji, ey umrimga yarashiq,
Ey sen, go‘zal san’atim!

OQISH

Soy oqadi vag‘illab,
Jo‘sh urib ham jag‘illab.
Soy bo‘ylab borar birov,
Ko‘ksida go‘yo olov.
Bosh quyi, o‘tadi yo‘l,
Yoqasi ham butun ho‘l,
Nafasi tiqilguday,
Tovonda yiqilguday...

Soy ne vajdan vag‘illar,
Ne payqab u jag‘illar?
Kim bu tinmag‘ur kishi,
Dil o‘rtar, ne qilmishi?
Sevganidan ayrilmish,
Qanotidan qayrilmish —
Yigitmidi yo keksa,
Nahot shuncha g‘am cheksa?

Kim bo‘lsa ham dili xun,
G‘ussaga botmish bugun.
Bugun o‘lasi izza,
Dir-dir qaltirar tizza...

Soy-chi, hamon vag‘illar,
Jo‘sh urar ham jag‘illar,
Oqar, oqar u hamon,
Oqar zamin-u zamon...

SALQIN SAHAR, DARYO BO‘YI...

Salqin sahar, daryo bo‘yi,
Jimjit dunyo esingdami?
Tabiatning so‘lim to‘yi,
Tonggi ro‘yo esingdami?

Ovloq, xushbo‘y jiyda tagi,
Pichir-pichir qalin bargi,
Sevgimizning sho‘x ertagi,
Sehriy savdo esingdami?

Suluvliging sehrdan soz,
Sehrdan soz, sen sarvinoz,
Yuz eslasam, baribir oz,
Mehr-u vafo esingdami?

Muhabbatning olovligi,
Olovdek beayovligi,
Hamishalik lov-lovligi,
Ko‘zi shahlo, esingdami?

Oq bulut ham oqar sekin,
Ko‘rsa agar nima derkin?
Bekin! Yo‘g‘-e, tin ol erkin...
Salqin sabo esingdami?

Yorishmoqda olis chek ham,
Tong fusunkor, suluv biram,
G‘azal yanglig‘ jarangdor dam,
Yangroq havo esingdami?

Boshlanur to‘rg‘aylar kuyi,
Tabiatning tonggi to‘yi,
O‘sha visol, daryo bo‘yi,
Yorug‘ ro‘yo esingdami?

SOZ

Kel sozingni jaranglat,
Ha, jaranglat, ey sanam,
Yoniq ko‘nglingni anglat,
Jo‘r bo‘lay asta men ham.
Chal to‘lg‘ona-to‘lg‘ona,
Soz sehriga chulg‘ona.
Tinglayin yona-yona,
Tashnaday qona-qona.
Chalgin, sadag‘ang ketay,
Ko‘nglimni tag‘in yayrat.
Chal, senga g‘azal bitay,
Qush yanglig‘ meni sayrat...
Chal, bu savti sadoda,
Bilsang, qandoq savdo bor.
Qanot qoqar samoda —
Dil mavjing, ishqing oshkor.
Samo ham tinglaydi soz,
Kuy bulutga urar to‘sh.
Avjiga ol, dilnavoz,
Tag‘in tosh, ha, tag‘in jo‘sh!
Qandog‘am san’ating bor,
Olam fayziyob bo‘lur.
Eshitganga ilhom yor,
Sel bo‘lur, simob bo‘lur.
Chal, azizim-ayashim,
Men ham ilhom quchayin.
Dilda qolmayin g‘ashim,
Yuksaklarda uchayin.
Chal, chalur chog‘ing shu choq,
Chala qolmasin navo.
Chal, navo bo‘lmasin toq,
Chal, cholg‘ung dilga davo.

* * *

Sadaf sozingni yangrat,
Chal, jaranglat, ey sanam...
Yoniq ko‘nglingni anglat,
Jo‘r bo‘lay asta men ham.

LOLAZOR

Navro‘z. Lolazor bo‘z. Chechaklar ko‘z-ko‘z.
Olis adirlarda, do‘nglarda lola,
Har lola — tuproqdan ishqiy risola,
Har lola — qo‘shiqchi, quvnoq qiz bola,
Har lola ko‘rkida yarqirar navro‘z.

Lola ocholdingmi, Kultepam, sen ham?
Ey onam, menga ko‘z tikkan sho‘rlik do‘ng,
Onamning toleyi bo‘lmadi hech o‘ng,
Lola ochilar payt ko‘ngli qor va to‘ng,
Tong chog‘i dala ham ko‘z yoshidan nam.

Yelkamda farzandlik qarzim hanuz bor,
Menga olis — Bag‘dod, maqtovli Kobil,
Menga pisand emas qal’ai Bobil,
Meni o‘ylamagin uncha noqobil,
Bobo yurtim Yassi, shavkatli O‘tror!

Ne-ne soz qo‘shiqda, yod etgum hali,
Ey asov, bepardoz, sog‘, ona tilim,
Buloqday tinig‘im, durdona tilim,
Beshigim, pok dilim, jonona tilim,
Ne-ne soz qo‘shiqda shod etgum hali.

ZARANG KOSA SINIG‘I

Yashil do‘ng etagida
Zarang kosa sinig‘i...
Nortuyalar mast bo‘lmish
Ko‘klammikan, yozmikan,
Yoki qora sondan qor —
Qishmikan, ayozmikan,
Ko‘kimtir bo‘zamikan
Yo qimizning tinig‘i?
Qimizning tinig‘idan
Esdalik zarang kosa,
Yashil do‘ng etagida
Qirq jo‘ra davra qurib,
Do‘mbiralik baxshi ham
To‘rg‘ayga jo‘r oh urib,
Tovus yanglig‘ tovlanmish
Shirakayf, sho‘x raqqosa.
Qo‘ldan tushdimi noxos,
Uloqtirdimi yo mast,
Shu kosa sinig‘ida
Do‘mbiraning tasviri,
Shu kosa sinig‘ida
Bobolarim taqdiri,
Shu kosa ne zamonlar
O‘tdi ekan dastma-dast?
Do‘mbira tasvirida,
Ko‘rinmay nihoyasi,
Jaranglar qirq bir qissa —
“Go‘r o‘g‘li” hikoyasi...

YO‘LING UZUN

Ko‘chadan kelur shovqin,
Sho‘x qahqaha, sho‘x g‘ovur.
Ko‘chada yarqiroq tun,
Chang, tuman kam haytovur,
Sho‘x qahqaha, sho‘x g‘ovur.

Ko‘chada quvnoq yalla,
Kuylar yigirma yoshim.
Kuylavergin baralla.
Mening mangu sirdoshim,
Kuyla, yigirma yoshim...

Quvnar navqiron naslim
Salqin soy qirg‘og‘ida.
Sayr etar mening aslim —
Maydonida, bog‘ida,
Salqin soy qirg‘og‘ida.

Suhbati soz, xushvaqt bazm,
Har go‘shada yor vasli.
Olisdan solaman razm,
Kuz ham ayni ishq fasli,
Har go‘shada yor vasli...

Yor vasliga zor-u zor.
Nomurod ketgan ham bor.
Nohaq, bevaqt va bekor
Armonda o‘tgan ham bor.
Nomurod ketgan ham bor.

Chaqimning chaqmog‘i yo‘q,
Og‘usi, ozori shay.
Chaqimchining sog‘i yo‘q,

Ilondek shum kori shay,
Og‘usi, ozori shay.

Ko‘chadan kelur shovqin,
Sho‘x qahqaha, sho‘x g‘ovur.
Ko‘chada yarqiroq tun,
Chang, tuman kam haytovur,
Sho‘x qahqaha, sho‘x g‘ovur.

Meni chorlaydi chog‘i,
Olis yigirma yoshim.
Nima ekan so‘rog‘i,
Ne demoqchi sirdoshim,
Olis yigirma yoshim?

Quvna, yosh jo‘ram, dilshod,
Yigitlik qadriga yet.
O‘tdi qora girdibod,
Yo‘ling uzun, to‘g‘ri ket,
Yigitlik qadriga yet.

Quvna, yosh jo‘ram, yayra,
Ona yurt qadriga yet.
O‘zingni tig‘day qayra.
Duch bo‘lsa magar bezbet.
Ona yurt qadriga yet...

Ko‘chadan kelur shovqin,
Sho‘x g‘ovur tongga dovur.
Ko‘chada yarqiroq tun,
Kuz emas, go‘yo sovur,
Sho‘x g‘ovur tongga dovur.

Meni ham chorlar chog‘i
O‘sha yigirma yoshim,
Nima ekan so‘rog‘i,
Ne demoqchi sirdoshim —
Olis yigirma yoshim?..

PUSHKIN UYIDA

Ko‘rimsiz, mungli uy suv yoqasida...

Necha vaqt... Bir davron o‘tdi chamamda,
Hanuz o‘sha uyda — qishmi yoki kuz,
Yorilib ketguday xit, o‘ksik hanuz,
Bo‘g‘zida faryod-u, dili alamda.

Qora bulut o‘tar shahar boshidan,
Sho‘x, betiyiq bazmdan hozir qaytganday,
Tag‘in og‘uliroq bir hajv aytganday,
Horg‘inlik ko‘rinur chimiriq qoshidan.

Necha yil... davr o‘tar chigil va dilxun
Hanuz g‘iybatlarga to‘larmikan boj,
Oqar suvday beqadr, dilxun, noiloj,
Ko‘zlarida g‘azab, siymosi so‘lg‘in.

Shohlar ermagiga tug‘mabdi zamon,
Shikastanafs, lekin adl soz cholding,
Xushomaddan yiroq va ozod qolding,
Shay eding erk uchun bag‘ishlashga jon.

Erkin ulug‘ladi tengi kam sozing,
Rus xalqining asriy nidosi bo‘ldi,
Rus qalbining aksi sadosi bo‘ldi —
Shuning uchun sening jarang ovozing.

Ko‘rimsiz, mungli uy suv yoqasida.
Seni deb ranjdiyda, ezgu, yoniq dil,
Men jondan kechdim-ku qirq birinchi yil,
Sen sevgan shu shahar bo‘sag‘asida...

Ko‘rimsiz, mungli uy suv yoqasida...

KUZ

Ey, suzgun ko‘zlaringdan,
Ko‘zlarim uzolmayman,
Tahrir kerakmas g‘azal —
Bir so‘z ham buzolmayman.
Qandoq jodugar ko‘z bu,
Kiprik emas — qunduz bu,
Olamga tug‘ilganday
Ayni sahar yulduz bu...
Na parisan, na malak,
Na oh-u, na to‘lin oy,
Sen bo‘lakcha suluvsan,
O‘landay jo‘n bir chiroy.
Butun xayolim senda,
Qo‘lingda ixtiyorim.
O‘ylamaki, bu qo‘shiq
Ranj yoki oh-u zorim.
Yo‘q, senga egiladi
Hanuz egilmagan bosh,
Ey olis yo‘lda yo‘ldosh,
Ey xolis yo‘lda yo‘ldosh.
Yolg‘iz yorlaquvchimsan
Yo‘q, yo‘q, ma’budam o‘zing,
Sen o‘zing — ikki ko‘zing...

ISTARDIMKI...

Oltin bo‘lsam,
Qulog‘ingga sirg‘a bo‘lurmidim,
To‘y kunlari
Taqarmiding, koshki andak taqsang.
Hech bo‘lmasa,
O‘sha oqshom birga bo‘larmidim...
Archa bo‘lsam,
Tarashaday mayli edi yoqsang.

Mayli edi,
Hech bo‘lmasa qumg‘on qaynatolsam,
Qish kunlari
Lovullatsam gulbarg yonog‘ingni,
Yoki asil
Inju bo‘lib ko‘zing o‘ynatolsam,
Qaratolsam
Qora cho‘g‘day yal-yal qarog‘ingni...

Istardimki,
Hech bo‘lmasa, qo‘shiq bo‘lsam sodda,
Suyunganda
To‘lib-to‘lib tilga olarmiding,
O‘ksinganda,
Mungg‘ayganda dilga solarmiding,
Balki shundoq
Talay mahal qolar edim yodda...

Ne bo‘layin?
Yoqut misol tog‘da yotaymikin,
Qani edi
Topib kelsa meni yo‘lovchilar,

Yo‘lovchilar —
Yoniq dilni dilga ulovchilar,
Yo dengizda
Inju bo‘lib qumga botaymikin?

Qumdan topib,
Uzukka ko‘z qilarmiding, qaydam,
Istardimki...
Yonib tursam barmog‘ingda, dildor.
Yo baliqday
Doim qolay qarmog‘ingda, dildor...
Istardimki...
Loaqal bir silarmiding, qaydam.

Istardimki...
Yo‘q, istama... Ko‘nglim, oltin bo‘lma,
Yoqut bo‘lma,
Archa bo‘lma, tuproq bo‘lgan durust,
Loaqal yor
Bosib o‘tar, shundoq bo‘lgan durust,
Bari axir
Tuproqdan-ku. Balli ko‘nglim, o‘lma.

MAYLI...

Nima yetmay qoldi ikkovimizga, yor,
Dilda ne g‘ubor?
Nahot shu keng dunyo bugun bizga tor,
Qandoq qutqu bor!
Axir jahonga teng yurt-ku o‘rtada,
Nahot bo‘lishsak?
Nima yetmay qoldi, dil nedan zada,
Nahot urishsak!
Mayli, bo‘lishaylik — bog‘larni sen ol,
Cho‘l menga qolsin.
Daryolarni sen ol, tog‘larni sen ol,
Ko‘l menga qolsin.
Agar ko‘llarni ham olaman desang,
Soy qolsin menga.
Agar quyoshga qo‘l solaman desang,
Oy qolsin menga.
Agar oy ham kerak der ekansan, ol,
Yulduzdan qo‘l tort.
Oq tunlar ayshini surgin bemalol,
Kunduzdan qo‘l tort.

Sharob senga bo‘lsin, choy menga qolsin,
Yoki ayroni.
Saroy senga, chetroq joy menga qolsin,
Sayg‘oq, jayroni...
Samarqandni sen ol, Turkiston menga,
Yo mayli, Sayram.
O‘shaning o‘zi ham bir jahon menga,
Bir to‘y, bir bayram.
Olaver, olaver, barisini ol,
Oshiq indamas,
Barini olgin-u, menga-chi, Oyxol,
O‘zing qolsang bas.

AGAR

Agar to‘yda emas, bayramda emas,
To‘kin kuzda yoki ko‘klamda emas,
Yo qahqaha jarang berganda emas,
Yo chamandan chechak terganda emas,
To‘sat qora bo‘ron turganida ham,
Boshginamda g‘avg‘o qurganida ham,
Yoki balo toshi otilar choqda,
Bolginamga qatron qatilar choqda —
Bugungidek quvnoq kelsayding agar,
Shundoq kelishingni bilsaydim, dilbar
Der edim: olamda mendaqasi kam!

* * *

Kelgin oq kunda ham, qora tunda ham..

SHUNDOG‘AM SEVAMANKI...

Shundog‘am sevamanki
Seni, Farg‘onaginam!
Ne bilay, bormi o‘zi
Bu olamda o‘xshashing?
Asl tuproq, qutlug‘ yurt —
So‘lim, dilrabo, shinam,
Jonday aziz, azaldan
Ardoqli mehnatkashing...

Shundog‘am sevamanki
Seni, Farg‘onaginam!
Cho‘qqilar bo‘sa olur
Oq bulutlar to‘shidan,
Oq bulutday yuksalur
Oq momiq cho‘qqilar ham —
Daryolarning jo‘shidan,
Andijon-u O‘shidan...

Shundog‘am sevamanki
Seni, Farg‘onaginam!
Bahor bahra olguday
Tansiq, o‘tlug‘ nafasing.
Pariday tiniqqinam,
Tengsiz jononaginam,
Tonggi tushday fusunkor
Sen to‘qimish atlasing...

Shundog‘am sevamanki
Seni, Farg‘onaginam!
Seni bir ko‘rgan kishi
O‘lguncha shaydo-yu lol,

Jannatda yo‘q go‘zallik
Sening jamolingga jam,
Xazinadek tuproqsan,
Barakang ham bezavol...

Shundog‘am sevamanki
Seni, Farg‘onaginam!
Sen zamonlar qalbida
Sho‘x qo‘shiq, jarang nido.
Yetti iqlim tojida,
Ey gavhar donaginam,
Ko‘zim qarog‘idasan,
Ne jon — jonlar ham fido..

Shundog‘am sevamanki...

QUSH TILI

(Mo'min boboning yaxshi nevaralaridan mitti Alisherga ataganlarim)

Qushlar, hey, ketmang uzoq,
Qo'ymayman sizga tuzoq.
Bo'zto'rg'ay,
bo'zlashaylik.
Turumtoy,
so'zlashaylik.
Qaldirg'och,
quvlashaylik.
Betilmoch
quvnashaylik.
Sa'vaoy,
sayrashaylik.
Soyma-soy
yayrashaylik.
Qushlar, hey, ketmang uzoq,
Qo'ymayman sizga tuzoq.
Cho'chimang, hoy, chumchuqlar,
Laylag-u chug'urchiqlar,
Ko'kqarg'a-yu, zarg'aldoq,
Bulduruq ham tuvaloq,
Suqsur, oqquv, tustovuq,
Sayranglar menga yovuq.
O'ylamangki, otgum tosh,
O'ylamangki, men bebosh...
Ketmang yiroq, qushlar, hey,
Go'yo yorug' tushlar, hey.
Qush yurti — men sevgan yurt,
To'qay, tolzor, qapchig'ay,
Mendan qochma, hoy, burgut,

Do‘stlashaylik, qarchig‘ay.
Kaklik, to‘ti, bedana,
Sepay tariq, sedana,
Keling, ha, sirlashaylik,
Keling, ha, tillashaylik.
Uzoqlashmang, qushlar, hey,
Go‘yo yorug‘ tushlar, hey.
Qafasga solmayman, yo‘q,
Ko‘nglingizni tuting to‘q.
Totuv, inoq bo‘lgum bor,
Tilingizni bilgum bor.
Bu bola tantiq, demang,
Ya’ni bemantiq, demang,
Tantiqligim emas bu,
Mundaqa o‘ylamang xom.
Tilingiz bilarkan-ku
Axir Alisher bobom.

Bobomday bo‘lsam, deyman.
Qush tilin bilsam, deyman.

HATTOKI...

Hattoki, puchak ham tama qilmovdim,
Kunlarim-ku axir gavhardan ortiq.
Sira o‘ylamovdim, chama qilmovdim,
Ne kun, har daqiqam qutlug‘ bir tortiq.

Quyosh nurlaridan to‘qilgan yanglig‘,
Ne daqiqa, hatto soniyamda qut.
Quyosh nurlaridan so‘qilgan yanglig‘,
Hamyonim jaranglik, to‘la, borman... but...

Senga dilim qarzdor, azizim — onam,
Senga ilhomim ham qarzdor umrbod.
Yog‘inlik yillar ham yod, dillarda yod,
Qarzdorman, Vatanim, yurtim, jononam.

Hattoki, puchak ham tama qilmovdim...

YULDUZ

Daryo tepasida, ko‘k qubbasida,
Xuddi arsh avjida to‘p inju dona —
Yulduz jimillaydi tong jilvasida,
Ne yulduz, fusunkor moviy afsona...
Jimillaydi go‘yo jozibali tush,
Yoki sahar chog‘i jimjima jumboq.
Zuvalasi yog‘du yo o‘lanchi qush,
Yo asriy armonki, yorqin va uyg‘oq.
Yulduz jimillaydi, jimillaydi, hey,
Go‘yo nur mavjida limillaydi, hey.

* * *

Jig‘am yo‘q-da, olib qo‘ndira qolsam,
Jig‘am bo‘lganda ham qo‘ndirmas edim.
Yo uchqun emaski so‘ndira qolsam,
Uchqun bo‘lganda ham so‘ndirmas edim.
Yombimas, zargarga yo‘ndira qolsam,
Yombi bo‘lganda ham yo‘ndirmas edim.
Yo zar soqqamaski do‘ndira qolsam,
Soqqa bo‘lganda ham do‘ndirmas edim.
Yulduz jimillaydi, jimillaydi, hey.
Imlaydi, imlasam — imillaydi, hey.

* * *

Fusunkor yorug‘lik to‘la fazoda,
Nahot, o‘sha yulduz menga qarashlik?
Kimningdir suyunchi bo‘lur ziyoda,
Kimningdir ko‘nglini qovurar g‘ashlik.
Ba’zan besh ko‘rinar, ba’zida yetti...

Yorug‘ yulduzginam, umr hangomasi,
Porla, ko‘zlarimga ko‘rinma mitti,
Bo‘lolgin jo‘shqin dil qiblanomasi.
Yulduz jimillaydi, yulduz jimillar,
Imlar men imlasam — nechun imillar...

KULGICHI

Ko‘zi surmalikkina,
Ko‘ksi burmalikkina.
Kulgichi bor — kulgichi,
Yoqa tugmalikkina.
Kulgichi, oh, kulgichi,
Nozik ado nechog‘lik.
Bo‘saning shum yulg‘ichi —
Daf bo‘lsin, bag‘ri dog‘lik.
Kulgichi bor, o‘zi sho‘x,
O‘zi juda hayolik.
Ko‘z qarashi go‘yo o‘q,
Lekin mehrigiyolik.
Yigitlar so‘zsiz vola,
Qirq yasharlar ham xumor.
Naq may to‘liq piyola,
Sehrgar xislati bor.
Og‘zining o‘ymoqligi,
Tilining qaymoqligi.
Mumkinmi o‘zi, qaydam,
Hech ko‘zning to‘ymoqligi?
Yurak dardiga yetuk,
Bosh og‘risa ham tayyor.
Biram qaqajon, ko‘hlik,
Biram biyron va ayyor.
Birontadan qarzi yo‘q,
Undan-chi, hamma qarzdor.
G‘aznachiday ko‘ngli to‘q,
Emlashi mo‘jizakor.
Ko‘p emladi meni ham,
Ignasi ko‘p shifolik.
Shundog‘am sodda, o‘ktam,

Shundog‘am kuchga molik.
Darrov o‘rganasan-u
Unutolmaysan keyin.
Ayniqsa bu oshig‘-u
Shaydo yigitga qiyin!
Hammaga birday egik,
Va’da ham, vafo ham yo‘q.
Ko‘zlari qaraydi tik,
Ko‘zlarda pirpirar cho‘g‘.
Goho o‘sha qarashi
Dilga qo‘shiq bitadi.
Goho o‘sha qarashi
Beboshvoq aljitadi...

Meni-ku aljitmadi
Va lekin yalchitmadi.

ONA YURT

Tuprog‘ing zar,
Toshing gavhar,
degan ham bor.
Yagonasan,
Jononasan,
degan ham bor.

Mehrigiyo,
Qanday zebo,
degan ham ko‘p.
Bebahosan,
To‘tiyosan,
degan ham ko‘p.

Birov undoq,
Birov bundoq to‘qir maqtov.
Undog‘ammas,
Bundog‘ammas, aziz va dov,

Ko‘l-u tog‘lik,
Bog‘-u rog‘lik o‘zbek elim.
Momo yurti,
Bobo yurti, chambil belim.
Zar-u gavhar — yaltiroq tosh,
nedir olmos,
Sen biz uchun ham non, ham osh,
mangu meros.

Avlodlarga meros tuproq,
oltin beshik.
Kelsa qardosh, kelsa qo‘noq
lang‘irt eshik.
Tiriklikda diyorimsan,
bol va oq sut.
O‘lsam agar mozorimsan,
ey Ona yurt!

DUNYO BIR SOZ QO‘SHIQDAN ZAVQ OLOLSAYDI

Yovuzlikka jindak ham joy qolmasaydi,
Qaniydi...
Har yuvuqsiz yoqaga chang solmasaydi,
Qaniydi...

Mag‘zin harom qilmasa so‘zdagi chinlik,
Soxta uchqun bo‘lmasa ko‘zdagi chinlik,
Na ko‘zdagi, na so‘zdagi, o‘zdagi chinlik,
Qaniydi...

Ko‘zga g‘ubor chekmasa shiprindi — qo‘qim,
O‘zin tulpor bilmasa qirchang‘i — so‘qim.
Baxmaldan bichishmasa eshakka to‘qim,
Qaniydi...

Urug‘i ushib ketsa tirik boqimlar,
Odamni xor etmasa g‘araz, chaqimlar,
Loyqalanmay oqsa-chi tiniq oqimlar,
Qaniydi...

Dunyo bir soz qo‘shiqdan zavq ololsaydi,
Bir cholg‘u chalolsaydi, bir tor chalsaydi,
Odamiylik shiormas, jon bo‘lolsaydi,
Qaniydi...

U pallada qolardi na bevaqt yig‘i,
Na ranj, na do‘q, na ozor, na dil og‘rig‘i,
Na surbet tuhmatlarning zaharli tig‘i,
Qaniydi...

U vaqt tansiq bo‘lmasdi na xap, na dolchin,
Na jazo va na sazo, na tepki, olchin,
Koshki tez bo‘la qolsa yorug‘ xayol chin,
Qaniydi...

SAMARQAND SHE'RLARIDAN

Sen mening tariximda o'razlik nomsan,
Sen mening tariximda ezgu ayyomsan.
Sen mening tariximda may to'liq jomsan,
Sen mening qo'shig'imsan, mangu maqomsan.
Yo'q, na Nuhsan, na Zolsan, na Lut, na Somsan,
O'sha bobokentimsan, devzot bobomsan,
Oh, nechog'lik suyuksan, soz, diloromsan,
So'lim Samarqand!

Sen Semizkentimsan-ku, qadim Semizkent,
Aslida yolg'izmassan, oshkor egiz kent.
Manglay ter daryosidan baxti dengiz kent,
Erkin Sharq siynasida quyosh mengiz kent,
Ey mening yorug' chashmam, nuri cheksiz kent.
Meros kentlar tojisan, suyuk, tengsiz kent,
Menga hayot tatimas edi sensiz kent,
So'lim Samarqand!

Ajib o'lkam husnida ajib, tengsiz xol,
Yarqiroq kamolingga ne-ne dunyo lol,
Ey ko'zim qorachig'i, yuksal bezavol,
Zahmatkash, ey mushti tosh, pokdil va halol.
Noni, tuzi tabarruk, suvi zilol, bol,
Yalmog'izga, yovuzga hamisha qattol.
Maqtoviga poyon yo'q, yetuk barkamol,
So'lim Samarqand!

* * *

Ko'zlaringdan o'rgulay, qarab qo'y qiyo,
Ko'zlaring chaqiniga juda xumormen.

Ko‘zlarim ko‘zlaringdan oladi ziyo,
Ko‘zlaringga mahliyo, ziyoga zormen.

Ko‘zlaringdan o‘rgulay, jilmaygin pinhon,
O‘shandoq sho‘x boqishga o‘lguncha bormen.
Ko‘zlaringda mehr-u ishq lovullar ayon,
Jilmaygin, jilmaymasang chekkum ozor men.

* * *

Butun olam jamoli qizlar jilmayishida,
Nozik adolarida,
Yurtim ko‘klamlarida, yozlarida, qishida,
Yangroq sadolarida.

Majnuntol egilishi, hayo-yu tortinchoqlik
Qay el, qaysi jahondan?
Soylarga sir aytishi va sirga topinchoqlik
Timsolmi qizlarjondan?

Qizlarjon, hoy qizlarjon, nozik adongiz yaxshi,
Shaddod ham bo‘lsangiz-chi!
Qizlarjon, hoy qizlarjon, sharm-u hayongiz yaxshi,
Bedod ham bo‘lsangiz-chi!

Butun olam jamoli qizlar jilmayishida,
Nozik adolarida.
Yurtim ko‘klamlarida, yozlarida, qishida,
Yangroq sadolarida.

* * *

Soylarga tikilsam, ko‘zim yoshlanur,
Jarlarga egilsam — aylanur boshim.
Tong chog‘ida bunda hayot boshlanur,
Dalada paxtachi jami yurtdoshim.

Uvatda chuchmo‘ma, cho‘nqirda qoqi,
Ariq bo‘ylarida hushbo‘y to‘p yalpiz.
Ona tabiatda har zarra boqiy,
Ona tabiatga qoyilman yolg‘iz.

Shudringlarda quyosh sho‘x-u jilvagar,
Qushlar navosida jaranglar armon.
Sadadan nariroq bir asov dilbar,
Qarashlari xanjar kabi beomon.

Hammasi jilmayar menga yo‘llarda,
She’rlarimda yangrar baxtiyorligim.
Baxt — yashil cho‘llarda, qadoq qo‘llarda,
Baxt — xalqimga fido, barqarorligim...

QISHLOG‘IM

Qishlog‘im, nechog‘lik suluvsan bugun,
Yashilga burkanib, yashnabsan shuncha.
Nechog‘lik to‘kissan, nechog‘lik to‘kin,
Meni o‘rab oldi xayol, tushuncha:

Qay qo‘raga kirsang — eshigi ochiq,
Bir nima tatiysan, qo‘ymas aslo och.
Qoraqumg‘on qaynar, yozilur chochiq,
Zog‘orami, so‘kmi, yovg‘on yo umoch.
Borini ayamas, barini qo‘yar,
Yupqami yo go‘ja, tolqon, qo‘g‘irmoch,
Qurutmi yo jiyda — o‘rtaga uyar,
Juda bo‘lmaganda qatig‘-u ko‘moch.
Agar so‘ygan bo‘lsa kecha bo‘rdoqi,
Qozonda qovurdoq, o‘rtada ko‘za.
Danak, qovunqoqi, suzgun ko‘z soqi,
Yo qimiz suzulur, yo achchiq bo‘za.
Agar so‘ygan bo‘lsa uloq yo qo‘zi,
O‘ho‘, no‘xat sho‘rva yoki kulchatoy.
Juda qashshoq bo‘lsa — bor yaxshi so‘zi,
Shundoq yaxshi so‘zki, go‘yo sarimoy.

* * *

...“Yo Ramazon” aytar edik ba’zi kez,
Shom payti, chang-tutun qishloq ko‘chasi,
Pul, oshmi, to‘qoch — olib chiqar tez,
Tonggacha jaranglar oydin kechasi.
Kelin yo‘lin to‘sib machit oldida,
Aylanishar edik yoqib alanga.
Hammasi qolarkan go‘dak yodida,

Boshdan sochilguvchi turshag-u tanga.
Qish kuni to‘y-u bazm yo yayov uloq,
Yo nargi qishloqdan nogahon qorxat.
Esimda go‘daklik — unutilmas choq,
O‘sha kunlarimdan qalbimda bor xat...
Qishlog‘im, tag‘in ham suluvsan bugun,
Tag‘in ham suyuksan, mening ardoqlim.
Nechog‘lik to‘kissan, nechog‘lik to‘kin,
Dunyo turguncha tur, qo‘li qadoqlim.

ALYOR TAG‘IN

Davraga kel, bobo dehqon,
Ko‘ksi yoldor alp paxtakor,
Yil ichida, bir kun kammas,
O‘n ikki oy mehnating bor;
Kunduz to‘kib manglaydan ter,
Ba’zan o‘tar tun ham bedor,
Har tup g‘o‘za, har chanoqda,
Ko‘zda nur-u mehring oshkor.

Davraga kel, muhandis, hey,
Davraga kel, mashinasoz.
Kel, hey Chirchiq kimyogari,
Sening hissang emas hech oz.
Keling, aziz allomalar,
Toshkent nav’i topmish ustoz,
Keksa suvchi, tuproqshunos,
Sho‘x davraga kelgin, shovvoz.

Shoyimardon, bu yil ham sen,
Darg‘alarga yalovbardor,
Yalovbardor, mardonavor,
Tanti sarkor va sohibkor.
To‘lqin urgan oq ko‘pikli
Dengizdagi kemang zangor,
Kemalarki, hikmati bor,
Qudrati bor — mo‘jizakor.

Zap munosib oq cho‘qqilar,
Yil boshidek soz ayyomga.
Yilga peshvoz, qaddi chinor,
O‘zbek degan yorqin nomga.

Beli bog‘liq, jomakorlik,
Ming-ming To‘lan, Gulandomga,
Ranjimagin, xushbaxt soqiy,
Qo‘l uzatsak tag‘in jomga...

Topilgaymi oq momiqni
O‘ylamagan biron kishi,
Paxta ishi — ishchining ham,
Nonvoyning ham o‘rta ishi.
Paxtamizda baxtimizning
Tonglar yanglig‘ jilmayishi,
Paxtamizda jumhuriyat
Qudrati-yu ulg‘ayishi...

Alp va tanti jumhuriyat,
Baraka top, noning halol,
Noning halol, ayshing halol,
Halolliging senga kamol.
Azamatsan, vallomatsan,
Himmating ham daryo misol,
Shu cho‘qqilar uyuldi-ku,
Zarra-zarra, misqol-misqol.

Cho‘l demangiz, Sirdaryo bu —
O‘zi hozir bepoyon yurt,
Bepoyon yurt, yashil diyor,
Bag‘ri tig‘iz barakat-qut.
Xazinalik, dafinalik,
Ertasidek cho‘ng, baxti but,
Sho‘r tuprog‘-u qo‘r tuproq bu —
Ko‘zingga surt, ko‘zingga surt.

Qashqadaryo bo‘zlarida,
Oq xirmonlar — ipak tola,
Ipak nesi, oq bulut-ku,
Bulut nesi, oq shalola.

Omon bo‘lsin To‘lg‘ano-yu,
Tunuqbibi, Oykamola,
Jamoliga olam hayron,
Olam xumor, olam vola.

Jumhuriyat jamoliga
Men ham vola, men ham xumor,
Tuprog‘idan chimdim olib,
Taqsam bo‘lur go‘yo tumor.
Dunyoda o‘z tuprog‘ida,
O‘zgalarday yurganlar bor,
O‘z tuprog‘im, o‘z tuprog‘im —
O‘z davlatim — qutlug‘, poydor...

Bir-biridan go‘zal, tansiq
Samarqand bu, Farg‘ona bu,
Xorazm bu, Buxoro bu —
Asriy, o‘lmas tarona bu.
Surxondaryo, Namangan bu,
Andijondek mardona bu,
Maqtanishmas, qishday oppoq
Baxt o‘lani — shukrona bu.

Larza solsin qo‘sh nog‘ora,
Karnaylar ham yakbor tag‘in,
Jarang bersin gulyor tag‘in,
Childirma-yu chiltor tag‘in.
Davralarda qanot yozsin,
Sarvinozlar qator tag‘in.
Bayram axir, alyor tag‘in,
Alyor tag‘in, alyor tag‘in!

KO‘NGLIM

Ko‘nglim na yoqutda, na feruzada,
Na shirin sharob-u achchiq bo‘zada.
Ko‘nglim — manglay terim, dunyoday dalam,
Quyosh arzandasi — yashil g‘o‘zada.

O‘sha — barqim, mulkim, g‘aznam, boyligim,
Shunda raso bo‘ldi qaddi yoyligim.
Dilda tog‘day faxr-u ko‘zda yorqinlik,
O‘sha sahovatda toshqin soyligim.

Keling, yashil dunyo — dalamni ko‘ring,
To‘kisimni ko‘ring, chalamni ko‘ring.
Quvonchim, suyanchim — jumhuriyatim,
Koshonamni ko‘ring, chaylamni ko‘ring.

Olamga dovrug‘-ku beozorligim,
Paytida ayovsiz ham g‘addorligim.
Qadimiy va sodda mo‘jizakormen,
Olamni ko‘rki-ku paxtakorligim...

Ko‘nglim na olmosda, na feruzada,
Na shirin sharob-u achchiq bo‘zada.
Ko‘nglim — manglay terim — dunyoday dalam
Kuzgi oq cho‘qqilar — yashil g‘o‘zada.

MENLIGIM

G‘ozg‘onda kamalak yanglig‘ marmarman,
Hali sayqali yo‘q g‘o‘dir gavharman.
Toshchiman, kimyogar, o‘zim alloma,
Hayot ildiziman, shifo, javharman.

O‘zim chiroqchiman va mashinasoz,
Shaddod chavandozman ham toymas dorboz.
Cho‘ponman-cho‘luqman, o‘tarman yaylov,
O‘zim talabaman va o‘zim ustoz.

Men o‘zim Muruntov — qumman, oltinman,
Buxoro bag‘rida yashil yolqinman.
Tokzorman Andijon adirlarida,
Jayhun o‘zanida loyqa oqinman.

O‘zim saratonman, mo‘l-ko‘l kuzakman,
Yashil gumbazman-u, yorqin bezakman.
Men o‘zim cho‘ng naqqosh, o‘zim binokor,
O‘zanman, oqinman, qo‘rman, o‘zakman.

Men bahoriy cho‘lda yuz rang chechakman,
Soy bo‘yi — tutzorman, yashil ertakman.
Men cheksiz bog‘-u rog‘, bol oqar poliz,
Tepa-tepa pilla, toy-toy ipakman.

Meni tor hovlimdan izlashlik abas,
Menga yo‘ldosh bo‘lmas notanti, nokas.
Men yangi daryoman qadimiy cho‘lda,
Qonib-qonib ho‘plang, qatram qolsa bas.

Men ko‘zlar ilg‘amas ko‘k ekinzorman,
Mehnat bilan borman, baxtimga yorman,

Qo‘limdan kelmagan hunar, san’at kam,
Almisoqdan o‘sha cho‘ng paxtakorman.

Men o‘zim zamonman, tugal davronman,
Dev yo pari emas, oddiy insonman.
Yuzdan birin aytdim, maqtanish emas,
Qisqasi, men o‘sha O‘zbekistonman.

* * *

Ka’bamsan, she’riyat, ezgu ehromim,
Og‘u ham bol to‘liq bebaho jomim.
Amalim va ishqim, umid-u armon,
Uyqusiz tunlarim — jindak ilhomim...

Kerakmas inju ham sensiz, haqiq ham,
Kerakmas shaddod ham sensiz, daqiq ham,
Hayot ham men uchun sensiz bema’ni,
Sensiz o‘tmasin-da hatto daqiqam.

ONAGINAM

... Ona bag‘rin qo‘msab o‘tdi go‘daklik,
Taqdir olib ketmish edi yiroqqa.
Goh o‘ksuklik, gohi sho‘xlik, tentaklik,
Tag‘in bir yoz qaytib keldim qishloqqa.

Ne ko‘rayin? Ketmon yotur zang bosib,
Sopi siniq, qarab bo‘lmas o‘roqqa.
Og‘il, chetan, quduq boshi chang bosib,
Onam sho‘rlik o‘xshar jonli qurchoqqa.

Ko‘z yoshini artib ro‘mol uchida,
Manglayimdan o‘pib, tutar so‘roqqa.
Singlim ko‘zi milt-milt, hovli burchida,
Hovli o‘xshar hozir yuz bir quroqqa.

“Ko‘z oydin!” deb olis-yaqin kelishar:
“Kelding chog‘i tag‘in to‘rt kun qo‘noqqa?”
Vaqt tig‘iz-da, bular qaydan bilishar,
Biri uyga, biri chorlar ovloqqa.

“Tulpor to‘g‘ri chortoq tomon choparmish,
Sen ham axir chopib kelgung chortoqqa.
Ot aylanib, qozig‘ini toparmish,
Sen ham axir topib kelgung shu yoqqa...”.

Biri u der, biri bu der, xushvaqtlik,
Sakrab ketgum kelar o‘xshab tayloqqa.
Yaxshi tilak, yaxshi orzu, xushbaxtlik,
Mayli, borsam borib kelay yayloqqa.

Vaqt tig‘iz-ku, lekin ancha turgim bor.
Tag‘in tushgum, qaydam, qanday so‘qmoqqa.

Onaginam ko‘z oldida yurgim bor.
Ketmam, to‘lqin irg‘itganday qirg‘oqqa.

Tong otmayin o‘roqni ham soplagum,
Ketmonni ham duch qilgayman qayroqqa.
Loy qilaman, loyga somon qoplagum,
Erta bilan do‘stlar kelur shuvoqqa.

Qaydan bilsin ne savdolik yosh boshim,
Ona qalbi o‘xshar oydin buloqqa.
Xayollarda sovib qolar so‘k oshim...

* * *

Onaginam o‘tin qalar o‘choqqa...

TUSHMASIN

Qo‘shiq

Qizil gul bargiga hech qor tushmasin,
Alamli boshga ham ozor tushmasin.

Yashil cho‘qqisidan olqor tushmasin,
Tor yo‘lda to‘satdan devor tushmasin.

Suygulik suymasga zinhor tushmasin,
Nogoh hakamlikka beor tushmasin.

Yo‘lda yo‘ldoshlikka badkor tushmasin,
Hech kishi yurtidan kanor tushmasin.

Sodda, soz suhbatga ayyor tushmasin,
Nima tushsa-tushsin, diyor tushmasin!

* * *

Yulduzlarday yorqin ko‘zlaringiz bor,
Yarqiray bersin, ha, to xor tushmasin.

Ulfat izlaganda, do‘st izlaganda,
To nokas-u nodon, nochor tushmasin.

Yalchiyman deganda, ko‘langan paytda,
Bir tushgan ko‘rgulik takror tushmasin.

Dunyoda yagona tilagim shuki:
Yaxshi nomingizga g‘ubor tushmasin.

* * *

Qorong‘ulik tushar,
Bag‘rim uvishar,
Tanholikda qayta tug‘ilaman men.
Yorilib ketguday
Tamom yitguday,
Toki tong otguncha bo‘g‘ilaman men.

Ko‘zimga yorug‘lik,
So‘zimga yorug‘lik,
Sog‘ jonga yorug‘lik so‘rayman tongdan.
Armonli yo‘lchiman,
Armonli kuychiman,
Jahonga Yorug‘lik so‘rayman tongdan.

Moskva

TUN BO‘YI

Tun bo‘yi uyqumni oldi qaldiroq,
Derazamda chaqnar chaqmoq nayzasi,
Oppoq sochlarimda o‘rmon nafasi,
Yomg‘irga boqaman beun, bechiroq.

Tun bo‘yi uyqumni oldi qaldiroq.
Yoz oyi bu yurtda yog‘in pallasi,
Qulog‘imda yangrar jala yallasi,
Parcha bulut hatto bunda yog‘oloq.

Saharda so‘qmoqdan o‘taman tanho,
Yuzimga urilar egik butoqlar.
Simob to‘kilganday porlar yaproqlar,
Havoga to‘ymayman — shifokor havo.

Egik butoqlarni silkib qo‘yaman,
Shoda-shoda sachrar asl dur go‘yo,
Durmas, qatra-qatra yashil nur go‘yo,
Yashil go‘zallikka qachon to‘yaman?

Moskva

IZZALIK

Tong otar. Yorishar o‘rmonda izlar.
Shudringli so‘qmoqdan yurib qolaman.
Ko‘rinsa o‘zimday sayoq, yolg‘izlar,
O‘sha zum yo‘limni burib qolaman.

So‘qmoq olib chiqar yashil sayhonga,
Ko‘zlarim to‘rt bo‘lib, kutaman besabr.
Ko‘z tikaman go‘yo butun jahonga,
O‘ylab ham ko‘rmaysan — bu qandaqa jabr.

O‘ylab ham ko‘rmaysan — sening kelishing,
Bir nafas kelishing — armonim axir.
Olisdan epkinday sarin yelishing,
Tong kabi kulishing — armonim axir.

Shudringlarda chaqnar shu’lalar raqsi...
Surundim, to‘ngakka duch bo‘ldi tizza.
Kelmading-ku bu gal... akslikning aksi...
Izzaman, izzaman, izzaman, izza...

Moskva

CHIRILDOQ

Chirildoq chirillar... yel esar na xush!
Yulduzlar charaqlar, oy o‘n besh kunlik.
Kecha ko‘p sehrgar, kecha tugunlik.
Chirildoq chirillar...
Holbuki, keng olam hozir ko‘rar tush...

* * *

Meni chulg‘ab olar jimlik, beunlik,
Yolg‘izlikda yurak o‘tlik, to‘lqinlik,
Cheksiz xayolot ham uchar go‘yo qush.
Bu olamda bormi o‘zi turg‘unlik,
Unda norasolik, bunda to‘lg‘inlik,
Bir yonda mudroqlik, bir yonda xurush,
Bir yonda quvnoqlik, bir taraf xomush,
Bir yonda yorqinlik, bir yon so‘lg‘inlik,
Mag‘zini chaqqanda ketar aql-u hush.
Istardim olamdan o‘tsa dilxunlik,
Istardim olamda faqat gulgunlik!
Chirildoq chirillar...
Holbuki, keng olam hozir ko‘rar tush.

Moskva

SEHR

Oqshom salqini tushar,
Nay navosi taralur.
Nay avjida sehrgar
O‘zga olam yaralur.
Sehrli manzaralar
Ko‘rinur u olamdan.
Daralar, sharsharalar
Ko‘rinur u olamdan.
Qorli tog‘ siynasida
Sharqiroq soy ko‘rinur,
Chinorlar tepasida
Yarqiroq oy ko‘rinur.
To‘lin oy shu’lasida
Oydek yorqin oq qoya,
Chinor ko‘lankasida
Kimni kutar toq soya?
Soy bo‘yida shu asov
Soy singari beqaror,
Yo‘lga tikilar birov,
Yoniq ko‘zlar kimga zor?
Oy ohista yuzmoqda
Tagsiz moviy samoda,
Shundog‘am sehri bo‘y bor
Shabadalik havoda.
Intiq yurakday titrar
Ko‘k chinorda har yaproq,
Hamon sharpasiz va bo‘sh
Sirli tun, sirli so‘qmoq.
To‘lin oy shu’lasida
Oydek yorqin oq qoya.
Chinor ko‘lankasida
Hanuz o‘sha toq soya.

Tong yaqin. Hulkar yanglig‘
Yarqirab kelur sanam,
Visol damlari misol
Jannat bo‘lmas chindanam...
Nay navosi taralur,
Nay navosi taralur,
Nay avjida xotirot —
O‘zga olam yaralur.

JUJUN

Bisotimda jujun ust-bosh
bor edi sal eskiroq,
Yoz oylari qayg‘a bormay,
yo‘ldosh edi u biroq.
Jomadonim burchagida
borar edi buklog‘lik,
Toza, pishiq. Lekin o‘zi
sal yamoqlik, sal dog‘lik.
Siyliq edi Marg‘ilonda
yangi cheklik bir qizdan,
Qiz bo‘lganda hali-hanuz
yuragimda sir qizdan.
Saratonda kiyar edim,
salqin edi va yengil,
Jujun yanglig‘ huzurbaxshmas
yoz oylari hech engil.
Oqshomlari soy bo‘yida
shudring qo‘nmas — movutdek,
Tush chog‘ida salqinligi
yel yalagan sovutdek.

* * *

Sen so‘rading: “Nega to‘zmas,
cho‘zim yanglig‘, ne sabab?”
Javob izlab, tutildim men:
— Nega, derdim, — vo ajab!
O‘ylab qoldim, esga tushdi,
Mingsuluvday pillakash,
Mingsuluvdek suluv qayda,
suluv gapmi, parivash!

To‘pig‘iga tushar sochi,
o‘ylamangki qilvir soch.
Qora qo‘ng‘ir qirq o‘rim soch,
chambarak soch, chilvir soch.
Ko‘zlariga o‘xshash bo‘lmas,
bo‘tako‘zlik, tolma bel,
Qamish bo‘yli, bug‘doy rangli,
sho‘x va quvnoq xuddi yel.
Qishloq qizi, tengdoshlari
o‘rtasida sodda qiz,
Soddalikdan butun ko‘rki
chizilgandek yodda qiz.
Esga tushdi shu go‘zalning
pilla qurti tutgani
Ko‘klam, hamma o‘ynar chog‘da
uning zardob yutgani.
So‘rilarda vishillashar.
Tegmasin sal sovuq deb,
Yo sayoq yel, yo qaynoq yel
kelmasin hech yovuq deb,
Balodan-u, yomon ko‘zdan
saqlar xuddi chaqaloq.
Barg kesishar, bargsiz qolib
tutzorlar ham baqaloq.
Bir mehnatki, zarshunoslik...
Taqdiriga xayol band,
Sog‘ va hushyor bo‘lmasa qiz
nogahoniy yegay pand.
Har kun, har kun, har kun shundoq
Mingsuluv barg to‘kar, barg,
Har kun, har kun, har kun shundoq
barg to‘kishni etmas tark.
Har kun, har kun, har kun shundoq:
“Bo‘lmasin, — der, — juvonmarg”,
Har kun, pilla so‘rilarin
qo‘riqlar qiz go‘yo ark...

Kunlar o‘tar, jonivorlar
to‘qiy boshlar pillalar.
Dona-dona butov nuqra,
ko‘z olur oq tillalar.
Oq tillalar o‘ralguncha
o‘tar go‘yo chillalar,
Oq pillalar o‘ralguncha
quriydi ne sillalar...
Yayrab-yayrab pilla yig‘ar
so‘rilarda Mingsuluv,
Besh qiz — esh qiz, ba’zan nozli,
ba’zan tantiq, ba’zan quv.
Mingsuluv ham go‘yo sehriy
bir saltanat bekasi,
Shundog‘am bir saltanatki,
ko‘rinmaydi chekkasi.
Oq, yarqiroq tolalardan
aylanguncha urchuqlar,
Yuzga toshar sepkillar-u,
labga toshar uchuqlar.
Ipak deb nom oldimi, bas,
to‘qiladi yuz mato,
Ne mushkulni oson etar,
desam agar bexato.
Ko‘k yuzidan tushguvchiga
soyabon-u oq chodir,
Qamish bo‘ylik suluvlarga
ipak qanday ravodir...

* * *

Yechilmoqda ne-ne chigil,
ne-ne jumboq, ne tugun,
...Muruntovlik tog‘-tog‘ qumdan
elab olur zar bugun,

Konchi yigit yer qa'rida
qurch qoyalar o'ysa gar,
Yoki olov yallug'ida
tinmay po'lat quysa gar,
To'rt fasl ham kamarbasta,
xirmon uyar paxtakor.
Bu dunyoda bir-biridan
dushvor ne-ne zahmat bor.
G'allakorning zahmati ham,
oq soqollik bog'bon ham,
Izg'irinda, samumlarda
tanti og'a cho'pon ham,
Insonga deb, shu elga deb
yaratar qut mo'ldan-mo'l,
O'zga biri yer ostida
qurar saroy, qurar yo'l.
Ajib kumush nuqralardan
xirmon uyar suluvlar,
Elga siyliq mehnatim deb,
elni suyar suluvlar.
Ha, aytmoqchi, shu ipakdan
to'qiladi jujun ham,
Har kiyganda dildan deyman:
pillakash, hech bo'lma kam!

BETOBLIGIMDA

Majnuntol tagiga o‘tqazing meni,
Qovrilmay g‘ashlik alangasida,
Majnuntol tagiga o‘tqazing meni,
Nafasimni rostlay ko‘lankasida.

Majnuntol tagiga o‘tqazing meni,
Qushlar ovoziga quloq solayin.
Majnuntol tagiga o‘tqazing meni,
Xayol og‘ushida orom olayin.

Majnuntol tagiga o‘tqazing meni,
Shu kungacha o‘zni men cheklab bo‘ldim.
Majnuntol tagiga o‘tqazing meni,
Men uchun yig‘lasin, men yig‘lab bo‘ldim.

ACHA

Ko‘zlarim o‘ngida u yashil oshyon
Dala o‘rtasida keng, dong‘il ayvon.
Ayvon aylanasi — qalin qoratol,
Tinib-tinchimaydi so‘lg‘in bir ayol,
Ko‘zlarin olmaydi go‘dak jonlardan,
Uyqusi notinchroq buvak jonlardan:
Tetikrog‘i ham bor, quvnoqrog‘i ham.
O‘jar va yig‘loqi, chatoqrog‘i ham.
Uyqu og‘ushida hozir barchasi,
Parvonadek gir-gir yolg‘iz achasi.
Sal o‘tmay uyg‘onur, vaqt ham bo‘lur ziq,
Yo‘qolur ishtaha, choyga ham beiq
Ulgurmas, birining usti raso ho‘l,
Biri sal qing‘irroq, qiyg‘iligi mo‘l,
Bittasi emaklar — hovuz tomon yo‘l...
Bitta o‘zi, axir, ulgurmas qo‘sh qo‘l.
Biriga sut tutar, u biriga suv,
O‘zgasi qo‘liga shirin kulchalar.
Bunisi, yopiray, go‘daklikdan quv,
Arzanda qizaloq va o‘g‘ilchalar.
O‘yinchoq talashar ham uymalashar,
Yulishar, yig‘lashar va o‘rmalashar.
Horg‘inlik chang solur — bitta o‘zida,
Duv-duv yosh mo‘ltirar ikki ko‘zida.
Ba’zan olib qochar chuvalgur xayol,
Lekin tutib olar o‘zini ayol.
Onalar bu mahal to‘kishadi ter,
Manglay terlaridan ho‘l go‘yoki yer.
Onalar taralib dala yuziga,
Dalani rom etur mehnat so‘ziga...
Onalar izmiga agregat yurar,

Ketmoni shashtidan suv javlon urar,
Onalar qo‘lidan kelmas hunar kam,
Ne-ne mushkulot ham shularga qaram.
Suluv, uddaburro, lobar juvonlar,
Ko‘zlar qamashgulik ofati jonlar.
Sal o‘tmay kelishur bir-bir tushlikka,
Go‘dak diydoriga — ko‘ngilxushlikka.
Shoshqin choy ho‘plashar, emizishar, bas,
Og‘ir charchoqlikdan asar ham qolmas...

Bular yegan noni yuz qatla halol,
Halol non hamisha shirinlikda bol.
Tag‘in tarqalishar, ja tig‘iz palla,
Tag‘in ayol yolg‘iz — qo‘shiq yo alla...

To oqshom tushguncha tinchligi yo‘q hech,
Dalachilar doim qaytishadi kech.
Ayol ko‘z uzmaydi murg‘ak jonlardan,
Jonon go‘daklardan, buvak jonlardan:
“Boshlaring toshlardan bo‘lsin” der acha,
Acha uchun bari bir quyosh parcha!

Bular ona yurtning erkalari-da,
Bular ertagi kun egalari-da!

TO‘Y

....To‘y bor edi Sirdaryoning qirg‘og‘ida,
Jarangdor kuz, kech oltin kuz quchog‘ida.
To‘y bor edi — quvnar yuz el, dillar ham sel
Yang‘irog‘i olis sahro puchmog‘ida.

Kelishardi yaqin-yiroq yasov-yasov,
Mashinalar yelday uchqur, otlar asov.
Kelishardi to‘p-to‘p do‘st-yor, og‘a-ini,
Gurillardi o‘choqlarda jonon olov.

Turkman shunda, sho‘x va hurkak ohular ham,
Arman shunda, Qof tog‘idan jodular ham,
Ozar shunda, belorus bor, gurji, latish,
Qorategin, Oltoydan ne bonular ham.

Soz-u suhbat, sho‘x qahqaha go‘yo kaklik,
Oq qalpoqlik, baxmal do‘ppi, sur telpaklik.
Chakanamas — bemisol bazm, shohona bazm,
Dosh qozonlik, qatlamalik va chalpaklik.

Cho‘l bag‘rida poyga, uloq chopish avjda,
Biri-birini izlab, yo‘qlab topish avjda.
Dasturxonlar to‘kis-to‘kin, olma-anor,
Sovringa ot yo baxmal to‘n yopish avjda.

Tinmas edi sho‘x maqom-u quvnoq suron,
Nog‘oralar navosida esar bo‘ron.
Yorti asr — zafaryob yil, shon serob yil,
Bundaqa to‘y ko‘rganmas hech qadim Turon.

Hazil emas — to‘rt million-u yetti yuz ming...
Eng ashaddiy kunchi hatto deyolmas g‘ing.

Qo‘sh dovondan balandroqda o‘zbek bu yil,
Yuz hasanot! — desam agar, demang: miljing.

Tizma tog‘dek cho‘qqi-cho‘qqi xirmon shu-da.
Don shu. Non shu. Oltin yukli karvon shu-da.
Afsona shu, yorug‘ tush shu va haqiqat,
Yuz bir elga mansub, devkor inson shu-da.

O‘rtoqlik shu, ming buloq mehr dengizi shu,
Inoqlik shu, baxt-u omad egizi shu.
Yuzga tatir yorti asrda o‘tilgan yo‘l,
Yangi yil-u yangi asr negizi shu.

Aziz do‘stlik, cho‘ng suyanchim o‘zing axir,
O‘qraysa kim — kuni qora, noni taxir.
Alp Vatanim, vatandoshlik tuyg‘um toshqin,
Sen g‘ururim, sen sharafim, tengsiz faxr.

Qor yog‘moqda, olam oqqa chulg‘anmoqchi,
Olam bahor to‘lg‘og‘ida to‘lg‘anmoqchi.
Yetmish uch ham cho‘ng yil bo‘lar, sarbaland yil,
Alyor yurtim, to‘y-to‘ylarga ulanmoqchi...

CHAQMOQ

Ko‘zim ko‘zingga tushdi, chaqmoq chaqqandek bo‘ldi,
Uchquni dilga qo‘nib, olov yoqqandek bo‘ldi.
Ko‘zim ko‘zingga tushdi, yarqirab ketdi ko‘zim,
Nainki faqat ko‘zim, yarqirab ketdim o‘zim.

Bir olov tushdi nogoh o‘zligim — o‘zagimga,
Bir olov tushdi nogoh yozimga, kuzagimga.
Bir zumda o‘rtamoqchi, bir zumda qovurmoqchi,
Tutunday uchirmoqchi, kul kabi sovurmoqchi.
Oh, u ko‘zlar chaqmog‘i.

Shunchalar omonsizmi bir lahzalik boqmog‘i?
Yo‘q, meni kuydirmagil. Yo‘q, meni yondirmagil,
Sevgidan tondirmagil, g‘azaldan tondirmagil,
Ko‘zimga yog‘du baxsh et, dilimga yog‘du baxsh et,
Toki baxt bo‘lmasin chet.

* * *

Ko‘zim ko‘zingga tushdi, men yonaman shekillik,
Devonaman shekillik, to‘lg‘onaman shekillik.
Yonmasdan ilojim yo‘q, o‘t tushdi shirin jonga,
O‘t tushmasaydi faqat nogoh cheksiz jahonga...

CHIMILDIQ

Pitpildiq... pitpildiq...

* * *

To‘rg‘aylarning navosidan yayrar dasht,
Maynalarning o‘lanida o‘zga gasht,
Yuraklarni zir titratar bulbul ham,
Oshiqona, sho‘x biram...
Bedazorlar qo‘shiqchisi bedana,
To sahardan sayrashligi nedan-a?
Bedazorda bir damlik vasl izlashur,
O‘z tilida senlashur yo sizlashur.
Tabiatning o‘z ertagi, jumbog‘i,
Har jondorning o‘z ishqi, o‘z do‘mbog‘i,
Bir-birini izlar shaydo ikki jon,
Zig‘irdak jon, shaydoligi bir jahon.
Sayrab-sayrab topishar suv bo‘yida,
Ko‘klamning ham ko‘kalamzor to‘yida.
Mana hozir quvalashur, cho‘qishur.
Yumalashur, yana o‘lan to‘qishur.
Tabiatning o‘z shevasi, hikmati,
O‘z udumi, topqirligi, dastxati,
Oq hovurdan tutar harir chimildiq...

* * *

Pitpildiq.... pitpildiq...

BIR KEZ...

Bir kez qo‘shiq yangrar edi
Eshigimda sho‘x va shodon,
Quvnar edi, yayrar edi
Talay eslik, talay nodon.

Tovlanardi gulzorimda
Gul deganing turlik-turlik,
Qo‘shiqlardan va gullardan
Hovlim edi g‘oyat nurlik.
Men yurardim gul butabmi,
Yo bir nima yo‘nib-kertib,
Kelishardi olis-yaqin,
Do‘st-u yoron eshik chertib.
Sen ketding-u yangroq sahnim,
Befayz, benur, bo‘shab qoldi.
Kelgin... hovlim Afrosiyob
Yo O‘trorga o‘xshab qoldi.

KO‘L YOQALAB

“Turkman daftari”dan

Sening taqdiring — naq mening taqdirim,
Sening tasviring — naq mening tasvirim,
Turkman do‘g‘onim, hey turkman do‘g‘onim,
Sening tadbiring — naq mening tadbirim...

Faqat chigirtkalar chirillashimas,
Yoki sur sirtlonlar irillashimas,
Yoki quzg‘unlarning pirillashimas,
Ilon, kaltakesak zirillashimas,
Gala-gala kelur sayroq qushlar ham,
Quvlashur, o‘ynashur, sayrashur chah-chah,
Hali yangragusi sho‘x, shodon qah-qah,
Bo‘ron ham odamga bo‘lgusi qaram.
Keng osmon aksi bor moviy mavjlarda,
Yolqin yel qochmoqda qanoti sinib,
Baliqlar raqsi bor moviy mavjlarda,
Ko‘p o‘tmay, ko‘l tinib, moviy suv tinib,
Yashillik qo‘ynida sayr etar inson,
Asriy murodga ham tez yetar inson.

* * *

Turkman do‘g‘onim, hey turkman do‘g‘onim!

BUQABULOQ

Saratonda tashna bo‘ldim,
Yorilguday g‘ashga to‘ldim,
Qo‘nuq topmay besaranjom,
Izlar edim jindak orom.
Qani, — derdim, — yashil go‘sha,
Tog‘ quchog‘i, asil go‘sha?
Qani o‘sha Buqabuloq,
Tog‘ husniga uqa buloq,
O‘sha dara, o‘sha yozloq,
So‘qmog‘i mo‘l o‘sha sozloq,
Ming xil ko‘kat, yuz rang chechak,
Oqish, ko‘kish, bo‘zrang pechak,
O‘sha cho‘pon va yilqichi,
O‘sha salqin dara ichi,
O‘sha zarang, o‘sha qimiz,
Xushta’m, qo‘sha-qo‘sha qimiz.

Chinor tagi — ko‘k koshona,
Davra xushvaqt va shohona.
Sodda gurung, sodda kulgu,
Eltar go‘yo boda kulgu...
Xarsang kursi, xarsang bolish,
Shaydo bulbul qilur nolish,
Sahardan to oqshom sayrar.
Nahotki beorom sayrar.
Epkin esar, toza havo,
To‘rg‘ay boshlar so‘ngsiz navo,
Burgut uchar olis-olis,
Olqor ayg‘oq, tik va xolis,
Buqabuloq, Buqabuloq,
Qo‘shiqchisan sho‘x va quvnoq.

Qo‘sh tegirmon ko‘k suving bor,
Ham shifoli, ham beg‘ubor.
Sarinligi go‘yoki qor,
Ham nozlidir, ham jilvakor...
Baliqlari sho‘x va qochoq,
O‘ynashurlar bekinmachoq...
Tog‘ ustiga mingashgan tog‘,
Tog‘ ustiga engashgan tog‘,
Quyosh kulur, ayni tushlik,
Qorayadi bir zum bo‘shliq,
Ko‘kni bulut olalaydi,
Emish bo‘ri bolalaydi.

* * *

Qani, dangal uchsam hozir,
Havolarni quchsam hozir,
Birga uchsa do‘st va yoron,
Uzoqmas u salqin sayhon.
Jindak orom olsak, qani,
Suv bo‘yida qolsak, qani...
Buqabuloq, Buqabuloq,
Ko‘rmagandim senday suvloq...
Qani o‘sha yashil go‘sha,
O‘sha, o‘sha, o‘sha, o‘sha!

Sirdaryo, Balandchaqir qishlog‘i

BU O‘SHA...

Bu — o‘sha mehnatkash dehqon qaylig‘i,
Terimchi, pazanda, beshik: ko‘zmunchoq,
Jami barnolarning eng chiroyligi,
Qo‘li gul, uquvlik, dilbar, urinchoq.
Ortmoqda kosalar, o‘chog‘ida non,
Bir nima jizg‘irar, nedir qo‘g‘urar.
Jizg‘iriq. Izg‘iriq. Chilla. Saraton...
Traktordan tushib xamir yo‘g‘irar.
Qalov-qalov ko‘rpa, namat va kigiz,
Qaznoqlik, chartoqlik, qo‘li qadoqlik.
Hovli to‘la go‘dak — har yili egiz,
Umri shunday gashtlik, o‘zi ardoqlik.
Qo‘noqsiz kuni kam. To‘shalmish sholcha,
Dasturxon yozug‘lik, bor-yo‘g‘in to‘kar.
Barin uhdasidan chiqar ayolcha,
Hulkar tuqqanida ohista cho‘kar.

Bu — o‘sha mehnatkash dehqon qaylig‘i.

* * *

Tun sukuti cho‘kmish zilol havoga,
Somon yo‘li ko‘prik solmish daryoga.

Yorug‘ yulduzlardan yog‘iladi sir,
G‘o‘zalar betinim, uzilmas pichir...

Sadalar tagida soyalar uzun,
To‘sat sho‘x qo‘shiqdan yangrab ketar tun.

Bizning jonona ham taratmoqda suv,
Ajib bir manzara yaratmoqda suv.

Jo‘yaklarda o‘yin tushar yulduzlar,
Yog‘dudan yaralmish go‘yo kunduzlar...

Suv taratib, qo‘shiq aytar jononam,
Quloq solur unga butun Farg‘onam.

QISHLOQDA QISH

Qor qalin, qora sondan,
Muzlamish ariq, zovur.
Havo xira tumandan
Yo burqirar oq hovur.
Tutun o‘rlar ko‘kka tik,
Bug‘ taralur targ‘ildan.
Chumchuqlar sakrar dik-dik,
Pana izlar og‘ildan...
Jar tagi, pastqam joyda
Qarg‘alar bazmi baravj.
Kechasi, to‘lin oyda
Jimirlaydi nuqra mavj.
Kechalar shundoq ayoz,
Yo‘l qatqaloq, sirg‘anchiq.
Soy oqar juda sayoz,
Sur bulut kovlar yanchiq.
Oppoq, ko‘z yetmas dala,
Oq cho‘pchak oqar bog‘dan.
Kaklik ham gala-gala
Kechasi tushar tog‘dan.
Qishloq yo‘li qiy-chuv ov,
Kaklik tutishar o‘qsiz.
Kaklik tutishar yayov,
(Esiz, faqat siz yo‘qsiz)
Bo‘ri-bo‘rsiq bu kez och,
Ovloqda yurma yolg‘iz.
Mo‘ljal olur — ko‘z qiyg‘och.

Kimda bo‘lsa qo‘sh og‘iz.
Mol deganing siljimas,
Yopirilishar g‘aramga.
Molchi sho‘rlik tinchimas,
Ko‘z tikadi ko‘klamga.
Qozonlarda sumalak,
Iyagin arta-arta,
Momolar elar elak,
Kulchatoy, qazi-qarta...
Umochlik uylarda ham
Ertakdan boshlanur kech.
Qishlog‘im — onaginam
Ko‘z oldimdan ketmas hech.

* * *

Ko‘klamda, yomg‘ir mo‘l yog‘sa, der edik,
Yomg‘irdan so‘ng yashnar dala ham, do‘ng ham,
Qo‘ziqorin terar go‘dak ham, cho‘ng ham,
Qizg‘aldoq piyozin qazib yer edik.

Podachi to‘rsig‘i — qo‘yning qatig‘i,
Qora qo‘y qatig‘i — o‘g‘izdek quyuq,
Yigitlar yallasi sartopo tuyuq —
Ko‘zlar suzukligi, qoshlar chatig‘i...

Pisandmas, cho‘mardik bo‘tana soyda,
Yo chinor tagida o‘ynardik to‘ptosh.
Topilardi bizga ermak har joyda,
Uyga tarqalardik qorayganda qosh.

Gap ham eshitardik onaizordan.
Onam... Ko‘z o‘ngimda ona qishlog‘im.
Menga suyuk, qimmat ne-ne diyordan,
Olislarda qolding, go‘daklik chog‘im.

O‘ZIM BILAMAN...

Tagorga ergashib...

Qulog‘imda yangrar doim bir nido,
Xo‘rsinaman, ko‘z yoshimni silaman.
Shu nidoga ne sababdan jon fido —
Bitta o‘zim bilaman.

Yuragimda yonar bir o‘t betutun.
Go‘yoki der: qovuraman, tilaman.
Dosh beraman nechun hanuz men beun —
Bitta o‘zim bilaman.

Oylar botar, tonglar otar, umr o‘tar,
Olislarni ko‘zlab-ko‘zlab jilaman.
Mening qalbim kimni kutar, qon yutar —
Bitta o‘zim bilaman.

Kelurmikan ko‘klam yanglig‘ kutganim,
Umidvorman, ishonmay ne qilaman?
Qachon kelur, qandoq u ko‘z tutganim —
Bitta o‘zim bilaman.

IZLAGANIM

Kutishdan g‘oyat toldim,
Umr o‘tdi, charchab qoldim.
Yo‘l yursam-da mo‘l yurib,
Xayol surib, oh urib,
Izlashga tushdim tag‘in,
Tezlashga tushdim tag‘in.
Chertdim dutor, chaldim tor,
Axtardim diyor-diyor...
Cho‘ldan, soylardan o‘tib,
Ovloq joylardan o‘tib,
Qir oshib, tog‘lar oshib,
Necha-necha adashib,
Yetdim izlaganimga,
Yillar ko‘zlaganimga.
Bu visol, tengsiz visol,
Jilmayadi baxt misol,
Izlaganim barisi —
O‘sha ilhom parisi.

ABDULHAQQA AYTGANIM

Tag‘in suratimni chizayotibsiz,
Kim ko‘zidan uchdi, ayting, bu surat?
Bo‘yoq ayamayin bezayotibsiz,
Qaydan bu mavj sizda, qandoq zarurat?
Men-ku ko‘rimsizdan-ko‘rimsiz jonman,
Sochlar to‘kilmoqda, qolmayapti tish.
No‘noqman, to‘pori, yaxlit nuqsonman,
Ovutolmas hozir na yoz, na-da qish...
Xitman o‘z-o‘zimni yulib yegudek,
Daftarlarim yarim, mashqlarim yarim.
Nima to‘qiy oldim elga degulik,
Til uchimda hanuz elga aytarim.
Lekin yoshligidan norozi demang,
Soydek shovulladi sho‘x yigitlik ham.
Yoki sozlarning ham nosozi demang,
O‘tdi she’riy ishq ham, raso itlik ham.
Yumshoq o‘rindiqda o‘tiribman jim,
Sukut og‘ushida men xayol surib.
Bilmaysizki, hozir ko‘z o‘ngimda kim,
Ko‘ngil ko‘zgusida turar barq urib?
Mening suratimni chizarsiz beshak,
Lekin qalb to‘rida o‘sha bir surat.
Dardi yo‘q kesakmish, ishqi yo‘q eshak,
U suratni chizish men-chun zarurat.
Oh, uning surati... tengi kam suluv.
Uning suratini chizolsaydim gar,
Ko‘chaga tushardi ehtimol g‘uluv
Balki tong qolurdi kattakon shahar.
Shahar ne, qo‘zg‘alur edi viloyat,
Balki jumhuriyat tong qolur edi.
Bu — no‘noqligimdan sizga shikoyat,

Balki jahon undan zavq olur edi.
Hali ko‘rganmasman undoq yulduz ko‘z,
Kulgichidan baland yolg‘iz yirik meng,
To‘la tasviriga topolmayman so‘z,
Uning ham sochlari bo‘yi bilan teng.
Ba’zan o‘ychanligi, ba’zan sho‘xligi,
Tengsiz nazokati, alifdek qomat,
Jindek yasamalik, yot rang yo‘qligi,
Jilmayib qo‘yishi biram qiyomat.
Oh, dildagi surat yaqinligi-yey,
G‘o‘rman, to‘poriman — qandoq tizgayman,
Hatto xayoldan ham yorqinligi-yey,
O‘lmasam axiri to‘liq chizgayman.

YORUG‘LIK

...Yorug‘lik yurti bu, tong o‘lkasi bu,
Quyosh bolasiman, desam haqqim bor.
Porloq o‘y, jarang she’r, ong o‘lkasi bu,
Yo‘lim ham, ufqim ham yorqin, shu’lador.

Yorug‘lik limmo-lim erk makonimda,
Hovuchlab ichaman sharsharasidan.
Quyosh uchqunlari qaynoq qonimda,
Men qudrat olaman har zarrasidan.

O‘roq-mashoq payti oltin xirmonim,
Saraton ko‘kida shirmoyi nonim,
Yoz bo‘yi yarqiroq, ezgu osmonim,
Koinot onasi — alp onajonim.

Ko‘klam yashilligi — yuzdan bir rangi,
Anor sharbatida aksi jilvagar.
Qushlar qo‘shig‘i ham quyosh ohangi,
Buloq mavjlarida raqsi jilvagar.

G‘o‘za to‘lqinida mudrar yorug‘i,
Ko‘klar yorug‘ olar oq chanog‘idan.
Tuproqda yashirin olam yallig‘i,
Chanoqlar oqligi nur qaynog‘idan.

Yorug‘ kun yarashiq yorug‘ diyorman,
Mening shu quyoshlik davlatim-da bu.
Tengdoshlar safida men ham devkorman,
Quyoshlik davlatim — mehnatim-da bu.

Yorug‘lik va nurning oq siynasida —
O‘sha suyuk jahon, deganlari rost.
Yorug‘ cho‘qqilarning shoh zinasida
Yorug‘ O‘zbekiston deganlari rost!

* * *

Bosiriq tushday bosib kelur saraton,
Tomirlar ham uvishar,
Tush boshlanmay, yellar sayoq, sargardon,
Olov to‘kib quvishar.
Sal o‘tmayin soya izlar qushlar ham,
Havo qizir tandirdek.
Suv sepsang ham sal o‘tmayin qolmas nam,
Yer qovrilgan chandirdek.
Qum tepalar sal epkinda qimirlar,
Harsillaydi keng jahon,
Olislarda ne-ne sarob jimirlar,
Dam xatarli va yomon.
Quyosh bu payt ko‘k toqida lovullar,
Dala lim-lim ekinzor,
Olovli yel panjasida shovullar...
G‘o‘za chilpir paxtakor...

O‘SMIRLIK

O‘smirlik payt edi, es butun edi,
Tush-tushga chopardim xayol otida.
Xayol otim asov va durkun edi,
Olib uchar edi qo‘sh qanotida.

Bir zumda o‘tardim anov sayhondan,
Oq qoya uchida paydo bo‘lardim.
Bir zumda kechardim qayqi dovondan,
Olislarga boqib, shaydo bo‘lardim.

Jilva qilur edi o‘zga bir jahon,
Menga begonaydi cho‘chish va hadik.
Yashil daralarda kezardim hayron,
Olisroq cho‘qqida alqor turar tik.

Kaklik sayrar edi, ko‘rinmas (quv-da),
Sharqirashdan tinmas sho‘x sharshara ham.
Oq bulut oqardi ko‘pikli suvda,
Ko‘zni qamashtirar yashil dara ham.

Qo‘zilar siljiydi yonbag‘irlardan,
Chang solur g‘aflatda burgut yo orlon...
Yettiko‘l tarafdan, qizg‘ish qirlardan
O‘smirlik izlarim ko‘rinur hamon.

O‘rnida buloq ham, qiyo ham, qir ham,
Tog‘am qo‘rasi ham, soy bo‘yi — sozloq.
O‘rnida so‘qmoq ham, yo‘l ham, taqir ham,
Qor tushguncha ko‘m-ko‘k o‘lanlik yozloq.

Ovloq diyor dema, olis demagin,
Dema: hanuz qoloq go‘sha qishlog‘im.
Tag‘in jilvaliroq, suluvroq tag‘in,
O‘smirligim o‘tgan o‘sha qishlog‘im.

SHAROB

Loladay qirmizi, gul yanglig‘ xushbo‘y,
Tonglar tiniqligi, yoz harorati.
Bog‘bon manglay teri, el mahorati,
O‘zbek sharobisiz to‘y emas-ku, to‘y.
Yetti iqlimda yo‘q, jonbaxsh ezgulik,
Yolg‘iz piyoladan elitganday ro‘yo.
Quyosh otashidan ma’jun bu go‘yo,
Qultumida shifo — jonlar sezgulik...

Ovchi yo o‘rmonchi olis Shimolda,
Qora sovuqlarda tatib ko‘rsin deb,
Tatigandan keyin otib ko‘rsin deb,
Mo‘jiza yaratgan Rizamat chol-da...
Sharobni ho‘plang, uzumini yeng,
Tokdan ona tuproq shirasin olmish,
Jahonga bog‘bonlik dong‘i taralmish —
Yuzlab Rizamatga qalbdan: “Balli!” deng.

Loladay qirmizi, gul yanglig‘ xushbo‘y,
O‘zbek sharobisiz to‘y emas-da, to‘y!

ARMON

Qo‘shiq

Oqshom kiprigingga uyqu qo‘ndirsam,
Sahar ko‘zlaringga kulgu qo‘ndirsam,
Boshingga shafaqdan o‘rasam lachak,
Jig‘asiga nurdan inju qo‘ndirsam.

Ko‘rkingni o‘zing ham ko‘rarding balki,
O‘lmas o‘lanlardan ko‘zgu qo‘ndirsam.
Koshki eritolsam ko‘nglingni toshdek,
Keyin ishq degan bir tuyg‘u qo‘ndirsam.

* * *

Saratonda soyaboning bo‘layin,
Toqqa oshsang, ko‘k dovoning bo‘layin,
Ketma, jonim, ayriliqdan jon bezor,
Yarim kecha kahkashoning bo‘layin.

Ketar bo‘lsang, xazon yog‘ar bog‘imga,
Sanchiq botar dilimdagi dog‘imga.
Ketma, jonim, ayriliqdan jon bezor,
Og‘u sochma mening xushvaqt chog‘imga.

Kerak emas sensiz gul ham, chaman ham,
Kerak emas Qandahor ham, Yaman ham.
Ketma, jonim, ayriliqdan jon bezor,
Kerak emas bo‘z tarlon ham, saman ham.

Pok olamim bulg‘anmasdan jilmaygin,
Olam g‘amga chulg‘anmasdan jilmaygin.
Ketma, jonim, ayriliqdan jon bezor,
Yurak dir-dir to‘lg‘anmasdan jilmaygin.

To tirikman, o‘sha qaysar bolaman,
Na tinim bor, na izlashdan tolaman.
Ketma, jonim, ayriliqdan jon bezor,
Baribir men seni topib olaman.

TUN

Tun beun jilmakda go‘yo sizot suv,
Na chumchuq chirillar, na ko‘kda qiy-chuv.
Ohista-ohista ulashur orom,
Ohista-ohista ulashur uyqu.

Tun cheksiz olamga ochadi og‘ush,
Jimib kuylaganday qo‘shig‘i na xush.
Go‘yoki fusunkor alla aytganday:
“Yaxshi tush ko‘ring, — der, — yaxshi, yorug‘ tush.

Tushda ko‘kka uching, qush bo‘lib uching,
Hijronsiz, armonsiz damlarga ko‘ching.
Sahar ko‘z ochganda tush ham rost bo‘lib,
Izlaganning ro‘yi-rost belidan quching”.

Ohista-ohista ulashib uyqu,
Tun beun kelyapti go‘yo sizot suv.

KO‘K CHOY

Soy bo‘yida salqin choyxona,
Soya solar yuz yillik chinor.
Ajib gashti, ajib fayzi bor,
Shinam, toza, keng-mo‘l, shohona.
Ne-ne gilam yonar go‘yo cho‘g‘,
Xontaxta mo‘l, ko‘rpacha ham mo‘l,
Tarang dutor o‘tar qo‘lma-qo‘l,
Askiya ham ilmoqlik va sho‘x.
Bedanalar biram sayroqi,
To‘rqovoqlar baland so‘rida,
Choy qaynaydi tinmay to‘rida,
Non uzilar gijda, qayroqi.
Savatlarda anvoyi uzum.
Oyna javon — qand-u qandolat,
Ne tusasang — bordek beg‘alat,
Hozir bo‘lur so‘rasang shu zum.
Mastavami, lag‘mon yo kabob,
Qarsillama qovun yo anor,
Zarrasiga zor olamlar bor,
Bir tilimdan sog‘ayar notob.
Yangrab ketar so‘lim tarona:
Arshdek avjda Halima bonu,
Seldek mavjda Halima bonu,
Navoiydan zor oshiqona.
Oshaladi arg‘uvon palov,
Qo‘llarini chayishar chollar,
Cho‘tmas, go‘yo Rustamlar, Zollar,
Ko‘zlarida chaqin va olov.
Aylanadi davralarda choy,
Kumush jarang jonon piyola,
To‘lin oyda fusunkor hol-a,

Chinnisozdan — tiniq bu chiroy.
Soy shovullar, suhbat boshlanur,
Dimoqlarda qandaydir xush is,
Charxlanganday burro hozir his,
Gul mo‘l axir yurt chamanida...
Soy shovullar, suhbat boshlanur,
Suhbatlarning jahon quyug‘i,
Hikmatlarning chandon quyug‘i,
Qahqahadan ko‘zlar yoshlanur.

— “Bir piyola choy bor, yo‘lovchi! —
Der oqsoqol, — kun taftin olur,
Kel, bir ho‘pla, charchoqlik qolur.
Qo‘ychimisan yo sayoq ovchi,
Ol, choy asli savob ichimlik,
Qurigan-ku axir tomog‘ing,
Zirqirashdan chalish oyog‘ing...”.
Yo‘lchi ho‘plar. Bir nafas jimlik.
Choy uzatar chol ham ustma-ust,
Choy uzatar qaytarib-quyib,
Tavozekor, sut kabi uyib,
Yo‘lovchi ham emas uncha sust:
— Qo‘ychimasman, ovchi ham emas,
Tilsimotga yo‘l izlovchiman.
Qum tagidan ko‘l izlovchiman.
— Ho, hunaring qilgulik havas!
Bir gal qayta quysang — soy emish,
Ikkinchi gal hali loy emish,
Uchinchi gal quysang — moy emish,
To‘rtinchi gal asl choy emish.
Men-chi, mehmon, shopirdim o‘n gal,
Ol buni ham! Jilmayar kundek.
Charchoqlik ham tarqab tutundek,
Mizg‘ib olar bejo suvchi sal...
Suvchi hozir sergak solur razm:
Tarqaladi yosh-yalang zumda,

Kun lovullar bo‘z taraf, qumda,
Tugar gurung, bir soatlik bazm.
Choyxonachi yonboshlar behol,
Qo‘li bo‘sh-da oqshom tushguncha.
Boyagiday chalg‘imas uncha,
Munkillagan qolur uch-to‘rt chol.
Shovullaydi o‘zanda sho‘x soy.
Tashnalikki bor — qonur bir-bir,
Mudroq hislar uyg‘onur bir-bir,
Ne-ne dardga davo-da ko‘k choy...

OVUNCHOQ

Yordan armug‘ondi shu jo‘n taqinchoq,
Taqib qo‘ygan edi to‘y kechasi yor.
Qandaydir qudrati, qadr-qimmati bor,
Dastgoh yonida ham, uyda ham inoq.

U kez yorga peshvoz ochganda eshik,
Yal-yal yongandaydi, ko‘rki ham ortib,
Dudoqlar sehri ham ko‘zlarni tortib,
Keyin qolib ketdi quchoqlab beshik.

Shuncha zamon o‘tdi, qayda yurar yor?
Jon bermish qay shahar ostonasida,
Yotarkan qay qo‘ra vayronasida,
Nahot bundan og‘ir ko‘rgulik ham bor?!

Shuncha yo‘l hajrida bo‘lmadi yiroq,
Hamon ko‘z o‘ngida yelkador yigit.
Hamon o‘z ko‘nglida yolg‘iz yor yigit,
Hamon shu taqinchoq unga ovunchoq.

TOSHKENTIM OSMONIDAN...

Toshkentim osmonidan qush uchar gala-gala,
Karvon ketidan karvon.
Olis Sharq yo‘lchilari — shunchalar mehr, hafsala,
Go‘yo ko‘k pastak narvon.
Cho‘llarda hordiq olib, ko‘llarda hordiq olib,
Yo‘llardan o‘tib omon,
Tag‘in balki oylik yo‘l, sillasi qurib-tolib,
Uchishar Shimol tomon.
Ko‘klam-da, bir-bir kelur bulbul ham, qaldirg‘och ham,
Ko‘llarimda tunashur,
Oqqushlar qandoq ko‘rkam, so‘nalar qandoq tam-tam,
Sahar tag‘in jo‘nashur.
Esga tushar bir ko‘klam, ko‘klamdek sumbul soch ham,
Uchaman xayollarda.
Ko‘z o‘ngimda ajib dam, ko‘zlari qiyg‘och sanam,
Quchaman xayollarda.

KO‘KALDOSH

Yoyilib yotipti bu qadimiy Shosh,
Hali mo‘l jin ko‘cha, loyshuvoq tomlar,
Boshlaridan kechmish ne shum ayyomlar,
O‘rtada parpirar ko‘hna Ko‘kaldosh.

Bu — qadim shaharning sir to‘la savlat,
Ko‘z olguvchi sir bu, ko‘z olguvchi asr,
O‘zi jarang g‘azal, o‘zi jarang nasr,
Binokor zakosi, so‘nmas bir shavkat.

O‘rab kelur ne-ne miqti koshona.
Demagin: ushoqqa o‘xshab qolyapti,
Jo‘n bir o‘yinchoqqa o‘xshab qolyapti,
Zukko bobolardan zebo nishona.

Loy, chang, bo‘g‘iq olam chekinur kam-kam,
So‘lim, yashil dunyo surib kelmoqda.
Yorug‘lik barq urib, qurib kelmoqda.
Qing‘ir ko‘chalardan qolmagay iz ham.

Yasharkan do‘stlikning porloq dunyosi,
Yasharkan poytaxtim — bu oqsoqol Shosh,
Yashagay yarqirab ajib Ko‘kaldosh,
Asriy saroylarning ulug‘ bobosi...

QAYDA?

Qo‘shig‘im qayda, o‘sha,
Qo‘shig‘im qayda qoldi?
Nahotki xoli go‘sha,
Biz kezmish joyda qoldi?

Qo‘shig‘im qayda, o‘sha,
Qo‘shig‘im qayda qoldi?
Soy misol jo‘sha-jo‘sha,
Nahotki soyda qoldi?

Qo‘shig‘im qayda, o‘sha,
Qo‘shig‘im qayda qoldi?
Sada tagi ham bo‘sh-a?
Yo qapchig‘ayda qoldi?

Qo‘shig‘im qayda, o‘sha,
Qo‘shig‘im qayda qoldi?
Chamanzor, xoli go‘sha,
Guldek chiroyda qoldi.

QUSH

Tong chog‘i turgan edim — odatim shunaqaroq,
Oq bulut pag‘a-pag‘a, oq bulut baroq-baroq,
Yog‘aloqmas shekilli. Yog‘adigan o‘xshamas,
Sovur salqinida ham osmon nechun bo‘shamas.

Hovlimda kezar edim, yengillik sezar edim,
Xayolni ko‘klamga xos bo‘yoqda bezar edim.
Birdan yashil cho‘g‘ ko‘rdim, ho‘ gilos butog‘ida,
Yashil cho‘g‘ yonar edi yashillik quchog‘ida.
Yaqinroq keldim sekin, ishonmayman ko‘zimga,
Hayron boqardim, lekin, kelolmayin o‘zimga,
Qalin barg daldasida o‘tirardi mitti qush,
Qush emas, jozibalik va aldoqchi yashil tush.
Qanotlari chiroylik, silliq, ko‘zlar — ko‘zmunchoq.
Tirik qo‘g‘irchoq go‘yo, ko‘z ko‘rmagan ovunchoq.
Tag‘in yaqinroq keldim, cho‘chimadi-uchmadi,
Hattoki anov shoxdan manov shoxga ko‘chmadi.
To‘timikin yo qumri, nahotki benom bo‘lsa,
Nahotki xayollarim, mo‘ljallarim xom bo‘lsa,
Qafasdan qochdimikin, olisdan mehmonmikin?
Yuvoshligimdan xushhol biron beoshyonmikin?
Ko‘zlar qamashgudek ko‘rk, ketolmay aylanaman,
Hushtak chalsam yelkamga qo‘ngudek shaylanaman.
Momom aytmish bir cho‘pchak esimda edi hamon:
Qush suratida pari ko‘rinar ahyon-ahyon,
Qushdek o‘tirar, lekin so‘zingga tushunarmish,
Yovuzmisan yo aksi — o‘zingga tushunarmish.
Vo ajab, netsamikin, hushtak chalsam — kelsa-ya,
Tushlarda izlaganim parizod shu bo‘lsa-ya...

YAYOV ULOQ

Amakim — besh yashar bo‘lganda o‘g‘li,
Besh xum bo‘za solib, bergandi uloq.
Uloq degan bilan uloqmas, to‘qli,
Bunday to‘y ko‘rganmas hatto Mingbuloq.

Qaribroq qolganda tug‘ilgandi-da,
Yolg‘iz bo‘lganidan ayovli edi.
Xayoli, umidi shu farzandida,
Tanlab qo‘ygan oti Tilovli edi.

Shundoq... Tashqarida tizza bo‘yi qor,
Yoz kunidek yorqin edi to‘yxona.
Karnay bor, nog‘ora, qiziqchi ham bor,
Qishloqni tutgandi qiy-qu, shodiyona.

Yasatilgan edi tuynuklik oq uy,
O‘rtada lovullar jing‘il alanga.
Isiriq tashlanar — taralar xush bo‘y,
Alanga sochardi qirmizi tanga.

Uyning o‘rtasida turardi besh xum,
Xumlarki, bo‘ylari odam bo‘yidek,
Hovlida ham, olov, tinmas taka-tum,
Suronroq to‘y bo‘lmas o‘g‘il to‘yidek.

Qo‘y so‘yilar edi qo‘chqor ketidan,
Tortilar bir-ketin quyuq va suyuq.
Kuylar yo o‘yinga tushar chetidan,
Qo‘shiqlar jarangdor, boshdan-bosh tuyuq.

Tush bo‘ldi, odamning keti uzilmas,
Do‘st-yoron kelishar uzoq-yaqindan.

To‘ychilik udumi qitday buzilmas,
O‘t sachrar ko‘zlarda quvnoq chaqindan.

Yetaklab kelishar so‘qim, bo‘rdoqi,
Quridi deganda toyloq yo qo‘zi.
Dasturxonda turshak, bol, qovunqoqi,
Dasturxon degani ertakning o‘zi.

Novvot-u qandolat, qatlama, chalpak,
Laganda qovurg‘a, qazi va ilik.
Uyda qarsak baravj, hovlida chapak,
Kayfsiz odam yo‘qdek. Ha, bu to‘ychilik.

To‘y toza avjiga chiqqan bir mahal
Uloq tashlavordi tomdan to‘yboshi.
Bir zumda na paysal, na jindak taysal,
Qolib ketdi bo‘za, tovoqda oshi.

Barcha o‘zin urgan edi uloqqa,
Uloq tortishardi odamlar yayov.
Qiyqiriq taralur uzoq-uzoqqa,
Tor ko‘cha, bog‘ ko‘cha tiqin, avji dov.

Tortishar, yulishar, qulab turishar,
O‘n qadam o‘tmayin eng chapdastrog‘i
Yula chopqillaydi, tag‘in surishar,
Movut chakmonlarda qora qon dog‘i.

To‘dadan chiqolmas eng zo‘ravon ham
Yelkasida uloq, qolur qurshovda.
Tomlar g‘uj, tepa g‘uj hozir, maydon ham
Es og‘ib ketgudek alg‘ov-dalg‘ovda.

Bir-birin tanimay qolishar hatto,
Yenglar uziladi, yirtilar yoqa.
Chol bilan nevara solishar hatto,
Yayov chavandozlik shunaqa.

Paxsaga duch kelib, o‘mbaloq oshib,
Tizzasining ko‘zi yorilgan qayda.
Urilib-surilib, esdan adashib,
Noxos o‘z qoniga qorilgan qayda.

Manglayida g‘urra yo chiqib qo‘li,
To‘yxonaga tag‘in qaytgani qayda.
Ayrilmas do‘stlarning ayrilib yo‘li,
Achchiq so‘z va o‘pka aytgani qayda.

G‘oyat qizishgandan o‘zin tutolmas,
To‘daga tashlanar ne-ne chayir chol.
Asov yigit paytin hech unutolmas,
Ayqirishar tomda qiz, kelin, ayol.

Lekin ne choraki, chol tushar cho‘kka,
To‘lqinda cho‘p misol chetroq surishar.
Ko‘ksidan xo‘rsiniq uchadi ko‘kka,
Tomda ham, yerda ham qah-qah urishar.

Mo‘rilardan uchar ustundek tutun,
Oxiri ko‘rinmas — tekin tomosha.
“Tislanma! Tort! Ha, de!” tinmaydi shovqin,
Oqshom sirg‘ilmoqda adirlar osha.

To‘daga tushadi norg‘ul chavandoz,
O‘sha zum yelkaga oshar uloq ham,
Yuzlarin chimchilar yoqimsiz ayoz,
Uloqni norg‘ulroq ilar o‘sha dam.

Yondashib kelolmas chortoqqa sal-pal,
Sovrun ham intizor o‘zib kelganga.
To‘daga tushmagan qolmas galma-gal,
To‘n tegar to‘dani buzib kelganga.

Suron avjlarida qorayadi qosh,
Tinmas ola-g‘ovur, tinmas to‘polon.

To‘yxonada qaynar bu kez kechki osh,
Uloq-chi...
O‘rtada bo‘ladi talon...

* * *

Amakim shunaqa to‘y berib elga,
Ertangi ovoza zavqini surar:
Topgan-tutganini sovurib yelga,
Eshik panasida bo‘zrayib turar.

Turkiston

QO‘QON NIHOLLARI

O‘ylamangki, mavsumiy ko‘katlar ekishibdi,
Yo‘q, shu ezgu tuproqqa ko‘chatlar tikishibdi.
Tuprog‘i ipakday-a, talay ter to‘kishibdi,
Nihollar ko‘karsin deb talay bel bukishibdi.

Sizdaqa nihollarga ko‘z tutardi bu zamin,
Suyaklar sirqirardi o‘ylab tashnalik g‘amin.
Samum yo‘llariga ham chekmish el o‘qday chiziq,
Tashnalik qaytib kelmas, ishoning — bo‘ling amin!

Anchayin ko‘chatlarmas, ardoqli nihollarsiz,
Bu diyor jamolida zab yarashiq hollarsiz.
Yashil og‘ushingizda yangrar qushlar qo‘shig‘i,
Ko‘klam — ko‘zlar quvonchi, kuz — barkashda bollarsiz.

Suyuk diyor boshiga qo‘ngan yanglig‘ kamalak,
Ko‘klamda gullagaysiz chaqnab ketar tevarak,
Odamzoddan bog‘ qolur degan gapda ma’ni ko‘p,
Ko‘rkingizga suqlanur hatto yetti qat falak.

Ne deydi: dorilamon davroningizga balli!
Yaxshi niyat, cho‘ng orzu-armoningizga balli!
Mevangizni tatigan qulluq aytur yuz takror:
O‘sing, yashnang, yuksaling — bog‘boningizga balli!

SUMALAK

...Erta ko‘klam dasturxon bezagi-da sumalak,
Issiq nonni ushat-u ardoqlab osha, mehmon!
Ardoqlab osha, mehmon! Raso yuz yasha, mehmon!
To sumalak bo‘lguncha u halag-u bu halak...
Rangi ham, mazasi ham ko‘zga yaqin, qahvoyi.
Tong otguncha tinimsiz qalak urar to‘rt yigit,
Yigitlarning yigiti — o‘ylamangki, mo‘rt yigit.
Sumalaksiz bema’ni ko‘klamning shu ilk oyi,
Yegin deb undar go‘yo ko‘klamda havo o‘zi.
Momolardan meros-da, tansiq va ezgu xo‘rak,
Sillang quriganida dardga darmon shu xo‘rak,
Darmon gapmi, ma’jun bu, noyob bir davo o‘zi.
Sumalak tatib men ham esladim yosh chog‘imni,
Qozon tevaragida tun uyqusiz o‘tardi.
Childirma, o‘yin-kulgi, hamma tongni kutardi,
Qandoq unutay axir o‘z ona qishlog‘imni.
Tongdan boshlanur edi to‘yday sumalakxo‘rlik,
Ishtahabop, to‘q tutar, to‘q bug‘doyning mag‘zi-da,
Boldek erib ketadi, yegulikning nag‘zi-da,
Tovoqchada o‘rtaga qo‘yardi onam sho‘rlik.
Qayga borsang bunda ham sumalaksiz o‘tmas choy,
Sumalagi yonida hovurlik ko‘k somsa ham.
Shohona ziyofatdan, ayting-chi, nimasi kam,
Bobo dehqon ko‘p saxiy, davlati naq oqar soy.
Qayga borsang — sumalak, qayga borsang — sumalak,
Tanglayda lekin o‘sha sumalak mazasi bor.
Ko‘nglimda hanuz-hanuz onamning azasi bor,
Mozorini topolmay hanuz-hanuz men halak.

Baliqchi

SUTDEK OYDIN

Sutdek oydin edi, bog‘ nimxush salqin,
Suyangandim bodom butoqlariga.
Raso gullayapti bog‘ — ko‘zlarda chaqin,
Egildim go‘yo qiz dudoqlariga.

Oqardi avvalo, qizardi keyin,
Qiynar edi go‘yo qizlik hayosi.
To‘sat bo‘sa oldim, so‘z yo‘qki, qiyin,
Oh, oydin tunlarning telba savdosi...

Bodom nimanidir hadeb pichirlar
Novdalari go‘yo quchar bo‘ynimdan.
Qaydam ne hodisa — ne sehr, ne sirlar,
Taslim bo‘ldi magar, jilmas qo‘ynimdan.

Oh, oydin tunlarning telba savdosi.

HANDALAK

Polizdan handalak hidi anqiydi,
O‘qariq bo‘yida sahar uyg‘onsam.
Atir og‘ushida olam balqiydi,
Havo eleksirday, qaniydi qonsam.
Ko‘zlar ilg‘aguncha poliz, bedazor,
Bedana vavag‘lar to‘rg‘ay ketidan.
Yashillik saltanat qurmish beg‘ubor,
O‘pich olging kelur hayot betidan.
Ko‘krakka uradi yoqimtoy salqin,
Chechaklar tovlanur — chechaklarda noz,
Hammasi, hammasi ko‘ngilga yaqin,
Hammasi dilrabo, suyuk, so‘lim, soz...
Handalak uzaman muzdek va yorqin,
Beqasam handalak — chipor handalak,
Qo‘limda lovullar go‘yoki yolqin,
Quymadek bejirim, ipor handalak,
Ha, aslida quyosh zarrasi bu ham,
Ona tuproq toti, tuproq shirasi.
Yemishlarning tengsiz barrasi bu ham,
Jannatda yo‘q o‘zi, gapning sirasi!
Bu o‘zbek boboning asriy san’ati,
Suv bo‘yida so‘ysang, tilim-tilim bol.
Ona tabiatning tansiq ne’mati,
Dala fayzlik, xushbaxt, fusunkor, halol.
O, handalak bo‘ylik, suv bo‘yiga kel.
Seni ko‘rgim kelib, hozir ko‘nglim sel.

Andijon

* * *

Orom og‘ushida mudrar edi tun,
Sukut buzar yolg‘iz suv shovullashi,
O‘lguncha esimda saqlanar beun,
Ko‘zlar lovullashi, qalb lovullashi...

Sochlaring tolasi qo‘limda hanuz,
Atri esa g‘arib jonimda butun.
Ko‘rk-u latofating ko‘nglimda hanuz,
Beboshvoq jo‘sh urar qonimda u tun...

* * *

Roziman, rizoman, o‘la-o‘lguncha
Xalqim deb o‘ldim.
Xalqim nima bo‘lsa, men o‘sha bo‘ldim,
Yuragim, bo‘g‘ilma, o‘rtanma buncha!

O‘zimga xiyonat qildim-u aksar,
Xalqimga xiyonat o‘ylaganim yo‘q.
Mening yuragimni teshib o‘tdilar
Xalqimga otilgan talay-talay o‘q.

Qancha yo‘llar bosdim, gohida toldim,
Lekin xalq nomiga yuqtirmadim gard.
Faryod solar choqda jim bo‘la oldim,
Xalqim dardi edi dil o‘rtagan dard.

Xalqim yetagida yetdim voyaga,
Xalq bilan kuldim.
Bardoshim so‘z bermas, deyman, qoyaga...
Roziman, o‘lguncha xalqim deb o‘ldim.

* * *

Bu yo‘ldan har zamon o‘tganing mahal,
Bir jilmayib qo‘ygin, savob bo‘ladi.
Qiya qarab o‘tsang netar loaqal,
Noinsof, tokay dil kabob bo‘ladi.

So‘ngsiz xayollar-u, ne-ne yorug‘ tush,
U orzular tokay sarob bo‘ladi!
O‘tmagin beparvo, o‘tmagin xomush,
Shu o‘zi tappa-taq menbop bo‘ladi...

KISAVUR

Bir gal tiqilinch tramvayda, mening o‘ng tomonimda oq jujun engillik, kelishgan yigit turganini ko‘rdim. Menga ko‘zlari bilan salom berganday bo‘ldi. Xayolimda hech nima yo‘q, bironta olif-tadir, deb o‘yladim. Lekin sal o‘tmay, chap cho‘ntagimda jonlik bir nima qimirlaganday bo‘ldi. (Kichikligimda tuzoqqa ilingan qushni bobomdan yashirib, cho‘ntagimga solardim, xuddi shundoq tipirchilab qolardi.) Nimayikin, deb qaradim, hamyon yo‘q. Suri-lib eshikka yaqinlashib qolgan ekanmiz-da! Haligi jujun ust-bosh kiymish yigitga qaradim. Rangi bo‘zroq, ko‘zlari lo‘q... bo‘lgani shu deb baqrayganicha qarab turar edi.

Shu voqeadan sal o‘tmay, uyimga bir qalamkash keldi, ra-dioda “shig‘ir” aytuvchilardan. Nuqul nazariyadan gapirar, za-monaga ohangdoshlikdan, originallikdan, insofdan gapirar edi. Keyin she’rini o‘qib ketdi. Bunisi ham xuddi radioda o‘qiganidek, ko‘chirma edi, hayron bo‘ldim, nima ham deyman? Bilib o‘qiyap-timi yoki yodaki bo‘lib o‘z-o‘zidan uning shig‘iriga ko‘chib qol-ganmi? Men juda g‘alati holda, qora ter bosib, duduqlanib, yuziga ko‘z tashladim. Yuzida, jindek bo‘lsin, uyat belgisi ko‘rinmas, rangi bo‘z, ko‘zlar o‘ta hayosiz...

Kisavur va she’r o‘g‘risining farqi yo‘q, bo‘lsa ham oz, uning ham, buning ham qalbi qashshoq va sayoz.

JIYDA

Hovlimizda qorasho‘rik, g‘aynol-u, sut olma, oluhirot ancha edi, shular orasida bir tup jiyda ham bo‘lar, quloch yetmas nuqra yaproq, bobomning bobosini ko‘rgan non jiyda.

Onam hamisha shu jiyda tagida bir nima tikib yoki yamab, un qorib yo xamir kesib o‘tirgani hamon ko‘z o‘ngimda. Agar men biron sho‘xlik qilsam, shu jiyda tagida turib, qo‘lini yanar edi. Agar biron xush yumush qilsam, shu jiyda tagida olqish olar edim. Qo‘ni-qo‘shni, amma-xolalar ham shu jiyda tagida gurunglashardi...

Ayniqsa gullaganda — yopiray, buning hidi! Hech gulda bunaqangi hid bo‘lmas. Pishganda-chi? Hovli yuzi yaltiroq yoqut donalarga to‘lib ketar edi. Mazasi-chi? Yopiray, nonday to‘q, shirin, shifolik. Onam xalta-xalta qoqlab olar edi yoz bo‘yi.

Men hovlimga bordim, bolaligimda ko‘rganlarimdan yolg‘iz shu jiyda qolibdi — tarvaqay, g‘adir, chiyroq, qadimgidek. Men jiyda yoniga kelib, tiz cho‘kdim va g‘o‘dir po‘stloqlariga peshanamni qo‘yib pichirladim:

— Onajon...

Mankent

RAQS

Shodiyona bundoq chalinsin-da, raqs bundoq bo‘lsin-da. Yigit o‘ynayapti, bironta xotinchalish harakat topib ko‘ring-chi, yo‘q, hammasi erkakcha, mardona va o‘yinga yopishib turibdi. Ketmon chopyapti, qilich siltayapti, o‘roq o‘rayapti, tosh qulatyapti, otda uchayapti, to‘g‘on bog‘layapti, qanor orqalayapti — hammasi shundoq ustakorona... Shundog‘am o‘ynayaptiki, asti qo‘yavering..

Qiz-chi? Bironta hayosiz harakat, o‘rinsiz imo, yo ko‘krak va yo quyruq silkish yo‘q. Yuzida pishgan olma qizilligi yoki tong shafaqlari o‘ynamoqda. Qadamlar yengil, qo‘llar qush qanotlaridek uchag‘on — suv olyapti, pilla uzyapti, atlas to‘qiyapti, paxta teryapti. Butun ko‘rki va tengsiz siymosida ichki bir sharm va odob. Ustoziga balli!

Sayram

AGAR MEN...

Eshikko‘l etagida qadimgi bir jangchining qabrini topishibdi. Kafanigacha oltin emish. Xanjari, etigi, qilichi, dubulg‘asi, engil-boshi, qo‘ying-chi, kosasi, piyolasigacha quyma oltin, tobuti ham...

Bu bizning bobolarimizning bobolariga xos burungi yer tagi sag‘analaridan. Nomdor va saltanat egalaridan birining sag‘anasi. Qabr ichida ustixonga bog‘liq va yonma-yon to‘rt yuzga yaqin o‘likka keraklig-u keraksiz oltin buyum sanashibdi. Yettinchi asrga qadar ko‘milgan o‘lik — sahroyi yigit, jangchi. Yo o‘n sakkiz, yo yigirma uch yil umr ko‘rgan, xolos.

Agar men mangulik uyquga ketar kun biron buyum ola ketish erki berila qolsa...

Ne olib ketarkinman?

Eng avval hovlimdagi oq gullarning bir hovuch atri;

Keyin Halimaxonim avjida Navoiyning o‘sha bir satri;

Ustoz Oybek bermish o‘sha bir qalam;

Olis g‘urbatlardan qaytganimda, onamning qabrini topolmaganim vajidan suyak-suyaklarimga singgan o‘sha qirq yillik alam;

Suygulimning tirnoq yuzidekkina surati ham;

Nozim Hikmatning dengiz suvlariday moviy ko‘zlaridagi o‘sha mung, o‘sha uchqun, bir so‘z bilan aytsam, uning xayolimdagi armonli siyrati ham;

Bir g‘ujum Farg‘ona uzumi;

Samarqanddagi yigitlik bazmi;

Qozoq qimizidan bir ko‘za;

Toshkent dengizidan bir ko‘za;

Hech bo‘lmasa o‘sha Olatov yaylovida qimiz ichgan zarang kosa;

O‘sha unutilmas o‘g‘rinchi bo‘sa;

Oqsoq bobo sag‘anasidan lojuvard g‘isht sinig‘i;

O‘lganda ham otini atashim nojo‘ya birovning ko‘zlaridagi tubsiz mehrdan kiprikchasi va tinig‘i;

Andijon adirlarida bitgan g‘o‘zadan bir lo‘ppi chanoq ham...

Tag‘in nima? Bo‘ldi shekilli. Yo‘q, onamdan qolmish yagona esdalik — kichkina parqu bolish — tobutimda boshimga qo‘yilsa-yu, o‘sha bolish tagiga daftarcham qo‘yilsa...

O‘lgandan keyin biron buyum olib ketish erki berilsa, men shularnigina ola ketishni istar edim. Lekin hali o‘ladigan tentak yo‘q, gap shunda...

XALQ DILINING KO‘ZGUSI

Yozuvchi zimmasiga hamma davrlar, hamma zamonlar ham og‘ir va javobgarlik burch yuklab keldi. Men tom ma’nosidagi yozuvchi to‘g‘risida gapiryapman. Tariximizda tilga olgulik qalamkash borki, hammasi chin ma’nosi bilan davr farzandi, xalq o‘g‘li, xalq dilining ko‘zgusi va jarchisidir. Abdulla Qahhor o‘shandek qalam egalari sirasidan o‘rin olgan yozuvchi.

Muhandis — o‘z ishiga yetuk, jamiyatda ardoqli kishi, kimyogar ham, o‘qituvchi ham, duradgor ham, chilangar ham, naqqosh ham, gulchi ham... Hammasi o‘z ishiga yetuk, o‘zga bilan ishi yo‘q. Yozuvchi-chi? Ha, yozuvchi deyarli hammasining dilini, didini, orzusini, xarakterini bilmog‘i shart. Aks holda, soxta, chalakam va umri kalta gap bo‘ladi. Abdulla Qahhor qalamga olgan hayot lavhalari, xarakterlar, timsollar, to‘qnashuvlar va ayniqsa til ishongulik, real va ibrat olgulik, esda qolgulik, chinakam san’at asarlaridir. Shu jihatdan og‘iz to‘ldirib aytsak yarashgulik, zargar, purhikmat, bilgich yozuvchilardan biri Abdulla Qahhor — faxrlansak bo‘ladi!

Abdulla Qahhor hikoyanavis, qissanavis, romanchi, dramaturg sifatida dongdor. Lekin men uni shoir ham derdim. U tanlagan mavzular, ularning ijrosi, yaxlit va xilma-xil odamlar, ularning ichki dunyosi, tabiat manzaralari, o‘rinli romantik ohanglar, ranglar — she’rdir. “O‘tmishdan ertaklar”idagi Umaralining o‘limini eslang: otaning bir zumlik telbalanish lahzasi, isyon, tomir-tomirlaridan titrab ko‘tarilgan na’ra, ona musibati bu parchaning o‘zi tugal bir doston. Vaznsiz, qofiyasiz, lekin yuksak she’rdir. Dahshat bu! O‘tmish nechog‘lik qora va shaddod ekan-a! Qaytib kelmasin o‘shandoq kunlar! — deydi har kitobxon. Bu kunlarimiz qadriga yetadigan bo‘ladi kitobxon. San’at bu! Chinakam ustalik va ustozlik...

Abdulla Qahhor ustoz sifatida talay asil nasr yozuvchi yoshlarga yetakchi. Lekin men, undan ham ko‘proq shoirlarga ustozligini

bilaman va bu qattiqqo'llik, yosh adabiyotchilarimizning chinakam ustozi bilan faxrlanaman.

Abdulla aka! Soch oqligiga parvo qilmang. Qirchillagan paytingiz bu! Yangi asarlaringizni besabr kutuvchilardan biri men. Izlab topib o'quvchilardan biri men.

Uzoq yashang!

ALLOMA

Izzat Sulton — ko‘p qirrali ijodkor. U she’r ham yoza oladi, nasrga ham usta, baquvvat dramaturg, baquvvat arbob, lekin darhol ko‘zga tashlanadigan qirrasi — olimlik — allomalik. Alloma bo‘lganda ham anov-manov alloma emas, zabardast va yorqin...

Ilm unda tug‘ma va o‘tkir sajiya ekanligiga shubha bo‘lishi mumkin emas.

“Adabiyot nazariyasi” kitobini eslaylik. Nechog‘lik o‘z vaqtida dunyoga kelgan va talay-talay aniqlikka intizor, tashna o‘qituvchilar yo‘lini yoritgan kitob edi. Bu kitob yosh qalamkashlar uchun ham, umuman yosh avlod uchun ham yangilik bo‘ldi, yetakchi bo‘ldi.

Izzat Sulton dramalari yuksak saviyada, “Burgutning parvozi”dan “Fidoyi”gacha esda qolgulik. Dramaturgiyada ham o‘ta yetuk qalamkash Izzat Sulton tomoshabin qalbi to‘ridan o‘chmas joy olgan asarlar avtoridir. Ustalik shu darajada: drama ham, opera librettosi ham, kinossenariy ham birdek qo‘lidan keladi. Bunday do‘ndirib yozadiganlar oz. O‘shalarning oldingi qatorida Izzat Sulton bor...

“Navoiyning qalb daftari” degan kitob o‘ktam allomamizning keyingi asarlaridan bo‘lib, shu darajada ma’ni va mantiq tig‘iz, uzoq mehnat oqibatida dunyo ko‘rgan, umri uzun ilmiy asardir. Bu kitob butun bir davr ko‘zgusi, butun bir davr qomusidek salmoqli va mazmundor.

Bu kitob ustoz Oybek qalamiga xos, o‘sha olamga mashhur romanidan keyin ulug‘ Navoiy haqidagi eng samimiy, zamonga ohangdosh va faxrlangulik mehnatdir. Ayni vaqtda ulug‘ boboga farzandlik tuyg‘usi to‘lib-toshgan. Yorug‘ qalb qo‘shig‘idir. Nechog‘lik yorqin va fusunkor kitob.

Ish maktabida tarbiyalanib, ilm cho‘qqilariga zinama-zina yuksalayotgan, bilim va madaniyatimizning ko‘rki darajasidagi zahmatkash allomaga, yirik qalam sohibiga, zamondoshimga, ardoqli do‘stga men ham tashna bir kitobxon va qatordagi qalamkash sifatida hamishalik omad va umrzoqlik tilayman. Yangi asarlar kutib qolaman.

SURAT

Lirik qissa

O‘limlardan hatlab...

Na oltin, na javohir edim...
Armonli bir yosh shoir edim.
Zuhro bo‘lmasang ham chiroyda,
Men ishqingda naq Tohir edim.

Toshlon o‘ldi, degan kim axir?
Gulday so‘ldi, degan kim axir?
Nahot poymol qutlug‘ ishq ahdi,
Bol bo‘lurmi shunchalar taxir?

Barchinoyday kutganing qani?
Zardob-u qon yutganing qani?
Umr yilida to yumguncha ko‘z,
Birga-birga ketganing qani?

Gunohim ne? — Jangda bo‘lganim,
Qon kechganim, yuz bor o‘lganim,
Diydoringni unutolmayin,
O‘limlardan hatlab kelganim...

Gulim, jonim!

Gulim, jonim!.. Munglisan nechuk?
Yo taqdirdan qilasan araz?
Nimaniki olgan bo‘lsa tun, —
Tong qaytarmas, nahot beg‘araz?

Kel, yig‘lama...
Yoshing art, ko‘z och:

Dunyo oldi butun o‘zga rang!
Hasratingni shamollarga soch,
Har baloga sabab — qonli jang...

Surat! Surat!

Och nazarim tushar suratga...
Surat, surat! Nega sen tilsiz?..
Termulaman suratda xatga...
Janglarda yor eding-ku, o, qiz!
Surat, surat! Nega sen tilsiz?..

Ko‘zlarimga boqasan qiyg‘och,
Kulasan-u, ko‘zlaringda yosh,
Halqa-halqa, tarqoq sumbul soch,
Zap qiyilgan bir juft qalam qosh.
Kulasan-u, ko‘zlaringda yosh.

Esingdami so‘nggi bo‘salar,
Senga toqat tilaganlarim?
Yuz ochganda ayoz bir sahar,
Xayr! — deb soching silaganlarim?
Senga toqat tilaganlarim?

Surat, surat! Nega sen tilsiz?
Seni asrab to‘rt yil qo‘ynimda —
Topinardim, o‘pardim... esiz!
Evoh, qanday zil yuk bo‘ynimda,
Seni asrab to‘rt yil qo‘ynimda...

Esingdami?

Ko‘zlarimning qurigan yoshi,
Dushvor emas ko‘hna hayajon...
Sabza mo‘ylov vaqtim tengdoshi,
Hozir ko‘rsam, deyman: “Ayajon!”
Dushvor emas ko‘hna hayajon...

Asta-asta oq tushar sochga...
Sen o‘tasan yetaklab o‘g‘il.
Sig‘mas eding bir kez qulochga,
Cho‘p bo‘libsan... Kuygan bo‘lur qul..
Sen yetaklab o‘tasan o‘g‘il...

Shahlo ko‘zlar nechun o‘ynamas,
Ehtirosning so‘ndimi cho‘g‘i?
Rashk o‘tlarim dilda so‘ndi... Bas!
Esingdami hijron qo‘shig‘i?
Ehtirosning so‘ndimi cho‘g‘i?

Esingdami o‘sha so‘ng kecha,
Yarim tunning sovuq og‘ushi?
Esingdami qorli, to‘ng kecha,
Teatrning xilvat muyushi,
Yarim tunning sovuq og‘ushi?

Esingdami so‘nggi bo‘salar,
Senga toqat tilaganlarim?
Yuz ochganda ayoz bir sahar,
Xayr! — deb soching silaganlarim,
Senga toqat tilaganlarim.

Ko‘zlarimning qurigan yoshi,
Dushvor emas ko‘hna hayajon.
Yigitlikning aziz sirdoshi,
Hozir ko‘rsam, deyman: “Ayajon!”
Dushvor emas ko‘hna hayajon...

Ilk bag‘ishlovlardan...

I

Oqshom tushar... o‘ng-u so‘lda
Oppoq-oppoq xirmonlar;
Tinmay o‘tar katta yo‘lda —
Xirmon yukli karvonlar.

To‘lib ketar ko‘kka yulduz...
Kelinlar soch tarashur;
Sen ham horg‘in, sochi qunduz,
Senga ham hordiq yarashur...
Ko‘z tashla oqshomning so‘lim chog‘iga,
Kel sen ham, Oysuluv,
Kel sen ham, Oysuluv —
Soy qirg‘og‘iga...

II

Tun sochidan tutib sho‘x yel —
Tortar olis tog‘larga.
Asta-asta taralur el —
Soya-salqin bog‘larga...
Quyib o‘tdi bemahal sel,
Ko‘k charog‘on kechqurun;
Qo‘shiq yangrar: “Jononim, kel! —
Oydin, yorug‘ bo‘lur tun”.
Ko‘z tashla oqshomning so‘lim chog‘iga;
Kel sen ham, Oysuluv.
Kel sen ham, Oysuluv —
Soy qirg‘og‘iga...

III

(O‘xshatma)

Sen kelgin tong chog‘ida,
Sen kelgin naq tong misol.
Tong balqib yonog‘ingda,
Ko‘zlarim o‘ynata ol!..

Sen kel tush paytida ham,
Daryoda epkin misol;
Sochlarim to‘zg‘it bir dam,
Dilni ham qo‘zg‘ata ol!

Sen kelgin oqshom, mayli,
Oqshom qo‘shig‘i misol;
Go‘yo sahnada Layli,
Zavqimni uyg‘ota ol!

Sen kelgin oydin tunda,
Albatta kel, oy misol;
Quchog‘imga afsunday,
To‘lin oyday to‘la qol...

IV

Yetim, o‘ksiz edim — o‘zingga ayon...
Yetimman, yolg‘izman, achingil ozroq.
Tokay g‘ussalarda dil bo‘lsin nolon,
Loaqal bo‘lsang-chi, sal dilnavozroq...

Es bilmay ayrildim axir chechamdan,
Ovulda – qahraton, cho‘lda – girdibod,
O‘ksizlikda qitdak bo‘lganmidim shod,
Yorug‘ tushganmidi mening darchamdan?

Sen armonim eding... Bar tutqizmas baxt...
Seni ko‘rsam faqat ochilar ko‘nglim.
Balki bu o‘tinchlar beo‘rin, bevaqt...
Loaqal, loaqal bo‘lsang-chi, singlim!

Koshki ayta olsam: yor... Oysuluvjon!
Ko‘nglingga yo‘l topsam, tugasa g‘urbat...
Umrimiz bag‘ishlab yurtga ikkovlon,
Koshkiydi yashasak el uchun faqat!..

V

Dilim ranjitsa ham do‘q-u dag‘dag‘a,
Bog‘imda bu oqshom jonon o‘ynasin.

Gulday chiroyidan bo‘lay sadag‘a,
Ochilib-sochilib, chunon o‘ynasin.
Jo‘r bo‘lsin bulbullar chalgan torimga,
Qo‘shiqlar kuylayin vafodorimga,
Suqlanay Oysuluv otli yorimga,
Sho‘x ohuday aylab javlon o‘ynasin.
Xipcha belga bog‘lab yashil rang kamar,
Gullar-chechaklardan taqsin gulchambar,
Tengi kam o‘yinchi, tengi kam dilbar...
Tomoshaga kelib osmon o‘ynasin.
Tovusday tovlangil, ey qoshi kamon,
Visol chamanida bo‘laylik omon;
Ayriliq g‘ussasi o‘limdan yomon...
Qolmayin zarracha armon, o‘ynasin.

VI

Qo‘shiqlar to‘qisam no‘noq bo‘lmasa,
Sendan o‘zga dilga qo‘noq bo‘lmasa!
Kuylasam tun-u kun suluvligingni,
Kuylash mumkinmi dil qaynoq bo‘lmasa?
Go‘zallik taxtidan qulaydi, nahot,
Kuychiga shunchalar qiynoq bo‘lmasa?..
Ko‘nglim o‘ksinadi, ko‘nglim sinadi —
Ko‘nglim bilan ko‘ngling inoq bo‘lmasa!
Ko‘nglim o‘ksinadi uchrashganimda
Oysuluvjon sho‘x-u quvnoq bo‘lmasa!

VII

Sevgilim, sen uchun hayotman-borman,
Sen uchun eng og‘ir kunga tayyorman.
O‘lsam sevging bilan o‘layin faqat,
Majnun nimaga zor — men shunga zorman!

Sening har maqoming...

Yana talpinishing ko‘rdim sahnada...
Sening har maqoming nechog‘lik tanish!
U kez uchratardim seni panada,
Dilda yonish bordi, yonish va yonish.

Keyin, toqatlar-toq, kutardik visol,
Keyin, mangulikka berishdik va’da.
Keyin, quchog‘imga to‘lding baxt misol. —
Innakeyin, innakeyin... men bo‘ldim dada.

Innakeyin ayriliq jafo toshini —
Bizning peshanaga urdi ayovsiz.
Innakeyin, yiroqda qalam qoshimni —
Sog‘indim, sog‘indim, sog‘indim... Esiz!

Esiz, ayoz tunlar, uyqusiz tunlar!..
Jang va burch... Yor hajri... Qatma-qat jafo?
Nahot, men seni deb bo‘ldim tutunlar?
Nahot, shundoq dilbar beburd, bevafo?

Yana talpinishing ko‘rdim sahnada...
Sening har maqoming menga oshno.
Hozir men ko‘rmasam seni panada,
Shukurlar qilaman ming marta, inon!

Ikki dard...

Tushlarimda duch kelganda ham
Sho‘xligingni aslo qo‘ymaysan.
Dam qah-qah-u, dam ko‘zingda nam,
Bu kulfatdan nechuk to‘ymaysan!

Ham nafratim, ham ayanchim bor,
Yurak — ikki dardga mubtalo.

G‘amzalar...
Oh, bekor-ku, bekor..
Qayta og‘ir bo‘ldi bu balo!

Ko‘rmay desam, ko‘zim ko‘r emas,
Yurmay desam, oyog‘im butun.
Ammo yurak ortiq jo‘r emas,
Xayollarga bo‘laman tutqun.

Tug‘ilmagan bo‘lsaydim, koshki,
Bo‘lur eding baxtli, ehtimol.
Ering bilan, mayli, yarashqin,
Ering axir... Uvol-ku, uvol!

Xat...

Xating, jonon, obdan beta’sir,
Ayrilgan dil nechuk bog‘lanur?
O‘zing, axir, saqlayapsan, sir,
O‘z aybingdan qalbing dog‘lanur.

Muncha uzun, muncha oh-u voh,
Pushaymonga qoldimi o‘rin?
Agar senda bo‘lmasa gunoh,
Bildirmading nega sal burun?

Maqtovlarning quli bo‘lganing
Yolg‘on bo‘lsa, ayt-chi o‘zimga!
Bazmlarning guli bo‘lganing
Yolg‘on bo‘lsa, boq-chi ko‘zimga.

Qani ular? Soxta muhabbat?..
Nega fahming yetmadi avval?
Sog‘inishga qoldimi faqat?
Dunyo ishi shundoq... Galma-gal...

Seni ayab...

Sen aldasang, men aldanmadim,
Sen g‘ussali, men — qushday yengil.
Sanalgandir bosgan har odim,
Bulutsiz ko‘k kabi hozir dil.

Sen deysanki: “Attang!” Men aslo...
Ammo bosiriq bosganday ba’zan.
Ular ketdi bitgach muddao,
Ammo seni ayab ketdim man.

Taqillatsam...

Kichik uyda o‘chmagan chiroq,
Bilamanki, sen hali uyg‘oq.
Parishonsan, xayollar tarqoq,
Tun yarimdan ancha o‘tgan choq,
Bilamanki, sen hali uyg‘oq.

Bilamanki, o‘qiysan kitob,
She’rim seni etadi kabob.
Oh chekasan, bitar toqat-tob,
Bilamanki, yod bo‘lgan bir bob,
She’rim seni etadi kabob.

Yuragingda uyg‘onur u soz,
Taqillatsam, berasan ovoz,
Xayolingda — qishing bo‘lar yoz,
Ammo, qaytib ketaman... Ayoz...
Taqillatsam, berasan ovoz.

Bilamanki, chiqmas ko‘nglingdan,
Ne yomonlik ko‘rding sen mendan?
Shu vajdanki, har kun singlimdan —
So‘roqlaysan ahvolimni san...
Ne yomonlik ko‘rding sen mendan?..

Bugun yo‘lda...

Bugun yo‘lda duch kelganingda,
Nega birdan to‘xtading, jonon?
Ering kelar edi yoningda,
Sal qoldiki, chaqirsang: “Toshlon!”

Nega nazar tashlading qiyo,
Ne istading mendan ko‘chada?
Sal qoldiki, imlasang: “Bu yon!”
Yaxshi, borkan o‘sha to‘p sada...

Men panaga oldim o‘zimni,
Sen yo‘lingga tushding haytovur,
Ko‘rmaganga soldim o‘zimni,
Janjal bo‘lar albatta bir qur.

Sho‘rlik Toshlon, bechora Toshlon!
G‘amdiyda, hey, ko‘zlarim, yoshlan!..

Amon!..

Xuddi shunday erta bahorda
Uchrashgandik ikkov kechqurun.
Ayrilgandik erta saharda,
Hali issiq ko‘rinur o‘rin...

Hamon o‘sha chinor — yam-yashil,
Daryo bo‘yi — zumrad soyabon...
Bezovta bo‘ldi andak dil,
Amon, xayol — Amon, al’amon!..

Bolajon

Ey... ko‘zlaring muncha ham qiyiq,
Muncha qiyin, muncha betiyiq,

Kipriklaring muncha ham quyuq,
O‘g‘limga o‘xshaysan, bolajon!

Bilmas hatto yaqin hamxonang,
Ocharmidi yuragin onang?
Men-chi... Men-chi... Men-chi, begonang...
O‘g‘limga o‘xshaysan, bolajon!

Haftada, oyda..

Amaki de, xafa bo‘lmayman,
Ota dema, yuz berur balo.
Haftada kel, mayli, o‘lmayman
Fahm etarsan axir biryo‘la.

Haftada kel, mayli, oyda kel.
Amaki de, aka de, mayli...
Ammo qolmay albat mayda kel,
Uzoqmas-ku, hozir Kegayli!..

Ertak...

...Qissamizni yoyma olamga,
Bo‘lsin yurak go‘shasi makon.
Ertak kabi so‘yla bolamga,
Ma’lum bo‘lsin unga bu doston...

Muhabbatning gavhar donasin
O‘g‘irlatgan tentaklar desin.
Har kun, har kun qistab onasin: —
Ertak, ertak, ertaklar! — desin!

Barini unut!

Yana bahor, shovillar anhor,
Boshlaringda nega yo‘q chambar?

Yana bog‘da kezasan tanho,
To‘lib-to‘lib yig‘laysan magar,
Boshlaringda nega yo‘q chambar?

Gul yuzingda g‘am ko‘lankasi,
So‘zladingmi suvga tushingni?
Adashganlik bo‘ldi hammasi,
Yaltiroq rang oldi hushingni...
So‘zladingmi suvga tushingni?

Nega ko‘zing bezovta, betinch,
Boqishlaring bu qadar mungli?
Barin unut, pushaymoning — kech,
Og‘rimasin yangi yor ko‘ngli...
Boqishlaring bu qadar mungli?

Balki, esga tushdi may tuni
Tabiatning to‘lin oy tuni,
Muhabbatga joyli-joy tuni,
Vafolarga mo‘l va boy tuni.
Tabiatning to‘lin oy tuni...

Balki, esda u ilk muhabbat,
Muhabbatga qanot bo‘lgan xat?
Marmar toshga o‘yilgan kabi,
Ko‘z oldingdan ketmas u fursat,
Muhabbatga qanot bo‘lgan xat...

Yor deguncha...

Oylar, yillar qiynadi jafong,
Jon ayading, bo‘lmadi vafong.
Yor, deguncha — do‘st ataguncha,
Desang yaxshi: “Aylansin opang...”.

Opa deyman, yor atamayman;
Hayhot!.. Opa, ayaga boyman,

Murdor ekan yurak naqadar,
Ba'zan tanho achchiq yig'layman.

Dilda qoldi...

Qaydan chiqdi bu balo surat,
Balolarga mubtalo surat?
Xotirimga tushdi yigitlik,
Kayfim oldi ajdaho surat...

Dudoqlari yarqiroq la'li,
Pari desam — yarashur, balli.
Shahlo ko'zlar — qasdi jon ko'zlar,
Yonarmisan shu xilda hali?

So'ldi butun ishqim bog'lari,
Yigitlikning bahor chog'lari.
Sen yonasan, men o'rtanaman,
Dilda qoldi hijron dog'lari..

Sen dildorsan unga noiloj,
Suyuk yorsan unga noiloj...
Ikki yillik shirin umrdan —
Qoldikmi shu kunga noiloj?

Onangdan...

Bu qo'shiqlar naqadar zahar,
O'rtanadi sochilsa — shahar.
Ulg'ayarsan o'g'lim va lekin
Sir aslida bo'lgil bexabar.

Yigit bo'lib, sevarsan bir qiz,
Sevging bo'lsin bo'saday kirsiz.
Garchi kunlar kun-bakun yorug',
Bir kun dema: "Sevgi... Oh, esiz!.."

Yigit kabi sevaol, o‘g‘lim,
Sevgan yorning tili bol, o‘g‘lim.
Faqat hijron tushmasin boshga,
Bir sevgi-la bo‘lgin chol, o‘g‘lim.

Har nomardga bo‘lmagin jo‘ra,
Mening jo‘ram edi bir qo‘ra,
Ne yaxshilik ko‘rdim oqibat,
Qolganini onangdan so‘ra...

Faqat...

Nega, ko‘nglim, bo‘lding betoqat?
Tinchlan, dedim senga necha qat.
So‘narmidi g‘ussa otashi —
Yozgan bilan menga ba’zan xat?

U — yoshlikni sog‘inar faqat,
Esdaliklar jon qiynar faqat.
Yoshlikdagi muhabbat o‘chmas,
Ajal kelsa u tinar faqat...

Yana surat...

Siynang toza, oq marmar kabi,
Marmar emas, yumshoq par kabi.
Marmar sovuq, ammo bu siyna —
Do‘zax kabi, yo‘q, battar kabi...

Siynang shundoq... Yuraging-chi, tosh...
Ko‘zlaring-chi, beayov-bebosh.
Shahlo emish... Shahlo nimasi?
Oh, u ko‘zlar bir parcha quyosh.

Tasviringga no‘noqman, nochor...
Menga qoldi surat yodgor...

O‘xshashingni topolmayman hech,
Bu malohat faqat senda bor.

Hammasidan — kulishing yaxshi,
Dilkash, munis bo‘lishing yaxshi...
Ko‘ksimga bosh qo‘yib suratda,
Taslim bo‘lib, turishing yaxshi.

MUNDARIJA

Yangroq tanbur sadosi
(Farhod Hamroyev) 3
"Qo'shiqlarim, siz uchun..." 9
Yo'q bo'lmas 10
Tutqun qiz 11
"Ko'zingni o'ynatma..." 12
Tanburim tovushi 13
Chashma bo'yida 14
Boq! 15
Ko'kqiyo 16
Shu'la 17
Ana, bog'lar 19
Edil kulganda 20
Cho'l 22
Oynisa 23
Suv yoqalab 25
Farg'ona 26
Tingla hayot! 27
Shu qadar mag'rur,
shu qadar buyuk... 29
Xo'rsiniq... 31
Nurxonni yo'qlab 32
Daryo bo'ylab... 34
Bir go'zal 36
Yaxshi shahar 37
Balki... 39
O'g'il 40
Yoz 42
Kuz 44
Oysuluv 45
"Samoga termilib boqdim
kechasi..." 48
Yurt qo'shig'i 49
Seni, bolaligim... 50
Lolazordan o'tganda 52
Oy yuzli 54
Yali-yali 56
Shodiyona 57
Dam 59
To'yga ataganim 60
Uyg'on! 62
O'ylar 63
Qizg'aldoq 65
Qiz 67
Qoya 69
Baraka tomchilari 71
Navoiy 73
Bog'imning chechaklari 75
Xoltosh 76
Ko'l bo'ylarida 79
O'lan avjlarida... 80
Qunduz 81
Saharlarda 83
Pilla 84
Mard yigit, yoring bo'lay 85
Sen ona... 86
Qora ko'zli 87
Bo'sasi qand 88
Ko'zlarim yo'lingda 89
Bobo 90
Yor 91
Bog' ko'cha 92
Qirg'oq 93
Dengiz bo'yida 95
Amu qirg'oqlari 99
Erkatoy 101
Yorim bor-u yorim bor 102
Berdimat amaki 103

Jala 104
Soy bo'yi — yalang qumloq 105
Gilos 106
Qayrag'och 107
Larza 108
Qaldirg'och 109
Bulut 110
Kipriklarim 111
Jo'ja 112
Onaginam 113
Qaydadir buloq 115
Maxtumquli to'yida
o'zbek ko'zasi 116
"Yuragimni sevgi..." 117
Oqsoqol 118
Baliqlik bo'yida 120
Baliq ovi 121
To'rg'ay 122
Oltin qo'ng'iz 124
Qimiz 125
Konchi chirog'i 127
Qarqaralik 129
Kelgin 130
Kuz 131
Qish edi 133
Soch oqligi — ko'ngil oqligi 134
Pardalik 135
Ustozga ataganim 137
Tarsaki 138
Boqishi 141
Barno 142
Sen bargida 143
Olxo'ri 144
Dorilfunun xiyobonida 145
"Fasli bahor..." 147
Arazliq 148
Nay 149
Chollar 151
Chanqoqliq 152
Yoz yomg'iri 155
Suv va suluv 156
Ko'nglim 158
Qaldirg'och 159
Ko'klam elchisi 160
Men ketganda 162
Ang'iz 163
Hali ham 164
Ov 165
Soy 166
Shudring 167
Qo'g'irmoch 168
Buloq 169
Yopig'liq non 171
Cho'pon 172
Shumg'iya 173
Quchoq 175
Kelmagin 177
Ilhom parisiga 178
Oqish 179
Salqin sahar, daryo bo'yi... 180
Soz 181
Lolazor 183
Zarang kosa sinig'i 184
Yo'ling uzun 185
Pushkin uyida 187
Kuz 188
Istardimki... 189
Mayli... 191
Agar 192
Shundog'am
sevamanki... 193
Qush tili 195
Hattoki 197
Yulduz 198
Kulgichi 200
Ona yurt 202

Dunyo bir soz qo‘shiqdan zavq ololsaydi 203
Samarqand she’rlaridan 204
Qishlog‘im 207
Alyor tag‘in 209
Ko‘nglim 212
Menligim 213
Onaginam 215
Tushmasin 217
“Qorong‘ulik tushar...” 218
Tun bo‘yi 219
Izzalik 220
Chirildoq 221
Sehr 222
Jujun 224
Betobligimda 228
Acha 229
To‘y 231
Chaqmoq 233
Chimildiq 234
Bir kez... 235
Ko‘l yoqalab 236
Buqabuloq 237
Bu o‘sha... 239
Qishloqda qish 240
“Ko‘klamda, yomg‘ir...” 241
O‘zim bilaman... 242
Izlaganim 243
Abdulhaqqa aytganim 244
Yorug‘lik 246
“Bosiriq...” 247
O‘smirlik 248
Sharob 249
Armon 250
“Saratonda...” 250
Tun 251
Ko‘k choy 252
Ovunchoq 255
Toshkentim osmonidan 256
Ko‘kaldosh 257
Qayda? 258
Qush 259
Yayov uloq 260
“Amakim...” 243
Qo‘qon nihollari 264
Sumalak 265
Sutdek oydin 266
Handalak 267
“Orom og‘ushida...” 268
“Roziman, rizoman...” 268
“Bu yo‘ldan...” 269
Kisavur 270
Jiyda 271
Raqs 272
Agar men 273
Xalq dilining ko‘zgusi 275
Alloma 277
Surat 278

M 57 Mirtemir [Matn]: nazm/to‘plovchi G‘ayrat Majid. – Toshkent: “O‘zbekiston nashriyoti”, 2022. – 296 b.
ISBN 978-9943-8723-7-0

UO‘K 821.512.133-1
KBK 84(5O‘)-5

TURKIY ADABIYOT DURDONALARI

MIRTEMIR

20-jild

Adabiy-badiiy nashr

Muharrir *Odil Ikromov*
Badiiy muharrir *Shuhrat Mirfayozov*
Dizayner *Bobur Tuxtarov*
Texnik muharrir *Yelena Tolochko*
Kichik muharrir *Zilola Mahkamova*
Musahhih *Dono To‘ychiyeva*
Sahifalovchilar: *Shahlo Buriyeva, Islom Azamatov*

Tasdiqnoma raqami № 4642. 22.07.2020-y.
Bosishga 18-oktabr 2022-yilda ruxsat etildi. Bichimi 60x90 $^{1}/_{16}$.
Ofset qog‘ozi. “PT Astra Serif” garniturasida ofset usulida bosildi.
Shartli bosma tabog‘i 18,5. Nashriyot-hisob tabog‘i 12,95.
Adadi 1 185 nusxa. Shartnoma № 88-1/22 Buyurtma raqami № 22-302

Original maket O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligining “O‘zbekiston” nashriyotida tayyorlandi.
100011, Toshkent, Navoiy ko‘chasi, 30.
Telefon: (71) 244-34-38, (71) 244-24-91.

“O‘zbekiston” NMIU MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili: 100011, Toshkent, Navoiy ko‘chasi, 30.



TURKIY ADABIYOT
DURDONALARI

MIRTEMIR